

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOTINSTITUTI

MUHANDIS TEXNIKA FAKULTETI «UMUMTEXNIKA FANLARI» KAFEDRASI



Texnologiya fakultetining – 5320400-«Kimyoviy-texnologiya» ta‘lim yo‘nalishi
talabalari uchun

TEXNIK MEXANIKA FANIDAN
MA‘RUZALAR TO‘PLAMI



QARSHI - 2019 y.

Tuzuvchilar :

QMII “Umumtexnika fanlari ” kafedrası
katta o’qituvchisi D.B.Irgashev
ass. S.U.Mustapaqulov, F.X.Boymuratov

Taqrizchilar: QarMII “Umumtexnika fanlari” kafedrası

mudiri dotsent J.S.Raximov
QarDU dotsenti F.Ochilov

Mazkur ma’ruzalar matni Texnologiya fakultetining 5320400-«Kimyoviy-texnologiya» ta’lim yo’nalishi 2-kurs talabalari uchun tayyorlandi.

Texnik mexanika fanidan ma’ruzalar matni “Umumtexnika fanlari” kafedrası yig’ilishi (bayon № __ . __ 2019 y.) Muhandistexnika fakultetining uslubiy kopmissiyasi bayon № __, “ __ ” _____ 2019 y.) tomonidan ko’rib chiqilib institut uslubiy kengashiga tavsiya etilgan.

Institut uslubiy kengashining (bayon № __, “ __ ” _____ 2019 y.) tomonidan ko’rib chiqilib tasdiqlangan.

NAZARIY MEXANIKA BO'LIMI

1-MA'RUZA.

Kirish. Nazariy mexanikaning rivojlanish tarixi. Statikaning asosiy tushuncha va qoidalari. Statika aksiomalari. Bog'lanishlar va bog'lanish reaksiyalari.

REJA:

1. Kirish. Nazariy mexanikaning rivojlanish tarixi.
 2. Mexanikaning rivojlanishiga O'zbekiston hududida yashagan ulug' mutafakkirlarning qo'shgan hissalar.
 3. Mexanikaning rivojlanishiga o'zbek olimlarining qo'shgan hissalar.
 4. Statikaning asosiy tushuncha va qoidalari.
 5. Statika aksiomalari.
 6. Bog'lanish va bog'lanish reaksiyalari.
- Adabiyotlar: 3, 4, 5, 6, 8, 9, 10, 11, 12.**

Tayanch iboralar: mexanik harakat, klassik mexanika, moddiy nuqta, absolyut qattiq jism, statika, kuch, kuchning jismga ta'sirini xarakterlovchi faktorlar, teng ta'sir etuvchi kuch, ekvivalent kuch, muvozanatlashgan kuch, statika aksiomalari, bog'lanish va bog'lanish reaksiyalari.

1.1. Kirish. Nazariy mexanikaning rivojlanish tarixi.

Hozirgi zamon texnikasi injenerlar oldiga material jismlarning mexanik harakati va mexanik o'zaro ta'sirlarini o'rganish bilan bog'liq juda ko'p masalalarni qo'yadi.

Mexanik harakat deb moddiy jismlarning fazoda vaqtga bog'liq ravishda bir-biriga nisbatan vaziyatini o'zgartirishiga aytiladi. Mexanik o'zaro ta'sir deganda moddiy jismlarning bir-biriga ko'rsatadigan ta'sirida bu jismlar harakatlarining o'zgarishi yoki bo'lmasa ular shakllarining o'zgarishi (deformatsiyalanishi) tushuniladi. Bu ta'sirlarning asosiymiqdoriy o'lchami sifatida kuch deb ataluvchi kattalik qabul qilingan. Tabiatda mexanik harakatlarga misol qilib, osmon jismlarining harakati, Yer qobig'ining tebranishi, havo va dengiz oqimlari, molekulalarning issiqlik harakatlari va boshqalar, texnikada esa, Yer sirti va suvda harakatlanuvchi turli xil transport vositalari va uchuvchi apparatlar, mashina, mexanizm va dvigatellar qismlarining harakatlari, suyuqlik va gazlarning oqimi va boshqa shunga o'xshash harakatlarni ko'rsatish mumkin.

Mexanik o'zaro ta'sirlarga butun olam tortilish qonuni asosida moddiy jismlarning o'zaro tortilishi, suyuqlik va gaz zarralarining bir-biriga o'zaro ta'sirlari va boshqalar misol bo'la oladi. Moddiy jismlarning mexanik harakatlari va o'zaro ta'sirlari haqidagi fanga mexanika deyiladi.. Qarab chiqiladigan mexanikaning muammo doirasi juda keng. Bu fanning rivojlanishi natijasida bir qator yangi fanlar paydo bo'ldi. Bularga nazariy mexanika, elastiklik nazariyasi, plastiklik nazariyasi, gidromexanika, aeromexanika, suyuqlik va gazlar mexanikasi shuningdek amaliy mexanika deb ataluvchi fanning bo'limlari – materiallar qarshiligi, mexanizm va mashinalar nazariyasi, mashina detallari shuningdek juda ko'p injenerlik fanlarini ko'rsatish mumkin.

Mexanikaning asosida klassik mexanika qonunlari (yoki Nyuton qonunlari) yotadi. Klassik mexanikada vaqt va fazo jismlarning harakatiga bog'liq emas deb qaraladi. Shuningdek, jismning massasi uning tezligiga bog'liq bo'lmagan o'zgarmas miqdor deb qaraladi.

Mexanikada abstrakt tushunchalardan keng foydalaniladi. Masalan, jismning deformatsiyalanishini e'tiborga olinmasa ularni absolyut qattiq jism, shakli va o'lchamlari e'tiborga olinmasa, moddiy nuqta deb qaraladi. Jismning barcha xossalari birdaniga e'tiborga olinsa hech qanday mexanik hodisani nazariy va amaliy jihatdan tekshirib bo'lmaydi, shu bilan birga, yechilishi juda oson bo'lgan har qanday masala haddan tashqari murakkablashtirib yuboriladi.

Mechanics is a branch of the physical sciences that is concerned with the state of rest or motion of bodies that are subjected to the action of forces. In general, this subject can be subdivided into three branches: rigid-body mechanics, deformable-body mechanics, and fluid mechanics. In this book we will study rigid-body mechanics since it is a basic requirement for the study of the mechanics of deformable bodies and the mechanics of fluids. Furthermore, rigid-body mechanics is essential for the design and analysis of many types of structural members, mechanical components, or electrical devices encountered in engineering. Rigid-body mechanics

is divided into two areas: statics and dynamics. Statics deals with the equilibrium of bodies, that is, those that are either at rest or move with a constant velocity; whereas dynamics is concerned with the accelerated motion of bodies. We can consider statics as a special case of dynamics, in which the acceleration is zero; however, statics deserves separate treatment in engineering education since many objects are designed with the intention that they remain in equilibrium.

The subject of statics developed very early in history because its principles can be formulated simply from measurements of geometry and force. For example, the writings of Archimedes (287–212 B.C.) deal with the principle of the lever. Studies of the pulley, inclined plane, and wrench are also recorded in ancient writings—at times when the requirements for engineering were limited primarily to building construction. Since the principles of dynamics depend on an accurate measurement of time, this subject developed much later. Galileo Galilei (1564–1642) was one of the first major contributors to this field. His work consisted of experiments using pendulums and falling bodies. The most significant contributions in dynamics, however, were made by Isaac Newton (1642–1727), who is noted for his formulation of the three fundamental laws of motion and the law of universal gravitational attraction. Shortly after these laws were postulated, important techniques for their application were developed by other scientists and engineers, some of whom will be mentioned throughout the text.

Nazariy mexanika fanining injenerlik bilimidagi roli va ahamiyati shundan iboratki, u hozirgi zamon texnikasining juda ko'p sohalarining ilmiy ba'zasi bo'lib hisoblanadi. Shu bilan birga tabiat haqidagi, ya'ni tabiiy fan bo'lgan mexanika qonunlari va usullari bizni o'rab olgan olamni bir qator muhim hodisalarini o'rganish va tushuntirishda muhim rol o'ynaydi.

Mexanika masalalarini qarab chiqishda, uni statika, kinematika va dinamika qismlariga bo'lish qabul qilingan.

Mexanika eng qadimgi fanlardan biri. Bizgacha yetib kelgan mexanikaga doir dastlabki qo'lyozma va ilmiy maqolalar qadimgi Misr va Gretsiya olimlariga taa'luqli. Qadimgi saqlanib qolgan kitoblarda turli xil statika masalalariga doir izlanishlar uchraydi.

Birinchi navbatda qadimgi Gretsiyaning buyuk filosofi Aristotel (384-322 yy. e.i.) asarlarini ko'rsatish mumkin. "Mexanika"^{1*} so'zini ham dastlab Aristotel fanga kiritgan.

Aristotel o'zining asarlarida richag va boshqa oddiy mashinalar muvozanati va harakatiga oid umumiy fikrlarni yozadi. U o'zining nazariy xulosalarini hech qanday tajriba bilan tekshirib ko'rmagan. U jismga ta'sir etuvchi kuchlarni o'zgarmas deb qaragan. Shu bilan birga Aristotel o'z zamonasida aytgan tezliklarini qo'shish haqidagi teorema va havo og'irlikka ega degan fikrlari to'g'ri.

Qadimgi grek olimlaridan yana biri mashhur olim Arximed (287-212 yy. e.i) bo'lib, u birinchi bo'lib mexanika muommolarini o'rganishda matematika usullaridan foydalanadi.

Arximed jismlarning muvozanati va og'irlik markazi, richagning muvozanati haqidagi qonun, qattiq jism statikasining asosiy prinsiplari hamda suyuqliklarning muvozanati haqidagi nazariyaga asos solgan.

1.2. Mexikaning rivojlanishida O'zbekiston hududida yashagan ulug' mutafakkirlarning ilmiy ishlari ham muhim o'rinni egallaydi. Abu Rayxon Beruniy (973-1018), Abu Ali ibn Sino (980-1037), Ulug'bek Muhammad Tarag'ay (1394-1449) kabi mutafakkirlar ana shular jumlasidandir. Beruniy va ibn Sino asarlarida mexanik harakat hamda planetalarning harakati haqida ajoyib fikrlar bayon qilingan.

Ibn Sino jism holatini o'zgarishi harakatni yuzaga keltiradi deb ko'rsatadi, jismlarning fazodagi harakati (mexanik harakat) esa harakatlarning xususiy holdir deb ta'kidlaydi.

Ulug'bek planetalar harakatini katta aniqlikda hisoblagan.

Mexanika Uyg'onish davrida – XV asrning birinchi o'n yilligida Italiyada, keyinchalik boshqa davlatlarda tez rivojlandi.

Mashhur italiyalik rassom, matematik, mexanik va injener Leonardo do Vinchi (1452-1519) mexanizmlar nazariyasini, mashinalardagi ishqalanishlarni, quvurlarda suvning harakatini va qiya tekislikda jismlarning harakatini o'rgangan.

Fanda revolyutsion to'ntarish qilgan polyak olimi N. Koopernik (1473-1543) hisoblanadi. U olam tuzilishining geliotsentrik sistemasini beradi. Bu sistemaga ko'ra markazida Quyosh uning atrofida planetalar, shuningdek Yer ham aylanadi.

* «Mexanika» so'zi grekchadan tarjima qilinganda «inshoot», «mashina» degan ma'nolarni bildiradi.

Dinamikaga fan sifatida italiyalik olim Galileo Galiley (1564-1642) asos solgan. U inersiya qonunini kashf etib jismning qiya tekislikdagi harakatini o'rgangan, jismlarining erkin tushish qonunini kashf qilgan.

Mexanikaning asosiy qonunlarini mashhur ingliz matematigi va mexanigi Isaak Nyuton (1643-1727) kashf qilgan. 1687 yilda bosilib chiqqan «Natural falsafaning matematik printsiplari» degan kitobida I. Nyuton klassik mexanika qonunlarini to'liq sistemasini beradi.

Nyuton mexanikaning ikkita asosiy qonunlarini: ta'sir va aks ta'sir qonuni va butun olam tortishish qonunini kashf etdi.

XVIII asrga kelib, tez sur'atlar bilan mexanikaning analitik usuli, ya'ni differensial va integral hisoblash usullari rivojlana boshlaydi.

Nuqta va qattiq jism dinamikasi masalalarini avval differensial tenglamalarini tuzib keyin ularni integrallash yo'li bilan yechish usullarini buyuk matematik va mexanik L. Eyler (1707-1783) tomonidan ishlab chiqildi.

1743 yilda fransuz olimi J. Dalamber (1717-1783) bog'lanishdagi mexanik sistemalariga ta'luqli masalalarni Dalamber prinsipi deb ataluvchi prinsip asosida yechish usulini berdi.

Fransuz olimi J. L. Lagranj (1736-1813) o'zining "Analitik mexanika" (1788) nomli asarida mexanika masalalarini mumkin bo'lgan ko'chish prinsipini qo'llash yordamida yechish usulini beradi.

XIX asrga kelib, mashinasozlik tez sur'atlar bilan rivojlana boshlaydi. Natijada kinematika mexanikadan alohida bo'lim bo'lib ajralib chiqadi. Hozirgi paytda mashina va mexanizmlarning harakatlarini o'rganishda kinematika asosiy o'rinni egallaydi.

Mexanika fanini rivojlanishiga katta hissa qo'shgan rus olimlaridan materiya va harakatning chambarchas bog'liqligini aniqlagan M. V. Lomonosov (1711-1765), analitik mexanika sohasida ilmiy ishlari bilan shuhrat qozongan M. V. Ostrogradskiy (1801-1862), mashina va mexanizmlar nazariyasiga asos solgan P. L. Chebishev (1821-1891), raketa nazariyasi va suyuq yoqilg'i bilan ishlaydigan raketa dvigateli nazariyasiga asos solgan K.E. Tsialkovskiy (1857-1935), o'zgaruvchan massali jismlarning harakatini o'rgangan I. V. Meshcherskiy (1859-1935), Yerning sun'iy yo'ldoshlarini yaratgan va uchirgan S.P. Korolyov (1906-1966), aerogidrodinamika, tebranishlar nazariyasi va kosmonavtika sohalarida tadqiqotlar qilgan M. V. Keldish (1911-1978) larning ishlari muhim ahamiyatiga ega.

1.3. Mexanika fanining rivojlanishiga o'zbek olimlaridan: iplar mexanikasi va inshootlarning seysmik mustahkamligi nazariyasiga oid qator ilmiy ishlarining muallifi M. T. O'rozboev (1906-1971), inshootlar zaminini hisoblashda va ularni loyihalashda, kema zirhi mustahkamligini aniqlashda qo'llaniladigan "Raxmatulin to'lqinlari" nomini olgan to'lqinlar nazariyasini kashf qilgan X. A. Raxmatulin (1900-1988), tutash muhitlar mexanikasi masalalarini algoritmash, avtomatik boshqarish sistemalarini yaratish sohasida ilmiy ishlar qilgan V.K. Qobulov (1921 yilda tug'ilgan) larning ulkan hissalar muhim ahamiyatga ega.

1.4. Statikaning asosiy tushuncha va qoidalari.

Kuchlar haqida umumiy bilim beruvchi, kuchlar ta'siridagi jismlarning muvozanatini o'rganuvchi mexanikaning bir bo'limiga statika deyiladi.

Jismlarning muvozanati deganda ularning boshqa jismlarga, masalan Yerga nisbatan tinch holati tushuniladi.

Tabiatda uchraydigan barcha qattiq jismlar, tashqi ta'sir natijasida katta yoki kichik miqdorda o'z formasini o'zgartiradi (deformatsiyalanadi). Deformatsiya kattaligi jismlarning materiali, ularning geometrik formasi va o'lchamiga hamda ta'sir etuvchi kuchning kattaligiga bog'liq. Turli xil inshoot va konstruksiyalar mustahkamligini ta'minlash uchun ularning materiali va o'lchamlari shunday tanlanadiki, tashqi ta'sirdan hosil bo'ladigan deformatsiya juda ham kichik bo'lsin. Shu sababli qattiq jismlarning muvozanat shartlarini o'rganishda ularning juda kichik deformatsiyalarini e'tiborga olmasa ham bo'ladi, ya'ni ularni absolyut qattiq jism deb qaraladi. Absolyut qattiq jism deb shunday qattiq jisimga aytiladiki, uning istalgan ikki nuqtasi orasidagi masofa doimo o'zgarishsiz qoladi. Bundan keyin statika masalalarini yechishda barcha jismlarni absolyut qattiq jism deb qaraladi yoki qisqa qilib qattiq jism deb ataladi.

Mexanikaning asosiy tushunchalaridan yana biri moddiy nuqta tushunchasidir. O'lchamlari e'tiborga olinmaydigan massasi bir nuqtada to'plangan jisimga moddiy nuqta deyiladi. Har qanday jismni moddiy nuqtalar to'plamidan tashkil topgan deb qarash mumkin.


Berilgan jismning muvozanat holati yoki harakati uning boshqa jismlar bilan mexanik o'zaro ta'sir harakteriga bog'liq bo'ladi.

Moddiy jismlar o'zaro ta'sirining miqdoriy o'lchoviga kuch deyiladi.

Mexanikada o'rganiladigan kattaliklar ikkiga bo'linadi: skalyar va vektor kattaliklar. Faqat miqdorga ega bo'lgan kattaliklarga skalyar kattaliklar deyiladi. Miqdordan tashqari fazodagi yo'nalishi bilan ham harakterlanadigan kattaliklarga vektor kattaliklar deyiladi.

Skalyar kattaliklarga masofa, massa, vaqtni, vektor kattaliklarga esa tezlik, tezlanish va h.k.z. larni misol qilib ko'rsatish mumkin. Kuch-vektor kattalik. Kuchning jismga ko'rsatadigan ta'siri: 1) kuch qo'yilgan nuqta, 2) kuchning yo'nalishi, 3) kuchning miqdori (moduli) bilan xarakterlanadi.

Kuchning moduli kuchni tanlangan o'lchov birligi bilan solishtirish orqali topiladi. Kuchning asosiy o'lchov birligi Halqaro o'lchov birliklar sistemasida (SI) 1 Nyuton (1 N) qabul qilingan. U boshqa o'lchov birliklarda ham o'lchanadi. Masalan, 1 kilonyuton (1 kN=1000 N), 1 kilogramm kuch (1 kg). Kuchdinometr asbobi yordamida o'lchanadi. Kuchlar boshqa vektor kattaliklar kabi ustida chiziqcha chizilgan harf bilan (masalan $\vec{F}$), kuch moduli esa $|\vec{F}|$ belgi yoki ustida chizig'i bo'lmagan harf F bilan belgilash qabul qilingan. Kuch chizmaga yo'nalishli kesma bilan ifodalanadi (1-rasm).



1- rasm

Kesmaning uzunligi belgilangan masshtabda kuchning modulini, kesmaning yo'nalishi kuchning yo'nalishini ifodalaydi. A nuqta kuchning qo'yilish nuqtasi (boshi), B nuqta kuchning uchi deyiladi. Kuch yo'nalgan CD chiziqqa kuchning ta'sir chizig'i deyiladi.

Agar jismga bir nechta $\vec{F}_1, \vec{F}_2, \dots, \vec{F}_n$ kuchlar ta'sir etsa, bunday kuchlar to'plamiga kuchlar sistemasi deyiladi va $(\vec{F}_1, \vec{F}_2, \dots, \vec{F}_n)$ deb belgilanadi.

Ta'sir etayotgan $(\vec{F}_1, \vec{F}_2, \dots, \vec{F}_n)$ kuchlar sistemasini boshqa biror $(\vec{P}_1, \vec{P}_2, \dots, \vec{P}_n)$ kuchlar sistemasi bilan almashtirilganda jismning muvozanat holati o'zgarmasa, bunday kuchlar sistemasiga ekvivalent kuchlar sistemasi deyiladi va quyidagicha yoziladi. $(\vec{F}_1, \vec{F}_2, \dots, \vec{F}_n) \infty (\vec{P}_1, \vec{P}_2, \dots, \vec{P}_n)$.

Agar kuchlar sistemasi bitta kuch bilan almashtirilganda jism holati o'zgarmasa, bu kuch berilgan kuchlar sistemasining teng ta'sir etuvchisi deyiladi va quyidagicha belgilanadi. $(\vec{F}_1, \vec{F}_2, \dots, \vec{F}_n) \infty \vec{R}$.

Kuchlar sistemasi ta'sirida jism muvozanatda (tinch holatda) bo'lsa, bunday kuchlar sistemasiga muvozanatlashuvchi kuchlar sistemasi deyiladi $(\vec{F}_1, \vec{F}_2, \dots, \vec{F}_n) \infty \vec{O}$.

Statika masalalari geometrik shakllar yasash yo'li bilan (geometrik usul) va sonli hisoblash (analitik usul) yordamida yechiladi.

1.5. Statika aksiomalari.


Statika matematik isbotsiz, kundalik tajriba natijasida tasdiqlanadigan bir necha aksiomaga asoslangan.

1-aksioma. Erkin absolyut qattiq jismga qo'yilgan ikkita kuch muvozanatda bo'lishi uchun faqat va faqat, bu kuchlar miqdor jihatidan teng, yo'nalish jihatdan kuchlar qo'yilgan nuqtalardan o'tuvchi to'g'ri chiziq bo'ylab qarama-qarshi tomonga yo'nalgan bo'lishi lozim.

Bunday kuchlar sistemasining teng ta'sir etuvchisi nolga teng bo'ladi. Bunday kuchlar sistemasi muvozanatlashgan sistema yoki nolli sistema deyiladi: $(\vec{F}_1, \vec{F}_2) \infty \vec{O}$ (2-rasm).

2-aksioma. Absolyut qattiq jismga qo'yilgan kuchlar sistemasiga muvozanatlashgan sistema qo'shilsa yoki undan ayrilsa, sistemaning jismga ko'rsatadigan ta'siri o'zgarmaydi.

Natija. Absolyut qattiq jismga qo'yilgan kuchni o'zining ta'sir chizig'i bo'ylab, jismning istalgan nuqtasiga ko'chirilganda, kuchning qattiq jismga ko'rsatadigan ta'siri o'zgarmaydi.




2- rasm

Isboti. Qattiq jismning biror A nuqtasiga $\vec{F}$ kuch qo'yilgan bo'lsin (3-rasm). Bu kuch ta'sir chizig'idan ixtiyoriy B nuqta olamiz. Bu nuqtaga muvozanatlashgan $(\vec{F}_1, \vec{F}_2)$ sistemani keltirib qo'yamiz. Bunda $\vec{F}_1 = \vec{F}$ va $\vec{F}_2 = -\vec{F}$ shart bajarilsin.

Hosil bo'lgan kuchlar sistemasi ta'sirida jismning holati o'zgarmaydi.


Chunki $(\vec{F}, \vec{F}_2)$ sistema muvozanatlashgan sistemani tashkil etadi. Muvozanatlashgan sistemani tashlab yuboramiz. Natijada jism B nuqtaga qo'yilgan $\vec{F}_1$ kuch ta'sirida qoladi. Shartga ko'ra esa $\vec{F}_1 = \vec{F}$ demak, jismning holati o'zgarmaydi. Absolyut qattiq jismga qo'yilgan kuch sirpanuvchi vektorni ifodalaydi.



3-rasm

3-aksioma (parallelogramm aksiomasi). Jismning biror nuqtasiga qo'yilgan ikkita kuchning teng ta'sir etuvchisi, shu kuchlarga qurilgan parallelogrammning kuchlar qo'yilgan nuqtasidan o'tuvchi diagonaliga teng.

$\vec{F}_1, \vec{F}_2$ vektorlar asosida qurilgan parallelogrammning diagonaliga teng $\vec{R}$ vektor $\vec{F}_1, \vec{F}_2$ vektorlarning geometrik yig'indisiga teng bo'ladi (4-rasm). Kuchlarning teng ta'sir etuvchisi bilan kuchlarning geometrik yig'indisi alohida-alohida tushunchalar bo'lib hisoblanadi. Ularni bir-biri bilan almashtirib yubormaslik kerak. Kuchlar teng ta'sir etuvchiga ega bo'lmasligi mumkin, lekin geometrik yig'indiga ega bo'ladi.



4-rasm

Multiplication and Division of a Vector by a Scalar. If a vector is multiplied by a positive scalar, its magnitude is increased by that amount. Multiplying by a negative scalar will also change the directional sense of the vector. Graphic examples of these operations are shown in Fig. 2–2.


Vector Addition. When adding two vectors together it is important to account for both their magnitudes and their directions. To do this we must use the parallelogram law of addition. To illustrate, the two component vectors A and B in Fig. 2–3a are added to form a resultant vector $R = A + B$ using the following procedure:

- First join the tails of the components at a point to make them concurrent, Fig. 2–3b.
- From the head of B , draw a line parallel to A . Draw another line from the head of A that is parallel to B . These two lines intersect at point P to form the adjacent sides of a parallelogram.
- The diagonal of this parallelogram that extends to P forms R , which then represents the resultant vector $R = A + B$, Fig. 2–3c.

We can also add B to A , Fig. 2–4a, using the triangle rule, which is a special case of the parallelogram law, whereby vector B is added to vector A in a “head-to-tail” fashion, i.e., by connecting the head of A to the tail of B , Fig. 2–4b. The resultant R extends from the tail of A to the head of B . In a similar manner, R can also be obtained by adding A to B , Fig. 2–4c. By comparison, it is seen that vector addition is commutative; in other words, the vectors can be added in either order, i.e., $R = A + B = B + A$.

4-aksioma (Nyutonning uchinchi qonuni). Har qanday muvozanatdagi ikkita jism bir – biri bilan miqdor jihatidan teng bir to'g'ri chiziq bo'ylab qarama-qarshi tomonga yo'nalgan kuchlar bilan o'zaro ta'sir etadi.

Bu qonun mexanikaning asosiy qonunlaridan biri bo'lib hisoblanadi. A jism B jismga qandaydir $\vec{F}_A$ kuch bilan ta'sir etsa, B jism ham A jismga shu kuchga miqdor jihatdan teng, bir to'g'ri chiziq bo'ylab qarama – qarshi yo'nalgan $\vec{F}_A = -\vec{F}_B$ kuch bilan ta'sir etadi (5-rasm). Shuni e'tirof etish



5-rasm

kerakki, $\vec{F}_A, \vec{F}_B$ kuchlar turli jismlarga qo'yilgan bo'lganligi uchun ular muvozanatlashgan kuchlar sistemasini tashkil etmaydi.

5-aksioma. Kuchlar sistemasi ta'siridagi deformatsiyalanadigan jism muvozanat holatida absolyut qattiq jismga aylansa, uning muvozanati o'zgarmaydi.


Bu qonun jismlarning qotish prinsipi deyiladi. Zanjirning zvenolari bir-biriga payvandlanganda, uning muvozanati buzilmaydi. Chunki muvozanatda bo'lgan jism qotishdan oldin va qotgandan keyin ham bir xil kuchlar sistemasi ta'sirida bo'ladi.

1.6. Bog'lanish va bog'lanish reaksiyalari.

Tabiatdagi barcha jismlarni ikkiga ajratish mumkin: 1) erkin, 2) bog'langan jismlar. Jism fazoda istalgan tomonga harakatlana olsa, bunday jism erkin jism deyiladi. Masalan, fazodagi havo shari. Jismning harakati biror sabab bilan cheklangan bo'lsa, bu jism bog'langan jism deyiladi. Jismning harakat yo'nalishiga qo'yilgan barcha jismlar (to'siqlar) bog'lanishlar deyiladi.

Bog'langan jismlarga misol qilib, stol ustiga qo'yilgan yuk, shipga osilgan qandil va boshqalarni misol keltirishimiz mumkin. Yuk uchun bog'lanish stol, qandil uchun bog'lanish zanjir hisoblanadi.

Bog'lanishning jismga ko'rsatadigan ta'siriga bog'lanish reaksiya kuchi yoki qisqacha



6-rasm

bog'lanish reaksiyasi deyiladi. Bog'lanishdagi jismlarning harakati qaysi yo'nalishda cheklangan bo'lsa, bog'lanish reaksiya kuchi shu yo'nalishga teskari yo'налgan bo'ladi.


Mexanika masalalarini yechishda, bog'lanish reaksiya kuchlarining yo'nalishlarini to'g'ri aniqlash juda muhim rol o'ynaydi. Bog'lanishlarning asosiy turlari bilan tanishamiz.

1. Silliq sirt yoki tayanch. Ishqalanish e'tiborga olinmaydigan sirtga silliq sirt deyiladi.

Sirt bilan jism orasida ishqalanish bo'lmaganda jism sirt bilan biror nuqtada tayanib turgan bo'lsa, silliq sirt jismni sirtga shu nuqtasiga o'tkazilgan normal bo'yicha harakatini cheklaydi. Shu sababli silliq sirtning reaksiya kuchi $\vec{N}$ sirtga o'tkazilgan normal bo'yicha yo'налgan bo'ladi (6-rasm, a). To'sin A nuqtada polga, B nuqtada vertikal devorga tayangan bo'lsa (6-rasm, b), polning $\vec{N}_A$ va vertikal devorning $\vec{N}_B$ reaksiya kuchlari A va B nuqtalarga o'tkazilgan perpendikulyar bo'yicha yo'naladi.

2. Arqon, ip. M shar egiluvchan, cho'zilmaydigan ip yordamida biror A nuqtaga osib qo'yilgan bo'lsa, u holda ipning bog'lanish reaksiya kuchi $\vec{R}$ ip bo'ylab osilish nuqtasi tomonga yo'налgan bo'ladi (6-rasm, b).



3. Tsilindrik sharnirli bog'lanishlar. Umumiy o'q yoki nuqta atrofida aylana oladigan ikkita jism orasidagi bog'lanishga sharnirdeyiladi. AB jism shunday sharnir yordamida qo'zg'almas D tayanchga mahkamlangan bo'lsin (7-rasm). U holda jismning A uchi sharnir o'qiga perpendikulyar biron – bir yo'nalishda siljiy



7-rasm

olmaydi. Demak, silindrik sharnirning $\bar{R}$ reaksiya kuchi sharnir o'qiga perpendikulyar tekislikda istalgan yo'nalishga ega bo'lishi mumkin. Masala yechishda $\bar{R}$ reaksiya kuchini aylanish o'qiga perpendikulyar tekislikda yotuvchi x va y o'qlarga parallel yo'nalgan tashkil etuvchilarga ajratib, jismning muvozanat shartidan topiladi.

4. Sferik sharnir va tovon tegi (podpyatnik). AO sterjen O nuqtada sferik sharnir vositasida berkitilgan bo'lsa, bu sterjen O nuqtadan o'tuvchi har qanday o'q atrofida faqat aylana oladi (8-rasm, a).




8- rasm

Sferik sharnirning $\bar{R}$ reaksiya kuchi O nuqtadan o'tadi, lekin qaysi tomonga yo'nalishini oldindan aytib bo'lmaydi. Sferik sharnirning reaksiya kuchini tanlab olingan koordinata o'qlariga parallel yo'nalgan tashkil etuvchilarga ajratib, ularni jismning muvozanat shartlaridan aniqlanadi. To'g'on tegining $\bar{R}$ bog'lanish reaksiya kuchi ham fazoda istalgan tomonga yo'nalgan bo'lishi mumkin (8-rasm, b).

5. Vaznsiz sterjen vositasidagi sharnirli bog'lanish. O'z og'irligi hisobga olinmaydigan, uchlaridan boshqa nuqtalariga hech qanday kuch qo'yilmagan sterjenlarga vaznsiz sterjenlar deyiladi. Jism uchlari sharnirli biriktirilgan ingichka sterjenlar vositasida mahkamlangan bo'lsin (9-rasm).

U holda sterjenning A va B nuqtalariga qo'yilgan ikkita kuch ta'sir qiladi; muvozanatda bo'lganda bu kuchlar bir to'g'ri chiziq bo'ylab, ya'ni AB bo'ylab yo'naladi. Ta'sir va aks ta'sir qonuniga ko'ra sterjen ham jismga AB bo'ylab yo'nalgan kuch bilan ta'sir qiladi. Demak, reaksiya kuchi sterjen o'qi bo'ylab yo'nalgan bo'ladi.



9- rasm

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Nazariy mexanika fani nimani o'rgatadi?
2. Mexanik harakat deb nimaga aytiladi?
3. «Mexanika» so'zi kim tomonidan fanga kiritilgan?
4. «Mexanika» so'zi qanday ma'noni bildiradi?
5. Nazariy mexanika fanininng rivojlanishiga ulkan hissa qo'shgan qanday olimlarni bilasiz?
6. Mexanikaning rivojlanishiga hissa qo'shgan O'zbekiston hududida yashagan sharq olimlaridan kimlarni bilasiz?
7. Mexanikaning rivojlanishiga hissa qo'shgan qaysi o'zbek olimlarini bilasiz?
8. Nazariy mexanika necha qismga bo'lib o'rganiladi?
9. Moddiy nuqta deb nimaga aytiladi?
10. Absolyut qattiq jism deb nimaga aytiladi?
11. Kuch deb nimaga aytiladi?

12. Statika deb nimaga aytiladi?
13. Kuchning jismga ta'siri qanday faktorlar bilan aniqlanadi?
14. Erkin jism deb qanday jismga aytiladi?
15. Bog'langan jism deb qanday jismga aytiladi?

2-MA'RUZA

KESISHUVCHI KUHLARNI GEOMETRIK USULDA QO'SHISH. KUHLNING O'QDAGI VA TEKISLIKDAGI PROEKSIIYASI. KUHLNING ANALITIK USULDA BERILISHI. KUHLARNI ANALITIK USULDA QO'SHISH.

REJA:

1. Kesishuvchi kuchlarni geometrik usulda qo'shish.
2. Kuchning o'qdagi va tekislikdagi proeksiyasi.
3. Kuchni analitik usulda berilishi.
4. Kuchlarni analitik usulda qo'shish.
5. Uch kuchning muvozanati haqidagi teorema.
6. Kesishuvchi kuchlar sistemasining muvozanat shartlari.


Adabiyotlar: 1, 2, 4, 6, 8, 9, 10.

Tayanch iboralar: kesishuvchi kuchlar sistemasi, kuchlar uchburchagi, kuchlar parallelogrammi, kuchning o'qdagi proeksiyasi, kuchning tekislikdagi proeksiyasi, kuchning analitik usulda berish, kuchni analitik usulda qo'shish uch kuch, kesishuvchi kuchlar sistemasi muvozanatning geometrik sharti, kesishuvchi kuchlar sistemasi, muvozanatining analitik sharti.

1. Kesishuvchi kuchlarni geometrik usulda qo'shish.

Ta'sir chiziqlari bir nuqtada kesishadigan kuchlar sistemasiga kesishuvchi kuchlar sistemasi deyiladi.


Kuchlarni ularning ta'sir chiziqlari bo'ylab ko'chirish mumkin bo'lganligi tufayli, (



10- rasm






$\vec{F}_1, \vec{F}_2, \dots, \vec{F}_n$) kesishuvchi kuchlar sistemasi (10-rasm, a) kuchlarning ta'sir chiziqlari kesishgan A nuqtaga qo'yilgan kuchlar sistemasiga ekvivalent bo'ladi (10-rasm, b).

Mexanikaning juda ko'p masalalarini yechish vektorlarni qo'shish, xususan kuchlarni qo'shish usullariga bog'liq. Kuchlar sistemasining geometrik yig'indisiga teng bo'lgan kattalikni, bundan keyin berilgan kuchlar sistemasining bosh vektori deb ataymiz.



Ikkita kuchni qo'shish. Ikkita kuchlarning geometrik yig'indisi $\vec{R}$, parallelogram qoidasi (11-rasm, a) yoki kuchlar uchburchagini qurish usuli bilan topiladi (11-rasm, b).


The two component forces F_1 and F_2 acting on the pin in Fig. 2-7a can be added together to form the resultant force $F_R = F_1 + F_2$, as shown in Fig. 2-7b. From this construction, or using the triangle rule, Fig. 2-7c, we can apply the law of cosines or the law of sines to the triangle in order to obtain the magnitude of the resultant force and its direction



Kuchlar uchburchagini qurish uchun ixtiyoriy a nuqtaga kuchlardan birini ifodalovchi vektorni qo'yish lozim. Bu vektorning uchiga ikkinchi kuchni ifodalovchi vektor keltirib qo'yiladi. Birinchi vektorning boshi bilan ikkinchi vektorning uchini tutashtirib, $\bar{R}$ ni ifodalovchi vektorni hosil qilamiz. Agar kuchlar orasidagi burchak α bo'lsa, $\bar{R}$ kuchning moduli kosinuslar teoremasidan topiladi: $R = \sqrt{F_1^2 + F_2^2 + 2F_1 \cdot F_2 \cos \alpha}$ (1) bu yerda $\cos(180^\circ - \alpha) = -\cos \alpha$. Qo'shiluvchi vektorlar bilan $\bar{R}$ orasidagi α, β va φ burchaklar sinuslar teoremasidan topiladi:

$$\frac{F_1}{\sin \gamma} = \frac{F_2}{\sin \beta} = \frac{R}{\sin \alpha} \quad (2) \quad \text{Bu yerda } \sin(180 - \alpha) = \sin \alpha.$$


Kuchlar sistemasini qo'shish. Istalgan kuchlar sistemasining geometrik yig'indisi (bosh




12- rasm

vektori) parallelogram qoidasi asosida kuchlarni ketma-ket qo'shib, yoki bo'lmasa kuchlar ko'pburchagi qurib topiladi. Kuchlar ko'pburchagini qurish usuli bir muncha oson va qo'lay hisoblanadi. Bu usul bilan $(\bar{F}_1, \bar{F}_2, \dots, \bar{F}_n)$ kuchlar sistemasining (12-rasm, a) bosh vektorini topish uchun ixtiyoriy O nuqta tanlab, bu nuqtaga $\bar{F}_1$ kuchni yo'nalishi bo'yicha keltirib qo'yamiz. $\bar{F}_1$ kuchining uchiga, $\bar{F}_2$ kuchni, $\bar{F}_2$ kuchni uchiga $\bar{F}_3$ kuchni keltirib qo'yamiz va hokazo. $\bar{F}_1$ kuchning boshi bilan $\bar{F}_n$ kuchning uchini tutashtirib, kuchlar sistemasining geometric yig'indisi $\bar{R}$ vektorini hosil qilamiz (12-rasm, b).

If more than two forces are to be added, successive applications of the parallelogram law can be carried out in order to obtain the resultant force. For example, if three forces F_1, F_2, F_3 act at a point O, Fig. 2-9, the resultant of any two of the forces is found, say, $F_1 + F_2$ —and then this resultant is added to the third force, yielding the resultant of all three forces; i.e., $F_R = (F_1 + F_2) + F_3$. Using the parallelogram law to add more than two forces, as shown here, often requires extensive geometric and trigonometric calculation to determine the numerical values for the magnitude and direction of the resultant. Instead, problems of this type are easily solved by using the “rectangular-component method,” which is explained in Sec.




$$\bar{R} = \bar{F}_1 + \bar{F}_2 + \dots + \bar{F}_n, \text{ yoki } \bar{R} = \sum \bar{F}_k \quad (3)$$



Kesishuvchi kuchlar sistemasining teng ta'sir etuvchisi kuchlarning geometrik yig'indisiga teng va shu kuchlar ta'sir chiziqlarining kesishgan nuqtasiga qo'yilgan bo'ladi.

1-masala. Uchta ip tugundabog'langan (13-rasm).



13- rasm

Ulardan ikkitasi A va B bloklar orqali o'tkazilib uchlariga $P_1 = 3H$ va $P_2 = 5H$ yuklar osilgan.

Uchinchiipninguchigaesaog'irligi P_3 bo'lganyukosilgan,
Agarsistemamuvozanatdabo'lsa P_3 yukningog'irligitopilsin.

bunda $\angle ACB = 60^\circ$

Yechish. Stugundauchtakuchta'sirqiladi: CAyo'nalishbo'yicha $\vec{P}_1$ kuch, CByo'nalishbo'yicha $\vec{P}_2$,
kuchvavertikalpastgayo'nalgan $\vec{P}_3$ kuch.

$\vec{P}_1$ va $\vec{P}_2$ kuchlarniqo'shish


bularningtengta'siretuvchisiRkuch $\vec{R}$ (1) formulabo'yichaaniqlanadi.

$$R = \sqrt{P_1^2 + P_2^2 + 2P_1P_2\cos 60^\circ} = \sqrt{3^2 + 5^2 + 2 \cdot 3 \cdot 5 \cdot 0,5} = \sqrt{9 + 25 + 15} = \sqrt{49} = 7 \text{ N}$$

$\vec{R}$ kuch $\vec{P}_3$ kuchbilanmuvozanatlashganiuchun

$$P_3 = R = 7 \text{ N}$$

2-masala. Kattaligio'zarotengva α



14- rasm

burchakhosilqilganikkita kuchningtengta'siretuvchisitopilsin.

Yechish. Shartgako'rakattaligi (moduli) tengbo'lganiuchun ($F_1 = F_2 = F$)
bukuchlarasosidaqurilganparallelogramABDCrombdaniborat.


Rombningdiagonaliburchaknitengikkigabo'ladi. RombningikkinchidiagonaliBcnio'tkazamiz.

Hosilbo'lganto'g'riburchakliAOCuchburchakdan $OA = AC \cos \frac{\alpha}{2}$ ekanliginianiqlaymiz:

$$\text{buyarda } OA = \frac{1}{2} AD = \frac{R}{2} \text{ va } AC = F \text{ emak, } \frac{R}{2} = F \cos \frac{\alpha}{2}, \text{ bunda } R = 2F \cos \frac{\alpha}{2}$$

2. Kuchningo'qdagivatekislikdagiproektsiyasi.

Statikamasalalariniyechishnialitik (hisoblash) usuligao'tamiz.
Buusulkuchningo'qdagiproektsiyasitushunchasigaasoslanadi. Kuchningo'qdagipreksiyasideb,
kuchmodulinikuchbilano'qiningmusbatyo'nalishibilantashkilqilganburchakkosinusigabo'lganko'
paytmagatengalgebraikkattalikkaaytiladi.



15 -rasm


Agarkuchbilano'qningmusbatyo'nalishiorasidagiburchako'tkirbo'lsa, proeksiyamusbat,
agaro'tmasburchakbo'lsa, proeksiyamanfiyishoradabo'ladi. Kucho'qqaperpendikulyarbo'lsa,
kuchningo'qdagiproektsiyasinolgateng.

Fkuchningo'qdagiproeksiyasini F_x bilan belgilaymiz. U holda
 rasmgako'raquyidagini yozamiz. $F_x = AB_1 = ae$, $Q_x = -CD_1 = -cd$

15-

$$15\text{-rasmdank o'rinadiki } F_x = F \cos \alpha, \quad Q_x = -Q \cos \varphi = Q \cos \alpha_1, \quad P_x = 0 \quad (4)$$

$\vec{F}$ kuchning Oxy tekislikdagi proeksiyasideb, $\vec{F}$
 kuchning boshivauchiningshutekislikdagi proeksiyalarini tutashtiruvchi yo'nalishli $\vec{F}_{xy} = \vec{OB}_1$,



kesmaga aytiladi

16- rasm

(16-rasm). $\vec{F}$ kuchning tekislikdagi proeksiyasio'qdagi proeksiyasidan farqqiladi.
 Kuchning tekislikdagi proeksiyasivektorkattalik bo'lib,


umiqdorga egabo'lishdantashqariyo'nalishgahamega. $\vec{F}$
 kuchning tekislikdagi proeksiyasining moduli. $F_{xy} = F \cos \theta$ buyerda θ - $\vec{F}$
 kuchbilano'qning tekislikdagi proeksiyasiorasidagiburchak.

Ko'pginahollardakuchningo'qdagi proeksiyasini topish uchun avvaluning tekislikdagi proeksiyasini
 niqlab, keyin kuchning tekislikdagi proeksiyasini shutekislikdayotgano'qlargaproeksiyalash kerak.
 16-rasmgako'raquyidagilarni hosil qilamiz.

$$F_x = F_{xy} \cos \varphi = F \cos \theta \cos \varphi, \quad F_y = F_{xy} \sin \varphi = F \cos \theta \sin \varphi \quad (5)$$

3. Kuchni analitik usulda aniqlash.

Kuchni analitik usulda aniqlash uchun,
 avvalokuchning fazodagi yo'nalishini aniqlash maqsadida Oxyz koordinatalar sistemasini tanlash lozim.



Agar F kuchning modulivakoorinata o'qlaribilantashkilqilgan α, β va γ burchaklar ma'lum bo'lsa, $\vec{F}$ kuchni ifodalovchi vektorni yasash mumkin (17-rasm).

Mexanika masalalarini yechishda, kuchni uning koordinata o'qlaridagi F_x, F_y, F_z , proeksiyalar orqali aniqlash qulayroqdir. Kuchning o'qdagiproeksiyalar berilgan bo'lsa, kuchning modulivakuchni o'qlaribilantashkilqilgan burchaklari quyidagi formulalar orqali aniqlanadi.

$$F = \sqrt{F_x^2 + F_y^2 + F_z^2} \quad (6) \quad \sin \alpha = \frac{F_x}{F}, \quad \sin \beta = \frac{F_y}{F}, \quad \sin \gamma = \frac{F_z}{F}$$

4. Kuchlarni analitik usulda qo'shish.


Kuchlarni analitik usulda qo'shish uchun quyidagi teoremani ko'rib chiqamiz.

Teorema: Teng ta'sir etuvchining biror o'qdagi proeksiyasi, qo'shiluvchi kuchlarning shu o'qdagi proeksiyalarining algebraik yig'indisiga teng. Bu teorema ko'ra $\vec{F}_1, \vec{F}_2, \dots, \vec{F}_n$, kuchlarning geometrik yig'indisi $\vec{R}$ bo'lsa, y holda $\vec{R} = \sum \vec{F}_k$ yoki $R_x = \sum F_{kx}, R_y = \sum F_{ky}, R_z = \sum F_{kz}$ (7)


R_x, R_y, R_z , larni bilgan holda (7)

formulagi ko'ra $R = \sqrt{R_x^2 + R_y^2 + R_z^2}$

$\cos \alpha = \frac{R_x}{R}, \cos \beta = \frac{R_y}{R}, \cos \gamma = \frac{R_z}{R}$ (8) (7) va (8) formulalar yordamida kuchlar analitik usulda qo'shiladi.



18-rasm




The parallelogram law of addition is shown in Fig. 2–13b, and the triangle rule is shown in Fig. 2–13c. The magnitudes of F_R and F are the two unknowns. They can be determined by applying the law of sines

$$\frac{F}{\sin 60^\circ} = \frac{200 \text{ lb}}{\sin 45^\circ} \quad \frac{F_R}{\sin 75^\circ} = \frac{200 \text{ lb}}{\sin 45^\circ}$$

$$F = 245 \text{ lb} \quad F_R = 273 \text{ lb}$$

F2–1. Determine the magnitude of the resultant force acting on the screw eye and its direction measured clockwise from the x axis.



If force F is to have a component along the u axis of $F_u = 6 \text{ kN}$, determine the magnitude of F and the magnitude of its component F_v along the v axis

3- masala. Jismning A nuqtasiga bir tekislikda yotuvchi va bir– biri bilan 105° , 135° va 120° burchak ostida uchta kuch qo'yilgan bo'lib, ularning modullari $F_1=18\text{N}$, $F_2=24\text{N}$, $F_3=30\text{N}$ ga teng. Bu kuchlarning teng ta'sir etuvchisining kattaligi va yo'nalishini aniqlang (18-rasm).

Yechish. Berilgan kuchlarning koordinata o'qlaridagi proeksiyalarini aniqlaymiz.

$$F_{1X} = F_1 \cos 30^\circ = 18 \cdot \frac{\sqrt{3}}{2} = 9\sqrt{3}$$

$$F_{2X} = -F_2 \cos 45^\circ = -24 \cdot \frac{\sqrt{2}}{2} = -12\sqrt{2}$$

$$F_{3X} = 0$$

$$F_{1Y} = F_1 \sin 30^\circ = 18 \cdot 0,5 = 9$$

$$F_{2Y} = F_2 \sin 45^\circ = 24 \cdot \frac{\sqrt{2}}{2} = 12\sqrt{2}$$

$$F_{3Y} = -F_3 = -30$$

(8) formulaga ko'ra $R_X = F_{1X} + F_{2X} + F_{3X} = 9\sqrt{3} - 12\sqrt{2} = 15,588 - 16,968 = -1,380$
 $R_Y = F_{1Y} + F_{2Y} + F_{3Y} = 9 + 12\sqrt{2} - 30 = 9 + 16,968 - 30 = -4,032$


(9) formulaga ko'ra $R = \sqrt{R_X^2 + R_Y^2} = \sqrt{(-1,38)^2 + (-4,032)^2} = 4,262 \text{ N}$
 $\cos \alpha = \frac{R_X}{R} = \frac{-1,38}{4,262} = -0,323, \quad \cos \beta = \frac{R_Y}{R} = \frac{-4,032}{4,262} = -0,946$

Aniqlangan α va β burchaklargako'rarasmdatengta'siretuvchiniko'rsatamiz;

$$\arccos(-0,323) = \alpha, \quad \alpha = 71^\circ \quad \arccos(-0,946) = \beta, \quad \beta = 19^\circ$$

5. Uchkuchningmuvozanatohaqidateorema.

Statikamasalalariniyechishdaquyidagiteoremadanfoydalanishqulaydir.



Birtekislikdayotuvchivao'zaroparallelbo'lmaganuchtakuchta'siridajismmuvozanatdabo'lsa, bukuchlarningta'sirchiziqlaribirnuqtadakesishadi.

Isboti. Teoremaniisbotlashuchunqattiqjismgata'siretuvchi $\vec{F}_1$, $\vec{F}_2$ va $\vec{F}_3$ kuchlarniko'ribchiqamiz. Shartgako'rabukuchlarbirtekislikdayotadivao'zaroparallelemas. Ularningta'sirchiziqlariAnuqtadakesishadi.

$\vec{F}_1$ va $\vec{F}_2$

kuchlarnio'zlariningta'sirchiziqlaribo'y labAnuqttagako'chiramizvaularnitengta'siretuvchisi $\vec{R}$ bilanalmashtiramiznatijadaparallelogramaksiomasigako'rajismikkita: Anuqttaga qo'yilgan $\vec{R}$

va B nuqtada qo'yilgan $\vec{F}_3$ kuch ta'sirida qoladi. 1-aksioma ga ko'ra $\vec{R}$ va $\vec{F}_3$ kuchlarning miqdorlariteng, yo'nalishiesabirto'g'richiziqbo'ylabqarama qarshitomongayo'nalgandaginaularmuvozanatlashadi. Demak, $\vec{F}_3$ kuchning ta'sir chizig'i ham A nuqtadan o'tadi (19-rasm). Biz shuni isbotlashimiz kerak edi.

6. Kesishuvchi kuchlar sistemasining muvozanati.

1. Qattiq jismga qo'yilgan kesishuvchi kuchlar sistemi muvozanatda bo'lishi uchun bu kuchlar sistemasining teng ta'sir etuvchisi, demak bosh vektori nolga teng bo'lishi zarur va yetarlidir. Kuchlar sistemasining muvozanati geometrik va analitik ko'rinishda bo'ladi. Muvozanatning geometrik sharti. Bizga ma'lumki kuchlar sistemasining bosh vektori $\vec{R}$, shu kuchlar sistemi asosida qurilgan kuchlar ko'pburchagining yopuvchi tomoni (12-rasm, b ga qarang) demak, $\vec{R}$ nolga teng bo'lishi uchun kuchlar ko'pburchagida oxirgi kuchning uchi, birinchi kuchning boshi bilan ustma-ust tushishi kerak.

Demak, kesishuvchi kuchlar sistemi muvozanatda bo'lishi uchun shu kuchlar asosida qurilgan ko'pburchak yopiq bo'lishi zarur va yetarlidir.

Muvozanatning analitik sharti. Kesishuvchi kuchlar sistemasining bosh vektori quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$R = \sqrt{R_x^2 + R_y^2 + R_z^2} \quad R=0 \text{ bo'lishi uchun } R_x=0, R_y=0, R_z=0 \text{ bo'lishi lozim.}$$

$$\text{Yoki } \sum F_{KX} = 0, \sum F_{KY} = 0, \sum F_{KZ} = 0 \quad (9)$$

Bu kesishuvchi kuchlar sistemi muvozanat shartining analitik ifodasidir. Kesishuvchi kuchlar sistemi muvozanatda bo'lishi uchun kuchlarning har bir koordinata o'qlaridagi proeksiyalarining yig'indisi nolga teng bo'lishi zarur va yetarlidir. Agar jismga ta'sir etuvchi kesishuvchi kuchlar sistemi bir tekislikda yotsa (9) tenglik quyidagi ko'rinishni oladi:

$$\sum F_{KX} = 0, \sum F_{KY} = 0, \quad (10)$$

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Kesishuvchi kuchlar deb qanday kuchlarga aytiladi?
2. Kuchning o'qdagi proeksiyasi deb nimaga aytiladi?
3. Kuchning tekislikdagi proeksiyasi deb nimaga aytiladi?
4. Kuch moduli analitik usulda qanday topiladi?
5. Kuchlar analitik usulda qanday qo'shiladi?
6. Kuchning o'qdagi proeksiyasi qachon nolga teng bo'ladi?
7. Tekislikdagi o'zaro parallel bo'lmagan uchta kuch qachon muvozanatda bo'ladi?
8. Kesishuvchi kuchlar sistemi muvozanatining geometrik sharti qanday ifodalanadi?
9. Kesishuvchi kuchlar sistemi muvozanatining analitik sharti qanday ifodalanadi?

3-MA'RUZA.

KUCHNING MARKAZ (NUQTA) GA NISBATAN MOMENTI. JUFT KUCH VA UNING MOMENTI. BIR TEKISLIKDA JOYLASHGAN JUFLARNI QO'SHISH. JUFTLAR SISTEMASINING MUVOZANAT SHARTLARI.

REJA:

- 1.. Kuchning markaz (nuqta) ga nisbatan momenti.
2. Juft kuch. Juft kuch momenti.
3. Ekvivalent juftlar haqida teorema.

4. Tekislikdagi juftlarni qo'shish. Tekislikdagi juftlarning muvozanati.
5. Kesishuvchi kuchlar teng ta'sir etuvchisining momenti haqida
6. Varin'on teoremasi.

Adabiyotlar: 1, 2, 4, 8, 9, 11, 12, 13

Tayanch iboralar: kuch momenti, kuch yelkasi, kuch momentining mexanik ma'nosi, juft kuch, juft kuch momenti, juft yelkasi, juftning jismga ko'rsatilgan ta'siri, juftlar ekvivalentligi, teng ta'sir etuvchining momenti.


1. Kuchning markaz (nuqta) ga nisbatan momenti.

Tajribalar ko'rsatadiki, kuch ta'sirida qattiq jism faqat ilgarilanma harakatlanib qolmasdan, qandaydir markaz (nuqta) atrofida aylanma harakat qilish ham mumkin. Kuchning aylantirish effektini uning momenti harakterlaydi.

1. Qattiq jismning A nuqtasiga $\vec{F}$ kuch qo'yilgan bo'lsin. $\vec{F}$ kuch qattiq jismni qandaydir O markaz atrofida aylantiradi. O markazdan $\vec{F}$ kuchning ta'sir chizig'iga tushirilgan perpendikulyarga kuch yelkasi deyiladi va h harfi bilan belgilanadi. (23-rasm, a). Kuch jismni O markaz atrofida aylantirish effekti quyidagilarga bog'liq bo'ladi:

- 1) $\vec{F}$ kuchning moduli va kuch yelkasi h ning uzunligiga;
- 2) O markaz va $\vec{F}$ kuch orqali o'tuvchi OAB aylanish tekisligining egallagan holatiga;
- 3) tekislikdagi aylanish yo'nalishiga;

jismga ta'sir etuvchi barcha kuchlar bir tekislikda yotadi deb olamiz. U holda jismga ta'sir etuvchi kuchlarning aylantirish tekisligi umumiy bo'ladi. Tekislikda aylanish yo'nalishini biror belgi orqali aniqlab olish mumkin. Kuch momenti haqidagi tushunchani kiritamiz. Kuchning O markazga nisbatan momenti deb, mos ishorada olingan kuch modulini kuch yelkasiga bo'lgan



23- rasm

ko'paytmasiga aytiladi. $\vec{F}$ kuchning O markazga nisbatan momenti (bundan keyin qisqagina kuch momenti deb ataymiz) ni $m_o(\vec{F})$ yoki $M_o(\vec{F})$ bilan belgilaymiz. Demak,


$$m_o(\vec{F}) = \pm F \cdot h \quad (11)$$

Agar kuch jismni O markaz atrofida soat mili harakati yo'nalishiga teskari yo'nalishda aylantirsa, kuch momenti musbat (23-rasm,a), agar kuch jismni O markaz atrofida soat mili harakati yo'nalishi bo'yicha aylantirsa kuch momenti manfiy ishorada olinadi (23-rasm,6).

Kuch momenti Nyuton metr (1Nm) da, shuningdek, kilogramm metr (1Kgm) larda o'lchanadi. Kuch momenti quyidagi xossalarga ega:

Jismga qo'yilgan kuchni o'zining ta'sir chizig'i bo'ylab jismning istalgan nuqtasiga ko'chirilsa, kuch momenti o'zgarmaydi; 2) agar jismga kuch ta'sir etmasa (kuch nolga teng), yoki moment markazi kuchning ta'sir chizig'ida yotgan bo'lsa (elka nolga teng) kuch momenti nolga teng bo'ladi (23-rasm, b); 3) kuch momenti son jihatdan OAB uchburchak yuzasining ikkilanganiga teng (23-rasm, a), ya'ni: $m_0(\bar{F}) = 2S_{\Delta OAB}$ (12) Haqiqatdan ham uchburchak OAB ning yuzasi. $S_{\Delta OAB} = \frac{1}{2} AB \cdot h$ bundan $2S_{\Delta OAB} = AB \cdot h$ AB asos bo'ylab $\bar{F}$ kuch qo'yilgan, shunga ko'ra $2S_{\Delta OAB} = F \cdot h$ (11) formula bilan solishtirsak $m_0(\bar{F}) = 2S_{\Delta OAB}$ kelib chiqadi.

2. Juft kuch. Juft kuch momenti. Miqdorlari teng, parallel va qarama-qarshi tomonga yo'nalgan ikkita kuchdan iborat sistemaga juft kuch deyiladi (25-rasm, a) Juft kuch $(\bar{F}_1, \bar{F}_2)$ ko'rinishida belgilanadi. $\bar{F}_1, \bar{F}_2$ kuchlarga juftning tashkil etuvchilari deyiladi. Juftni tashkil etuvchilarining ta'sir chiziqlari orasidagi eng qisqa masofaga juftning yelkasi deyiladi va u, d harfi bilan belgilanadi. Juftning ta'sir chiziqlari orqali o'tuvchi tekislikka, juftning ta'sir tekisligi deyiladi.



Juftni tashkil etuvchi kuchlar sistemasi muvozanatda bo'la olmaydi. Juft kuchlar teng ta'sir etuviga ega emas. Haqiqatdan ham $(\bar{F}_1, \bar{F}_2)$ juft qandaydir $\bar{Q}$ teng ta'sir etuvchiga ega bo'lsin. Teng ta'sir etuvchi $\bar{Q} \neq 0$ bo'lsin. U holda qattiq jism $\bar{F}_1, \bar{F}_2$ va $\bar{Q}$ kuchlar ta'sirida muvozanatda bo'lishi kerak. Lekin bu mumkin emas, chunki $\bar{F}_1 + \bar{F}_2 = 0$, $\bar{Q} \neq 0$ bo'lgani uchun $\bar{F}_1 + \bar{F}_2 + \bar{Q} \neq 0$. Shunday qilib juftni bitta kuch bilan almashtirib bo'lmaydi. Demak, juft kuch teng ta'sir etuvchiga ega emas.

Jismga qo'yilgan juftning aylantirish effekti: 1) juft kuchning moduli va yelkasining uzunligiga, 2) juft ta'sir tekisligining holatiga, 3) shu tekislikdagi aylanish yo'nalishiga bog'liq bo'ladi. Bu effektini xarakterlash uchun juft kuch momenti tushunchasi kiritiladi.

Juft kuch momenti deb mos ishora bilan olingan juftni tashkil etuvchi kuchlardan birining miqdorini juft yelkasi uzunligiga ko'paytmasiga teng kattalikka aytiladi. Juft momenti m yoki M bilan belgilanadi.

$$m = \pm F_1 d = \pm F_2 \cdot d \quad (14)$$

Agar juft jismni soat mili harakati yo'nalishiga teskari yo'nalishda aylantirsa, juft momenti musbat, agar soat mili yo'nalishi bo'ylab aylantirsa juft momenti manfiy ishorada olinadi. Juft momenti ham xuddi kuch momenti kabi bir xil o'lchov birliklarda o'lchanadi.

Teorema. Juftni tashkil etuvchi kuchlarning juft tekisligida ixtiyoriy nuqtaga nisbatan momentlarining algebraik yig'indisi juft momentiga teng.

Isbot. $(\bar{F}_1, \bar{F}_2)$ juftning ta'sir tekisligidan ixtiyoriy O nuqtani olamiz (25-rasm,6). Natijada quyidagini aniqlaymiz:

$$m_0(\bar{F}_1) = -F_1 \cdot Oa, \quad m_0(\bar{F}_2) = F_2 \cdot Ob.$$

butengliklarni qo'shamiz va $\bar{F}_1 = \bar{F}_2$, $Ob - Oa = d$ ekanligini e'tiborga olamiz.


$$m_0(\bar{F}_1) + m_0(\bar{F}_2) = -F_1 Oa + F_2 Ob = -F_1 Oa + F_2 (d + Oa) = -F_1 Oa + F_2 d + F_2 Oa = F_2 d = m$$

$$\text{demak,} \quad m_0(\bar{F}_1) + m_2(\bar{F}_2) = m$$

3.. Ekvivalent juftlar haqida teorema.

Teorema. Qattiq jismga qo'yilgan juftning ta'sirini o'zgartirmay, shu juftning ta'sir tekisligida yotuvchi, momenti berilgan juftning momentiga teng istalgan juft bilan almashtirish mumkin.

Isbot. Qattiq jismga yelkasi d_1 bo'lgan $(\bar{F}_1, \bar{F}_2)$ juft qo'yilgan bo'lsin. Bu juftning ta'sir tekisligidan ikkita ixtiyoriy C,D nuqtalar olamiz.



C va D nuqtalardan to'g'ri chiziqlar chiqaramiz. Bu to'g'ri chiziqlar $\bar{F}_1$ va $\bar{F}_2$ kuchlarning ta'sir chiziqlari bilan kesishadi. Kesishishda hosil bo'lgan nuqtalarni tegishlicha A va B deb belgilaymiz va $(\bar{F}_1, \bar{F}_2)$ juftlarni shu nuqtalarga keltirib qo'yamiz (26-rasm).

AC va BD to'g'ri chiziqlar orasidagi masofani d_2 bilan belgilaymiz. $\bar{F}_1$ kuchni AB va AC yo'nalishlarda $\bar{P}_1$ va $\bar{Q}_1$, $\bar{F}_2$ kuchni AB va BD yo'nalishlarda $\bar{P}_2$ va $\bar{Q}_2$ tashkil etuvchilarga ajratamiz. Bunda quyidagi shart bajarilsin: $\bar{P}_1 = -\bar{P}_2$ va $\bar{Q}_1 = -\bar{Q}_2$. Rasmdan ko'rinadiki $\bar{Q}_1$ va $\bar{Q}_2$, kuchlar miqdor jihatdan teng bir to'g'ri chiziq bo'ylab qarama-qarshi tomonga yo'nalgan: $(\bar{Q}_1, \bar{Q}_2) \propto O$, sistemani tashkil etgani uchun ularni tashlab yuboramiz. Natijada qattiq jism yelkasi d_2 bo'lgan $(\bar{P}_1, \bar{P}_2)$ juft ta'sirida qoladi.

$(\bar{F}_1, \bar{F}_2)$ juft $(\bar{P}_1, \bar{P}_2)$ juft bilan almashtirildi. $(\bar{P}_1, \bar{P}_2)$ juftni o'zining ta'sir tekisligidagi C va D nuqtalarga ko'chirish mumkin. Endi biz $(\bar{F}_1, \bar{F}_2)$ va $(\bar{P}_1, \bar{P}_2)$ juftlarining momentlari tengligini isbotlaymiz. $\bar{F}_1$ kuch $\bar{P}_1$ va $\bar{Q}_1$ kuchlarning teng ta'sir etuvchisi, shunga ko'ra quyidagini yozamiz.

$$\bar{F}_1 = \bar{P}_1 + \bar{Q}_1$$

Varin'on teoremasiga ko'ra, bu kuchlarning B nuqtaga nisbatan momentlari.

$$m_B(\bar{F}_1) = m_B(\bar{P}_1) + m_B(\bar{Q}_1)$$

$$m_B(\bar{F}_1) = F_1 \cdot d_1, \quad m_B(\bar{P}_1) = P_1 \cdot d_2, \quad m_B(\bar{Q}_1) = 0;$$

$$\text{Bularni o'rniga qo'ysak} \quad F_1 d_1 = P d_2$$


Demak, juftlarning momentlari o'zaro teng ekan. Teorema isbotlandi. Isbotlangan teoremadan juftlarning quyidagi hossalari kelib chiqadi:

1) juftning jismga ta'sirini o'zgartirmay, o'zining ta'sir tekisligida istalgan joyga ko'chirish mumkin.

2) juftning momentini o'zgartirmay, uning tashkil etuvchilari va yelkasi o'zgartirilsa, juftning jismga ta'siri o'zgarmaydi.

Texnik chizmalarda juft kuch ko'rsatilmaydi, balki uning aylanish yo'nalishi ko'rsatiladi.

Masalan, 27-rasmda, qattiq jismning A nuqtasiga $\bar{F}$ kuch momenti m ga teng bo'lgan juft qo'yilganligi ko'rsatilgan.




27- rasm

Juft kuchning yana bir kerakli hossaga ega ekanligini isbotlash mumkin (isbotini tushirib qoldiramiz).

3) Juft kuchni qattiq jismga ko'rsatadigan ta'sirini o'zgartirmay, bir tekislikdan unga parallel bo'lgan istalgan boshqa bir tekislikka ko'chirish mumkin.

4, Tekislikdagi juftlarni qo'shish. Tekislikdagi juftlarning muvozanati.

Teorema. Bir tekislikda yotuvchi juftlar sistemasi bitta juftga ekvivalent bo'lib, uning momenti berilgan juftlar momentlarining algebraik yig'indisiga teng.



28- rasm

Isbot. Bir tekislikda yotuvchi bir nechta, aniqroq bo'lishi uchun uchta juft berilgan bo'lsin (ular rasmda ko'rsatilmagan). Ularning momentlari tegishlicha m_1, m_2 va m_3 bo'lsin. Juftlarning ekvivalentligi haqidagi teoreмага asosan, uchta juftni momentlarini o'zgartirmay ularni umumiy $AB=d$ yelkaga keltiramiz (28-rasm). A va B nuqtalarga qo'yilgan kuchlarni alohida-alohida qo'shib, A nuqtada $\bar{R}$ va B nuqtada $\bar{R}^1$ kuchlarni hosil qilamiz. Bunda $\bar{R} = \bar{F}_1 - \bar{F}_2 + \bar{F}_3$, $\bar{R}^1 = \bar{F}_1^1 - \bar{F}_2^1 + \bar{F}_3^1$. Natijada juftlar sistemasi yelkasi $AB=d$ ($\bar{R}, \bar{R}^1$) teng ta'sir etuvchi juftga keltiriladi. Uning momenti

$$M = Rd = F_1 d - F_2 d + F_3 d = m_1 - m_2 + m_3$$


Uchta juft uchun teorema isbotlandi. Agar juftlar sistemasi momentlari $m_1, m_2, \dots, m_n$ bo'lgan n ta juftlardan iborat bo'lsa, ular momenti.

$$M = \sum m_K \quad (15) \text{ bo'lgan bitta juftga ekvivalent bo'ladi.}$$

Isbotlangan teoremdan ko'rinadiki, tekislikdagi juftlar sistemasi muvozanatda bo'lishi uchun berilgan juftlar momentlarining algebraik yig'indisi nolga teng bo'lishi zarur va yetarlidir.

$$\sum m_K = 0 \quad (16)$$


Principle of Virtual Work for a System of Connected Rigid Bodies The method of virtual work is particularly effective for solving equilibrium problems that involve a system of several connected rigid bodies, such as the ones shown in Fig. 11–5. Each of these systems is said to have only one degree of freedom since the arrangement of the links can be completely specified using only one coordinate u . In other words, with this single coordinate and the length of the members, we can locate the position of the forces F and P . In this text, we will only consider the application of the principle of virtual work to systems containing one degree of freedom.* Because they are less complicated, they will serve as a way to approach the solution of more complex problems involving systems with many degrees of freedom. The procedure for solving problems involving a system of frictionless connected rigid bodies follows



5. Teng ta'sir etuvchining momenti haqida Varin'on teoremasi.

Teorema: Tekislikdagi kesishuvchi kuchlar sistemasi teng ta'sir etuvchisining biror nuqtaga nisbatan momenti, qo'shiluvchi kuchlarning shu nuqtaga nisbatan momentlarining algebraik yig'indisiga teng.

Isbot: Ta'sir chiziqlari A nuqtada kesishuvchi $\vec{F}_1, \vec{F}_2, \dots, \vec{F}_n$ kuchlar sistemasini qarab chiqamiz (24-rasm). Tekislikdan ixtiyoriy O nuqta olib, bu nuqtadan OA ga perpendikulyar qilib Ox o'qini o'tkazamiz. Kuchlar sistemasining O



24- rasm

nuqtaga nisbatan momentlari tegishli belgilanadi. (12) formulaga ko'ra

$$m_o(\bar{F}_1), m_o(\bar{F}_2) \text{ va x.k. bilan}$$

$$m_o(\bar{F}_1) = 2S_{\Delta OAB}$$

Rasmga ko'ra $2S_{\Delta AOB1} = OA \cdot F_{1X}$, Bu yerda $\bar{F}_{1X}, \bar{F}_1$ kuchning OX o'qidagi proeksiyasi, shunga ko'ra $m_o(\bar{F}_1) = OA \cdot F_{1X}$

Shu usul yordamida qolgan kuchlarning momentlarini ham aniqlash mumkin. $\bar{F}_1, \bar{F}_2, \dots, \bar{F}_n$ kesishuvchi kuchlar sistemasining teng ta'sir etuvchisini $\bar{R}$ bilan belgilaymiz. Bu yerda $\bar{R} = \sum \bar{F}_K$ Uning x o'qidagi proeksiyasi $R_X = \sum F_{KX}$. Tenglikning har ikkala tomoniga OA ni ko'paytiramiz.

$$OA \cdot R_X = \sum (OA \cdot F_{KX}) \text{ (12) formulaga ko'ra } m_o(\bar{R}) = \sum m_o(\bar{F}_K) \text{ (13)}$$

Bu Varin'on teoremasining matematik ifodasi.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Kuch momenti deb nimaga aytiladi?
2. Kuch yelkasi deb nimaga aytiladi?
3. Kuch momenti qachon nolga teng bo'ladi?
4. Kuch momentining mexanik ma'nosi nima?
5. Kuchlar sistemasi teng ta'sir etuvchisining momenti haqida Varin'on teoremasi qanday ifodalanadi?
6. Kuch momenti qanday hossalarga ega?
7. Kuch momentining ishorasi qanday aniqlanadi?
8. Juft kuch deb nimaga aytiladi?
9. Juft teng ta'sir etuvchiga ega bo'ladimi?
10. Juft momenti deb nimaga aytiladi?
11. Juft yelkasining ta'rifi aytib bering?
12. Juftlarning ekvivalentligi haqidagi teoremani isbotlang?
13. Tekislikdagi juftlar qanday qo'shiladi?
14. Tekislikdagi juftlarning muvozanat shartini aytib bering?

4-MA'RUZA

FA'ZODAGI JUFTLARNI QO'SHISH. FAZODAGI KUHLAR SISTEMASINI BERILGAN MARKAZGA KELITIRISH. FAZOVIY KUHLAR SISTEMASINING MUVOZANAT SHARTLARI.

REJA:


- 1 Kuchning o'qqa nisbatan momenti bilan shu o'qdagi nuqtaga nisbatan momenti orasidagi bog'lanish.
- 2 Juft kuch momenti-vektor.
- 3 Fa'zodagi juftlarni qo'shish.
- 4 Fa'zodagi kuchlar sistemasini berilgan markazga keltirish.
- 5 Fa'zoviy kuchlar sistemasining muvozanat shartlari.

Adabiyotlar: 1, 4, 9, 12, 13.

Tayanch iboralar: juft kuch, erkin vektor, fa'zodagi juftlarni qo'shish haqida teorema, keltirish markazi, kuchlar sistemasi bosh vektori, kuchlar sistemasining bosh momenti, vektorli invariant, skalyar invariant.

Fazodagi juftlarni qo'shish.

Teorema. Absolyut qattiq jismga qo'yilgan juftlar sistemasi bitta juftga ekvivalent bo'lib, uning momenti berilgan juftlar momentlarning geometrik yig'indisiga teng.



56-rasm

Isbot. Avvalo I va II tekisliklarda yotgan momentlari $\bar{m}_1$ va $\bar{m}_2$ bo'lgan juftlarni qo'shamiz. Ikkala tekislik kesishgan $AB=d$ kesmani olib, berilgan juftlarni o'z tekisligida umumiy d yelkaga keltiramiz (56-rasm). isbotlangan juftlarning xossalriga asosan A va B nuqtalarga momenti $\bar{m}_1$ ga teng bo'lgan $(\bar{F}_1, \bar{F}_1')$ va momenti $\bar{m}_2$ bo'lgan $(\bar{F}_2, \bar{F}_2')$ juftlarni keltirib qo'yamiz. Bunda $m_1 = F_1 d_1$, $m_2 = F_2 d$ shart bajarilsin. A va B nuqtalarda qo'yilgan kuchlarni qo'shib haqiqatdan ham $(\bar{F}_1, \bar{F}_1')$ va $(\bar{F}_2, \bar{F}_2')$ juftlar bitta $(\bar{R}, \bar{R}')$ juftga ekvivalent ekanligiga ishonch hosil qilamiz Bu juftning momenti $\bar{M}$ ni aniqlaymiz. $\bar{R} = \bar{F}_1 + \bar{F}_2$; $\bar{R}' = \bar{F}_1' + \bar{F}_2'$ Bu juftning moment vektori quyidagicha aniqlanadi:

$$\bar{M} = \overline{AB} \times \bar{R} = \overline{AB} \times (\bar{F}_1 + \bar{F}_2) = (\overline{AB} \times \bar{F}_1) + (\overline{AB} \times \bar{F}_2)$$

bu yerda $\overline{AB} \times \bar{F}_1 = \bar{m}_1$, $\overline{AB} \times \bar{F}_2 = \bar{m}_2$

Shunday qilib,

$$\bar{M} = \bar{m}_1 + \bar{m}_2 \quad (45)$$

$\bar{M}$ vektor $\bar{m}_1$ va $\bar{m}_2$ vektorlar asosida qurilgan parallelogramning diagonaliga teng. Teorema ikkita juft uchun isbotlandi. Agar qattiq jismga momentlari $\bar{m}_1, \bar{m}_2, \dots, \bar{m}_n$ bo'lgan n ta juft ta'sir etayotgan bo'lsa, (45) formulani qo'llab ularni birin-ketin qo'shib chiqilsa, bu juftlar sistemasi bitta juftga ekvivalent ekanligi aniqlanadi. Bu juftning momenti berilgan juftlar momentlarining geometrik yig'indisiga teng.

$$\bar{M} = \bar{m}_1 + \bar{m}_2 + \dots + \bar{m}_n = \sum \bar{m}_k \quad (46)$$

$\bar{M}$ vektor juftlar momentlari vektorlari asosida qurilgan ko'pburchakning yopuvchi tomoni bo'lib hisoblanadi. Agar qo'shiluvchi vektorlar bir tekislikda yotmagan bo'lsa, hisoblashni analitik usulda olib borish kerak. Koordinata o'qlarini o'tkazib yig'indi vektorning o'qdagii proeksiyasi haqidagi teoremaga asosan (46) dan quyidagini yozamiz.

$$M_x = \sum m_{KX}; M_y = \sum m_{KY}; M_z = \sum m_{KZ} \quad (47)$$

(47) ga asosan $\bar{M}$ vektorni ko'rish mumkin, uning moduli $M = \sqrt{M_x^2 + M_y^2 + M_z^2}$

Yuqorida olingan natijalarga asoslanib, qattiq jismga ta'sir etuvchi juftlar sistemasining muvozanat shartlari osongina topiladi. Juftlar sistemi muvozanatda bo'lishi uchun $\bar{M} = 0$ yoki $\sum \bar{m}_K = 0$

shart bajarilishi kerak, qattiq jismga ta'sir etuvchi juftlar momenti vektorlaridan qurilgan ko'pburchak yopiq bo'lishi kerak. Endi muvozanatning analitik shartini aniqlaymiz. $M=0$ bo'lishi uchun $M_x = 0, M_y = 0, M_z = 0$ bo'lishi lozim, u holda (47) ga ko'ra quyidagini yozamiz.


$$\sum m_{Kx} = 0; \quad \sum m_{Ky} = 0, \quad \sum m_{Kz} = 0; \quad (48)$$

Fazoda ixtiyoriy joylashgan kuchlarni berilgan markazga keltirish.

Qattiq jismga ixtiyoriy yo'nalgan $\bar{F}_1, \bar{F}_2, \dots, \bar{F}_n$ fazoviy kuchlar sistemi ta'sir etayotgan bo'lsin (57-rasm). Ixtiyoriy O nuqta tanlab, uni keltirish markazi deb ataymiz. Puanso lemmasini qo'llab berilgan kuchlarni shu O markazga keltiramiz. Bunda keltirilayotgan kuchlarga mos juftlarni qo'shib olamiz. Natijada qattiq jismga $\bar{F}_1^1 = \bar{F}_1, \bar{F}_2^1 = \bar{F}_2, \dots, \bar{F}_n^1 = \bar{F}_n$ (49) kuchlar sistemi va momentlari

$$\bar{m}_1 = \bar{m}_0(\bar{F}_1), \quad \bar{m}_2 = \bar{m}_0(\bar{F}_2), \dots, \quad \bar{m}_n = \bar{m}_0(\bar{F}_n) \quad (50)$$

bo'lgan $(\bar{F}_1, \bar{F}_1^{11}), (\bar{F}_2, \bar{F}_2^{11}), \dots, (\bar{F}_n, \bar{F}_n^{11})$ qo'shilgan juftlar sistemi ta'sir qila boshlaydi, aniqlik



uchun rasmda $n=3$ ta kuch ko'rsatilgan.

57 - rasm

O nuqtaga qo'yilgan $\bar{F}_1^1 = \bar{F}_1, \bar{F}_2^1 = \bar{F}_2, \dots, \bar{F}_n^1 = \bar{F}_n$ kuchlarni geometrik qo'shib ularning teng ta'sir etuvchisi $\bar{R}^1$ kuchni hosil qilamiz. $\bar{R}^1 = \sum \bar{F}_K^1$ yoki $\bar{R} = \sum \bar{F}_K$ (51)

Kuchlarni O nuqtaga keltirishda qo'shib olingan juftlar moment vektorlarini geometrik usulda qo'shamiz. Natijada juftlar sistemi bitta juftga ekvivalent bo'ladi. Bu juftning momenti $\bar{M}_0 = \sum \bar{m}_K$, yoki $\bar{M}_0 = \sum \bar{m}_0(\bar{F}_K)$ (52)

Tekislikdagi kuchlar sistemasi kabi, bu yerda ham $\bar{R}$ barcha fazoviy kuchlar sistemasining geometrik yigindisi bo`lib sistemaning bosh vektori,  $\bar{M}_0$  kuchlar sistemasining O nuqtaga nisbatan momentlarning geometrik yigindisi bo`lib, kuchlar sistemasining shu O nuqtaga nisbatan bosh momenti deyiladi.

Shunday qilib biz quyidagi teoremani isbotladik; fazoda ixtiyoriy joylashgan kuchlar sistemasini biror O markazga keltirish natijasida bu kuchlar sistemasi keltirish markaziga qo`yilgan bosh vektor  $\bar{R}$  ga teng bitta kuch bilan momenti  $\bar{M}_0$  ga teng bitta juftga ekvivalent bo`ladi (57-rasm,6). Ko`pincha  $\bar{R}$  va  $\bar{M}_0$  vektorlar analitik usulda ya`ni ularning o`qlardagi proeksiyalari orqali aniqlanadi, ya`ni


$$R_x = \sum F_{kx}, \quad R_y = \sum F_{ky}, \quad R_z = \sum F_{kz}; \quad (53)$$

$$M_x = \sum m_x(\bar{F}_k), \quad M_y = \sum m_y(\bar{F}_k), \quad M_z = \sum m_z(\bar{F}_k); \quad (54)$$


11-1. Use the method of virtual work to determine the tension in cable AC. The lamp weighs 10 lb.




11-2. The scissors jack supports a load P . Determine the axial force in the screw necessary for equilibrium when the jack is in the position θ . Each of the four links has a length L and is pin connected at its center. Points B and D can move horizontally.



11-3. If a force of $P = 5$ lb is applied to the handle of the mechanism, determine the force the screw exerts on the cork of the bottle. The screw is attached to the pin at A and passes through the collar that is attached to the bottle neck at B .




***11-4.** The disk has a weight of 10 lb and is subjected to a vertical force $P = 8$ lb and a couple moment $M = 8$ lb · ft. Determine the disk's rotation θ if the end of the spring wraps around the periphery of the disk as the disk turns. The spring is originally unstretched.



Fazoviy kuchlar sistemasining muvozanat shartlari.

Fazoviy kuchlar sistemasi muvozanatining zaruriy va yetarli sharti $\bar{R} = 0, \bar{M}_0 = 0$ tengliklar bilan ifodalanadi (8.4 ga qarang). $\bar{R}$ va $\bar{M}_0$ vektorlar faqat va faqat $R_x = 0, R_y = 0, R_z = 0$ va $M_x = 0, M_y = 0, M_z = 0$ shart bajarilganda nolga teng bo'ladi.



58 - rasm

O'z navbatida

$$\begin{aligned} R_x &= \sum F_{Kx}; & R_y &= \sum F_{Ky}; & R_z &= \sum F_{Kz} \\ M_x &= \sum m_x(\bar{F}_K); & M_y &= \sum m_y(\bar{F}_K); & M_z &= \sum m_z(\bar{F}_K) \end{aligned} \quad (55)$$

U holda quyidagini yozamiz.

$$\begin{aligned} \sum F_{Kx} &= 0, & \sum F_{Ky} &= 0, & \sum F_{Kz} &= 0 \\ \sum m_x(F_K) &= 0, & \sum m_y(F_K) &= 0, & \sum m_z(F_K) &= 0 \end{aligned} \quad (56)$$

Bu tenglamalar fazoviy kuchlar sistemasi muvozanatining analitik shartlarini ifodalaydi.

Fazoviy kuchlar sistemasi muvozanatda bo'lishi uchun, kuchlar sistemasining koordinata o'qlaridagi proektsiyalarining yig'indisi va shu o'qlarga nisbatan momentlarining yig'indisi nolga teng bo'lishi zarur va yetarlidir. (56) tengliklar sistemasi qattiq jismga ta'sir etuvchi istalgan fazoviy kuchlar sistemasining muvozanat shartlarini ifodalaydi.

Parallel kuchlar bo'lgan hol. Agar jismga ta'sir etuvchi kuchlar parallel kuchlardan iborat bo'lsa, koordinata sistemasini shunday tanlash lozimki, o'qlardan biri masalan, z o'qi kuchlarga parallel yo'nalgan bo'lsin (58-rasm). Bunday holda kuchlarning x, va y o'qlardagi proektsiyalari va z o'qqa nisbatan momentlari nolga teng bo'ladi (56) tenglamalar sistemasi quyidagi ko'rinishni oladi. $\sum F_{Kz} = 0; \sum m_x(\bar{F}_K) = 0, \sum m_y(\bar{F}_K) = 0$ (57)

Qolgan tenglamalar ayniyatga aylanadi. Shunday qilib, fazoviy parallel kuchlar sistemasi muvozanatda bo'lishi uchun barcha kuchlarning parallel o'qdagi proektsiyalarining yig'indisi va qolgan ikki o'qqa nisbatan momentlarining yig'indisi nolga teng bo'lishi zarur va yetarlidir.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Fazodagi juftlarni qo'shishda qanday teoremdan foydalanamiz?
2. Qattiq jismga ta'sir etuvchi fazodagi juftlar sistemasi muvozanatining analitik sharti qanday ifodalanadi?

3. Fazodagi ixtiyoriy joylashgan kuchlar sistemasini berilgan markazga keltirish natijasida qanday natijaga erishamiz?
4. Bosh vektor deb nimaga aytiladi?
5. Bosh moment deb nimaga aytiladi?
6. Fazodagi juftlar sistemasining bosh vektori va bosh momenti qanday formulalar bilan aniqlanadi?

5-MA'RUZA

MODDIY NUQTA KINEMATIKASI. KINEMATIKAGA KIRISH. KINEMATIKANING ASOSIY TUSHUNCHALARI. NUQTA HARAKATINING BERILISH USULLARI: VEKTOR USULI, KOORDINATALAR USULI, TABIIY USUL. NUQTANING HARAKAT IZI. NUQTANING TEZLIK VA TEZLANISH VEKTORLARI

REJA:

1. Kinematikaning asosiy tushuncha va qoidalari.
2. Nuqta harakatining berilish usullari.
3. Harakat vektor usulda berilganda nuqtani tezligi.
4. Harakat vektor usulda berilganda nuqtaning tezlanishi.

Adabiyotlar: 4, 8, 9, 12 **Tayanch iboralar:** kinematika, fazo, vaqt, harakat, metr, soniya (sekund), ko'chish, kinematikaning asosiy masalasi, vektor usuli, koordinatalar usuli, tabiiy usul, tezlik, tezlanish.

Kinematikaning asosiy tushuncha va qoidalari.


Jismlarning harakatini ularga ta'sir etuvchi kuchlar va inertligini (massasini) e'tiborga olmay, sof geometrik nuqtai nazardan o'rganuvchi nazariy mexanikaning bir qismiga kinematika deyiladi.

Kinematika so'zi yunoncha «kinema» so'zidan olingan bo'lib, harakat ma'nosini anglatadi. Jismning vaqtga bog'liq ravishda fazoda boshqa jismlarga nisbatan vaziyatini o'zgartirishiga mexanik harakat deyiladi.

Harakat tushunchasi fazo, vaqt* va jism (nuqta) tushunchalari bilan chambarchas bog'liq. Vaqtning turli momentlarida harakatlanuvchi jism (yoki nuqta) ning boshqa jismlarga nisbatan holatini aniqlash uchun sanoq sistemasini tanlanadi. Sanoq sistemasini shartli ravishda qo'zg'almas deb olish yoki harakatdagi jismga biriktirilgan deb qarash mumkin.

Jismning fazoda qiladigan harakati vaqt o'tishi bilan sodir bo'ladi. Mexanikada fazo uch o'lchovli Yevklid fazosi deb qaraladi. Undagi barcha o'lchashlar Yevklid geometriyasi usullari asosida olib boriladi. Uzunlik o'lchov birligi qilib 1 m olingan.

Vaqt uzluksiz o'zgaruvchan va skalyar kattalik. Kinematika masalalarida t vaqt mustaqil o'zgaruvchan (argument) deb qabul qilinadi. Qolgan boshqa o'zgaruvchan kattaliklar (masofa,



79- rasm

*Mexanikada vaqt barcha sanoq sistemalari uchun bir xilda o'tadi va absolyut deb hisoblanadi. Vaqtning o'lchov birligi qilib 1 soniya (1s) qabul qilingan.

tezlik va b.q.) vaqt o'tishi bilan o'zgaruvchan kattaliklar yoki t vaqtning funksiyasi hisoblanadi. Vaqtni hisoblash boshlang'ich moment ($t=0$) dan boshlab olib boriladi.

Ko'chish va harakat tushunchalari kinematikaning asosiy tushunchalaridir. Nuqtaning ma'lum vaqt oralig'ida fazoda bir holatdan boshqa holatga ixtiyoriy ravishda o'tishi ko'chish deyiladi. Nuqtaning boshlang'ich holatdan oxirgi holatga vaqtga bog'liq holda aniq bir usulda o'tishiga harakat deyiladi. Fazoda harakatlanayotgan nuqtaning biror sanoq sistemasiga nisbatan holati bilan vaqt orasidagi bog'lanishni ifodalovchi tenglamaga nuqtaning harakat qonuni deyiladi.

Kinematikaning asosiy masalasi nuqtaning (jismning) harakat qonunlarini o'rganishdan iborat. Agar nuqtaning biror sanoq sistemasiga nisbatan harakat qonuni berilgan bo'lsa, nuqta harakatining kinematik karakteristiklari: traektoriya, tezlik va tezlanishlarni aniqlash mumkin bo'ladi. Biror sanoq sistemasiga nisbatan harakatlanuvchi nuqtaning qoldirgan iziga traektoriya deyiladi.

Har qanday qattiq jismni nuqtalar to'plamidan iborat deb qarash mumkin. Shu sababli jism harakatini o'rganish uchun uning nuqtalari harakatini o'rganishga to'g'ri keladi. Dastlab nuqta kinematikasini o'rganib, undan keyin qattiq jism kinematikasini o'rganishga o'tiladi.

Nuqta harakatining berilish usullari.

Nuqta harakati quyidagi uchta usul yordamida beriladi:

- 1) Vektor usuli,
- 2) Koordinatalar usuli,
- 3) Tabiiy usul.

Nuqta harakatining vektor usulda berilishi. M nuqta qandaydir Oxyz koordinatalar sistemasiga nisbatan harakatlanayotgan bo'lsin. Vaqtning istalgan paytida nuqtaning holatini M nuqta va koordinata boshi O ni tutashtirishdan hosil bo'lgan $\vec{r}$ radius-vektor orqali aniqlash mumkin (79-rasm). M nuqta harakatlanayotganida vaqtga bog'liq ravishda $\vec{r}$ radius-vektorning moduli ham, yo'nalishi ham o'zgarib boradi. Demak, $\vec{r}$ radius-vektor t vaqtning vektorli funksiyasidan iborat bo'ladi, ya'ni

$$\vec{r} = \vec{r}(t) \quad (1)$$

(1) tenglamaga nuqtaning vektor shaklidagi harakat tenglamasi deyiladi. Radius-vektorlarning uchlarini tutashtirishda hosil bo'lgan chiziqqa vektorlar godografi deyiladi. Vektorlar godografi harakatlanuvchi nuqtaning traektoriyasi bo'lib hisoblanadi.

Vektorni analitik usulda berish uchun uning koordinata o'qlaridagi proeksiyalari berilgan bo'lishi lozim. $\vec{r}$ vektorning to'g'ri burchakli Dekart koordinata o'qlaridagi proeksiyalari quyidagicha belgilanadi:


$$r_A = x, \quad r_y = y, \quad r_z = z \text{ bu yerda: } x, y, z - M \text{ nuqtaning koordinatalari.}$$

Agar koordinata o'qlarining birlik vektorlarini $\vec{i}$, $\vec{j}$ va $\vec{k}$ - deb belgilasak $\vec{r}$ radius-vektor uchun quyidagi ifodani hosil qilamiz: $\vec{r} = x\vec{i} + y\vec{j} + z\vec{k}$ (2)

(2) tenglik harakatning vektorli va Dekart koordinatalari orqali aniqlash usullari orasidagi bog'lanishni ifodalaydi.


Nuqta harakatining koordinatalar usulda berilishi. Nuqtaning fazodagi holatini uning x, y, z Dekart koordinatalari orqali aniqlash mumkin. Nuqta harakatlanganda uning koordinatalari vaqtga bog'liq ravishda o'zgaradi, ya'ni x, y, z koordinatalar vaqtning bir qiymatli funksiyasidan iborat bo'ladi: $x = f_1(t), \quad y = f_2(t), \quad z = f_3(t)$ (3)

(3) tenglamalarga nuqta harakatining Dekart koordinatalaridagi tenglamalari deyiladi. Bu tenglamalar yordamida nuqtaning harakati koordinatalar usulida berilganda harakat qonunini aniqlaydi. Agar nuqta faqat bitta tekislikda harakatlansa, nuqtaning harakat tenglamalari bittaga kamayadi, ya'ni $x = f_1(t)$, $y = f_2(t)$ (4) Agar nuqta to'g'ri chiziq bo'ylab harakatlanayotgan bo'lsa, u holda Ox o'qini shu to'g'ri chiziq bo'ylab yo'naltiramiz. Nuqtani harakat tenglamasi bitta tenglama bilan ifodalanadi: $x = f(t)$ (5) ga nuqtaning to'g'ri chiziqli harakat tenglamasi deyiladi.



Nuqta harakatining tabiiy usulda berilishi.

Nuqtaning traektoriyasi avvaldan ma'lum bo'lsa, harakatni tabiiy usulda berish maqsadga muvofiqdir. Nuqta O_1xyz koordinatalar sistemasiga nisbatan qandaydir AB egri chiziq bo'ylab harakatlanayotgan bo'lsin (80-rasm). Shu traektoriya ustidan ixtiyoriy qo'zg'almas O nuqta tanlaymiz. O nuqtani sanoq boshi deb ataymiz hamda musbat va manfiy harakat yo'nalishini belgilab olamiz. U holda M nuqtaning traektoriyadagi holati egri chiziqli $S = \overline{OM}$ yoy koordinatasi bilan aniqlanadi. M nuqta harakatlanishi natijasida $M_1, M_2, \dots$ holatlarni egallaydi va vaqt o'tishi bilan s masofa o'zgarib boradi va t vaqtning bir qiymatli funksiyasidan iborat bo'ladi:



81- rasm

$$s = f(t) \quad (6)$$

(6) tenglamaga M nuqtaning traektoriya bo'ylab harakat tenglamasi yoki harakat qonuni deyiladi.

Agar 1) nuqtaning traektoriyasi, 2) traektoriyada musbat yoki manfiy harakat yo'nalishini ko'rsatuvchi sanoq boshi, 3) nuqtaning traektoriya bo'ylab qiladigan $s=f(t)$ harakat qonunlari avvaldan ma'lum bo'lsa, nuqtaning harakati tabiiy usulda beriladi.

Shuni ta'kidlash lozimki (6) dagi S kattalik nuqtaning bosib o'tgan yo'lini emas, balki nuqtaning holatini aniqlaydi. Masalan, nuqta O sanoq boshidan harakatlanib M_1 nuqta kelib, yana iziga qaytib M nuqtaga kelsin. Bunday holda nuqtaning koordinatasi $S = OM$ bo'ladi. Bosib o'tgan yo'li $OM + M_1M$ ga teng bo'ladi.

Harakat vektor usulda berilganda nuqtaning tezligi.

To'g'ri burchakli Dekart koordinatalar sistemasiga nisbatan M nuqta harakatlanayotgan bo'lsin. Nuqta vaqtning t paytida $\vec{r}$ radius-vektor bilan aniqlanuvchi M nuqtada, vaqtning t_1 paytida M_1 holatni egallab, radius – vektori $\vec{r}_1$ bo'lsin (81-rasm, a).

U holda nuqta $\Delta t = t_1 - t$ vaqt oraligida $\overline{MM_1} = \Delta \vec{r}$ ga ko'chadi. OMM₁ uchburchakdan quyidagini yozamiz.

$$\overline{MM_1} = \vec{r}_1 - \vec{r} = \Delta \vec{r}$$

Ko'chish vektori $\Delta \vec{r}$ ni shu ko'chish sodir bo'ladigan Δt vaqtga nisbati nuqtaning mazkur vaqt oraligidagi o'rtacha tezlik vektori deyiladi.

$$\bar{g}_{yp} = \frac{\Delta \vec{r}}{\Delta t} \quad (7)$$

O'rtachatezlikvektori $\bar{g}_{yp}$ $\Delta \vec{r} = \overline{MM_1}$ vektorbo'yichayo'nalganbo'ladi. Δt
vaqtoralig'iqanchakichikqilibolinsa, nuqtaharakatinixarakterlovchi $\bar{g}_{yp}$
kattalikshunchaaniqbo'ladi.
Nuqtaningharakatito'g'risidaaniqxarakteristikagaegabo'lishuchunberilganondaginuqtaningtezligi
tushunchasikiritiladi.

Nuqtao'rtachatezlikvektorining Δt nolga intilgandagilimitinuqtaningberilganondagitezlik
(oniyezlik) vektorideyiladiva $\bar{g}$ bilanbelgilanadi:

$$\bar{g} = \lim_{\Delta t \rightarrow 0} (\bar{g}_{yp}) = \lim_{\Delta t \rightarrow 0} \frac{\Delta \vec{r}}{\Delta t} \text{ yoki } \bar{g} = \frac{d\vec{r}}{dt} \quad (8)$$

Demak, nuqtaningtezlikvektoriuningradiusi
vektoridanvaqtbo'yichaolinganbirinchitartiblihosilateng.

Tezlikvektoriningo'lchovbirligi $[g] = \frac{[uzunlik]}{[vaqt]} = \frac{L}{T}$, tezlikasosan $\frac{m}{s}$ yoki $\frac{km}{soat}$ lardao'lchanadi.


Rectilinear Kinematics. The kinematics of a particle is characterized by specifying, at any given instant, the particle's position, velocity, and acceleration. **Position.** The straight-line path of a particle will be defined using a single coordinate axis s , Fig. 12–1a. The origin O on the path is a fixed point, and from this point the position coordinate s is used to specify the location of the particle at any given instant. The magnitude of s is the distance from O to the particle, usually measured in meters (m) or feet (ft), and the sense of direction is defined by the algebraic sign on s . Although the choice is arbitrary, in this case s is positive since the coordinate axis is positive to the right of the origin. Likewise, it is negative if the particle is located to the left of O . Realize that position is a vector quantity since it has both magnitude and direction. Here, however, it is being represented by the algebraic scalar s , rather than in boldface s , since the direction always remains along the coordinate axis. **Displacement.** The displacement of the particle is defined as the change in its position. For example, if the particle moves from one point to another, Fig. 12–1b, the displacement is Δs . **Velocity.** If the particle moves through a displacement Δs during the time interval Δt , the average velocity of the particle during this time interval is

$$v_{avg} = \frac{\Delta s}{\Delta t}$$

$$v = \frac{ds}{dt}$$

If we take smaller and smaller values of Δt , the magnitude of v_{avg} becomes smaller and smaller. Consequently, the instantaneous velocity is a vector defined as

Harakat vektor usulda berilganda nuqtaning tezlanishi.



Biror vaqt oraligida nuqta tezligi moduli va yo'nalishining o'zgarishini xarakterlovchi kattalikka tezlanish deyiladi. Vaqtning qandaydir t paytida nuqta M holatda bo'lib tezligi $\vec{g}$, vaqtning t_1 paytida nuqta M_1 holatga kelib tezligi $\vec{g}_1$ bo'lsin (81–rasm, 6). $\Delta t = t_1 - t$ vaqt oralig'ida nuqtaning tezligi $\Delta \vec{g} = \vec{g}_1 - \vec{g}$ orttirma oladi. $\Delta \vec{g}$ tezlik orttirmasini aniqlash uchun $\vec{g}_1$ M_1 tezlik vektorini M nuqtaga o'z-o'ziga parallel ko'chirib, $\vec{g}$ va $\vec{g}_1$ tezlik vektorlari asosida parallelogram quramiz.

Parallelogramning ikkinchi tomoni $\Delta \vec{g}$ tezlik orttirmasi bo'lib hisoblanadi. Shuni qayd qilish kerakki, $\Delta \vec{g}$ tezlik vektori doimo traektoriya bo'liq tomoniga qarab yo'nalgan bo'ladi. $\Delta \vec{g}$ tezlik orttirmasini Δt ga nisbati nuqtaning o'rtacha tezlanishi deyiladi:

$$\vec{a}_{yp} = \frac{\Delta \vec{g}}{\Delta t} \quad (9)$$

$\vec{a}_{yp}$ vektorning yo'nalishi $\Delta \vec{g}$ vektorning yo'nalishi bilan bir xil bo'ladi. Nuqtaning o'rtacha tezlanish vektori $\vec{a}_{yp}$ ni Δt nolga intilgandagi limiti nuqtaning berilgan paytdagi tezlanish vektori deyiladi:

$$\vec{a} = \lim_{\Delta t \rightarrow 0} \frac{\Delta \vec{g}}{\Delta t} \quad \text{yoki} \quad \vec{a} = \frac{d\vec{g}}{dt} = \frac{d^2 \vec{r}}{dt^2} \quad (10)$$

Demak, nuqtaning berilgan paytdagi tezlanish vektori nuqta tezlik vektoridan vaqt bo'yicha olingan birinchi tartibli hosilasiga yoki radius–vektordan vaqt bo'yicha olingan ikkinchi tartibli hosilasiga teng.

Tezlanishning o'lchov birligi $\frac{L}{T^2}$ yoki $\frac{\text{uzunlik}}{(\text{vaqt})^2}$, tezlanish asosan $\frac{m}{s^2}$ da o'lchanadi.

Agar nuqta to'g'ri chiziq bo'ylab harakatlanayotgan bo'lsa tezlanish vektori shu to'g'ri chiziq bo'ylab yo'nalgan bo'ladi. Agar traektoriya egri chiziqdan iborat bo'lsa, tezlanish vektori traektoriya bo'liq tomoniga qarab yo'nalgan bo'ladi.





Fig. 12-17

Occasionally the motion of a particle can best be described along a path that can be expressed in terms of its x , y , z coordinates.

Position. If the particle is at point (x, y, z) on the curved path s shown in Fig. 12-17a, then its location is defined by the *position vector*

$$\mathbf{r} = x\mathbf{i} + y\mathbf{j} + z\mathbf{k} \quad (12-10)$$

When the particle moves, the x , y , z components of $\mathbf{r}$ will be functions of time; i.e., $x = x(t)$, $y = y(t)$, $z = z(t)$, so that $\mathbf{r} = \mathbf{r}(t)$.

At any instant the *magnitude* of $\mathbf{r}$ is defined from Eq. B-3 in Appendix B as

$$r = \sqrt{x^2 + y^2 + z^2}$$

And the *direction* of $\mathbf{r}$ is specified by the unit vector $\mathbf{u}_r = \mathbf{r}/r$.

Velocity. The first time derivative of $\mathbf{r}$ yields the velocity of the particle. Hence,

$$\mathbf{v} = \frac{d\mathbf{r}}{dt} = \frac{d}{dt}(x\mathbf{i}) + \frac{d}{dt}(y\mathbf{j}) + \frac{d}{dt}(z\mathbf{k})$$

When taking this derivative, it is necessary to account for changes in *both* the magnitude and direction of each of the vector's components. For example, the derivative of the $\mathbf{i}$ component of $\mathbf{r}$ is

$$\frac{d}{dt}(x\mathbf{i}) = \frac{dx}{dt}\mathbf{i} + x\frac{d\mathbf{i}}{dt}$$

The second term on the right side is zero, provided the x , y , z reference frame is *fixed*, and therefore the *direction* (and the *magnitude*) of $\mathbf{i}$ does not change with time. Differentiation of the $\mathbf{j}$ and $\mathbf{k}$ components may be carried out in a similar manner, which yields the final result,

$$\mathbf{v} = \frac{d\mathbf{r}}{dt} = v_x\mathbf{i} + v_y\mathbf{j} + v_z\mathbf{k} \quad (12-11)$$

where

$$v_x = \dot{x} \quad v_y = \dot{y} \quad v_z = \dot{z} \quad (12-12)$$

The “dot” notation $\dot{x}$, $\dot{y}$, $\dot{z}$ represents the first time derivatives of $x = x(t)$, $y = y(t)$, $z = z(t)$, respectively.


The velocity has a *magnitude* that is found from

$$v = \sqrt{v_x^2 + v_y^2 + v_z^2}$$

and a *direction* that is specified by the unit vector $\mathbf{u}_v = \mathbf{v}/v$. As discussed in Sec. 12.4, this direction is *always tangent to the path*, as shown in Fig. 12-17b.

Acceleration. The acceleration of the particle is obtained by taking the first time derivative of Eq. 12-11 (or the second time derivative of Eq. 12-10). We have

$$\mathbf{a} = \frac{d\mathbf{v}}{dt} = a_x\mathbf{i} + a_y\mathbf{j} + a_z\mathbf{k} \quad (12-13)$$



where





Fig. 12-7





Fig. 12-8

12.3 Rectilinear Kinematics: Erratic Motion

When a particle has erratic or changing motion then its position, velocity, and acceleration *cannot* be described by a single continuous mathematical function along the entire path. Instead, a series of functions will be required to specify the motion at different intervals. For this reason, it is convenient to represent the motion as a graph. If a graph of the motion that relates any two of the variables s, v, a, t can be drawn, then this graph can be used to construct subsequent graphs relating two other variables since the variables are related by the differential relationships $v = ds/dt$, $a = dv/dt$, or $a ds = v dv$. Several situations occur frequently.

The s - t , v - t , and a - t Graphs. To construct the v - t graph given the s - t graph, Fig. 12-7a, the equation $v = ds/dt$ should be used, since it relates the variables s and t to v . This equation states that

$$\frac{ds}{dt} = v$$

slope of s - t graph = velocity

For example, by measuring the slope on the s - t graph when $t = t_1$, the velocity is v_1 , which is plotted in Fig. 12-7b. The v - t graph can be constructed by plotting this and other values at each instant.

The a - t graph can be constructed from the v - t graph in a similar manner, Fig. 12-8, since

$$\frac{dv}{dt} = a$$

slope of v - t graph = acceleration

Examples of various measurements are shown in Fig. 12-8a and plotted in Fig. 12-8b.

If the s - t curve for each interval of motion can be expressed by a mathematical function $s = s(t)$, then the equation of the v - t graph for the same interval can be obtained by differentiating this function with respect to time since $v = ds/dt$. Likewise, the equation of the a - t graph for the same interval can be determined by differentiating $v = v(t)$ since $a = dv/dt$. Since differentiation reduces a polynomial of degree n to that of degree $n - 1$, then if the s - t graph is parabolic (a second-degree curve), the v - t graph will be a sloping line (a first-degree curve), and the a - t graph will be a constant or a horizontal line (a zero-degree curve).

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Kinematika deb nimaga aytiladi?
2. Fazo nima?
3. Vaqt qanday kattalik?
4. Ko'chish deb nimaga aytiladi?
5. Harakat deb nimaga aytiladi?
6. Kinematikaning asosiy masalasi nima?
7. Harakat vektor usulda qanday ifodalanadi?
8. Harakat koordinata usulda qanday ifodalanadi?
9. Harakat tabiiy usulda qanday ifodalanadi?
10. Harakat vektor usulda berilganda nuqtaning tezligi formulasi qanday ifodalanadi?



As the boy swings upward with a velocity $\mathbf{v}$, his motion can be analyzed using n - t coordinates. As he rises, the magnitude of his velocity (speed) is decreasing, and so a_t will be negative. The rate at which the direction of his velocity changes is a_n , which is always positive, that is, towards the center of rotation. (© R.C. Hibbeler)

To better understand these results, consider the following two special cases of motion.

1. If the particle moves along a straight line, then $\rho \rightarrow \infty$ and from Eq. 12-20, $a_n = 0$. Thus $a = a_t = \dot{v}$, and we can conclude that the *tangential component of acceleration represents the time rate of change in the magnitude of the velocity*.
2. If the particle moves along a curve with a constant speed, then $a_t = \dot{v} = 0$ and $a = a_n = v^2/\rho$. Therefore, the *normal component of acceleration represents the time rate of change in the direction of the velocity*. Since $\mathbf{a}_n$ always acts towards the center of curvature, this component is sometimes referred to as the *centripetal* (or center seeking) acceleration.

As a result of these interpretations, a particle moving along the curved path in Fig. 12-25 will have accelerations directed as shown.




Fig. 12-25

Three-Dimensional Motion. If the particle moves along a space curve, Fig. 12-26, then at a given instant the t axis is uniquely specified; however, an infinite number of straight lines can be constructed normal to the tangent axis. As in the case of planar motion, we will choose the positive n axis directed toward the path's center of curvature O' . This axis is referred to as the *principal normal* to the curve. With the n and t axes so defined, Eqs. 12-15 through 12-21 can be used to determine $\mathbf{v}$ and $\mathbf{a}$. Since $\mathbf{u}_t$ and $\mathbf{u}_n$ are always perpendicular to one another and lie in the osculating plane, for spatial motion a third unit vector, $\mathbf{u}_b$, defines the *binormal axis* b which is perpendicular to $\mathbf{u}_t$ and $\mathbf{u}_n$, Fig. 12-26.

Since the three unit vectors are related to one another by the vector cross product, e.g., $\mathbf{u}_b = \mathbf{u}_t \times \mathbf{u}_n$, Fig. 12-26, it may be possible to use this relation to establish the direction of one of the axes, if the directions of the other two are known. For example, no motion occurs in the $\mathbf{u}_b$ direction, and if this direction and $\mathbf{u}_t$ are known, then $\mathbf{u}_n$ can be determined, where in this case $\mathbf{u}_n = \mathbf{u}_b \times \mathbf{u}_t$, Fig. 12-26. Remember, though, that $\mathbf{u}_n$ is always on the concave side of the curve.




Fig. 12-26

6- MA'RUZA.

QATTIQ JISM KINEMATIKASI. QATTIQ JISMNING ENG SODDA HARAKATLARI. QATTIQ JISMNING ILGARILANMA HARAKATI. ILGARILANMA HARAKATDAGI JISM NUQTALARINING HARAKAT IZLARI, TEZLIKLARI VA TEZLANISHLARI HAQIDAGI TEOREMA.

REJA:

1. Qattiq jismning sodda harakatlari
2. Qattiq jismning ilgarilanma harakati.

Adabiyotlar: 3, 4, 8, 9, 11, 12.

Tayanch iboralar: ilgarilanma harakat, absolyut qattiq jism, aylanma harakat, aylanish o'qi, aylanma harakat tenglamasi, burilish burchagi, burchak tezlik, burchak tezlanish, aylanma harakat qilayotgan nuqtaning tezligi, aylanma harakat qilayotgan nuqtaning tezlanishi, aylanma harakat qilayotgan nuqtaning tezlik va tezlanish vektorlari.

1.Qattiq jismning sodda harakatlari

Kinematikada statikadagidek qattiq jismni mutlaq qattiq jism deb qaraladi. Jismning istalgan ikki nuqtasining oralig'i hamma vaqt o'zgarmasdan qolsa, bunday qattiq jismga mutlaq qattiq jism deyiladi. Bundan buyon jism yoki qattiq jism deganda mutlaq qattiq jism tushuniladi. Qattiq jism harakatini kinematik o'rganish bu harakatlanayotgan jismni harakat tenglamalarini tuzish va harakatni xarakterlaydigan kinematik xarakteristikalarini o'rganishdan iborat bo'ladi. Butun jismning harakatlanishi kinematik elementlari: harakat qonuni, tezlik va tezlanishlari ma'lum bo'lgandan keyin jism bo'laklarining harakati o'rganiladi. Jismni tashkil etuvchi bo'laklarning xarakterlariga xos bo'lgan qonuniyatlar aniqlanadi.

Odatda qattiq jism harakatini o'rganish uning sodda harakatlarini o'rganishdan boshlanadi. Jismning ilgariylanma va qo'zg'almas o'q atrofidagi aylanma harakatlariga jismning sodda yoki asosiy harakatlari deyiladi. Jismning har qanday murakkab harakatlarini shu ikki harakatdan tashkil topgan deb qaraladi.

2. Qattiq jismning ilgariylanma harakati.

Barcha qattiq jismlarni kinematikada ham statikadagi kabi absolyut qattiq jism deb qaraladi. Qattiq jism kinematikasida uchraydigan masalalar ikki qismga bo'linadi:

1) butun jismning harakati va bu harakatning kinematik xarakteristikalarini aniqlash;

2) jism har bir nuqtasining harakatini o'rganish.

Dastlab qattiq jismning ilgariylanma harakatini o'rganishdan boshlaymiz.

Jismda olingan har qanday kesma jism harakati davomida hamma vaqt o'z – o'ziga parallel ko'chsa., jismning bunday harakatiga ilgariylanma harakat deyiladi.

Ilgariylanma harakatni to'g'ri chiziqli harakat bilan almashtirmaslik kerak. Masalan, to'g'ri chiziqli relsda harakatlanayotgan vagon kuzovining harakati ilgariylanma harakat bo'lib kuzov nuqtalarining traektoriyalari to'g'ri chiziqdan iborat.

AB sparnik O_1A va O_2B krivoshiplar atrofida aylanishi natijasida ilgariylanma harakat qiladi. AB sparnik hamma vaqt o'z–o'ziga parallel ko'chadi. Sparnikning A va B nuqtalari markazlari O_1 , O_2 nuqtalarda yotgan aylanalar chizadi. Bu holda sparnikning nuqtalari aylana bo'ylab harakat qiladi (90- rasm).

Ilgariylanma harakatning xossalari quyidagi teoremdan aniqlanadi.

Teorema. Ilgariylanma harakatdagi jismning hamma nuqtalari bir xil traektoriya chizadi va har onda moduli va yo'nalishi bir xil bo'lgan tezlik va tezlanishlarga ega bo'ladi.


Isbot. Teoremani isbotlash uchun $Oxyz$ koordinata sistemasiga nisbatan ilgariylanma harakat qilayotgan qattiq jismni ko'rib chiqamiz. Qattiq jismdan ixtiyoriy ikkita A va B nuqtalarni olamiz. Vaqtning t paytida ularning holatlari tegishli $\vec{r}_A$ va $\vec{r}_B$ radius – vektorlar orqali aniqlansin (91-rasm). Bu nuqtalarni tutashtiruvchi $\vec{AB}$ vektorni o'tkazamiz, u holda

$$\vec{r}_B = \vec{r}_A + \vec{AB} \quad (27)$$


Qattiq jism absolyut qattiq jism bo'lganligi uchun

$\vec{AB}$ - vektor o'zgarmas kattalik, shuningdek qattiq jism ilgariylanma harakatlanayotgani uchun uning

yo'nalishi ham o'zgarmaydi. Shunday qilib qattiq jism harakatlanayotganida $\vec{AB}$ vektor



90-rasm



91-rasm

o'zgarmaydi ($\overline{AB} = \text{const}$). Demak A va B nuqtalarning traektoriyalari bir hil egri chiziqdan iborat. A va B nuqtalarning tezliklarini topish uchun (35) tenglikning har ikkala tomonidan vaqt bo'yicha hosila olamiz:

$$\frac{d\vec{r}_B}{dt} = \frac{d\vec{r}_A}{dt} + \frac{d(\overline{AB})}{dt}$$

$\overline{AB}$ o'zgarmas bo'lgani uchun uning hosilasi nolga teng. $\vec{r}_A$ va $\vec{r}_B$ radius – vektorlarning vaqt bo'yicha olingan hosilalari A va B nuqtalar tezliklarini beradi, ya'ni

$\vec{g}_A = \vec{g}_B$ Vaqtning istalgan payti uchun A va B nuqtalarning tezliklarining moduli va yo'nalishi bir hil bo'ladi. Oxirgi tenglikning har ikkala tomonidan vaqt bo'yicha hosila olamiz.

$$\frac{d\vec{g}_A}{dt} = \frac{d\vec{g}_B}{dt} \quad \text{yoki} \quad \vec{a}_A = \vec{a}_B$$

Demak, vaqtning istalgan paytida A va B nuqtalar tezlanishlarining modullari ham yo'nalishlari ham bir xil bo'ladi.

C14-1. The roller coaster is momentarily at rest at A. Determine the approximate normal force it exerts on the track at B. Also determine its approximate acceleration at this point. Use numerical data, and take scaled measurements from the photo with a known height at A.



Prob. C14-1 (© R.C. Hibbeler)

C14-2. As the large ring rotates, the operator can apply a braking mechanism that binds the cars to the ring, which then allows the cars to rotate with the ring. Assuming the passengers are not belted into the cars, determine the smallest speed of the ring (cars) so that no passenger will fall out. When should the operator release the brake so that the cars can achieve their greatest speed as they slide freely on the ring? Estimate the greatest normal force of the seat on a passenger when this speed is reached. Use numerical values to explain your answer.



C14-3. The woman pulls the water balloon launcher back, stretching each of the four elastic cords. Estimate the maximum height and the maximum range of a ball placed within the container if it is released from the position shown. Use numerical values and any necessary measurements from the photo. Assume the unstretched length and stiffness of each cord is known.



Prob. C14-3 (© R.C. Hibbeler)

C14-4. The girl is momentarily at rest in the position shown. If the unstretched length and stiffness of each of the two elastic cords is known, determine approximately how far the girl descends before she again becomes momentarily at rest. Use numerical values and take any necessary measurements from the photo.



A va B nuqtalar ixtiyoriy tanlangan edi. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki vaqtning istalgan paytida jismning barcha nuqtalarining traektoriyalari, shuningdek tezlik va tezlanishlari bir xil bo'ladi. Shunday qilib teorema isbotlandi. Teoremadan yana shu narsani bilib olish mumkinki, qattiq jismning ilgarilanma harakatini uning bitta nuqtasi harakati orqali aniqlab olish mumkin. Yana shu narsani ta'kidlash lozimki, tezlik va tezlanish tushunchalari faqat jismning ilgarilanma

harakati uchun ta'luqli. Qolgan barcha hollar uchun qattiq jism nuqtalari turli xil tezlik va tezlanishlar bilan harakatlanadi. Qattiq jismning bunday harakatlarida "jismning tezligi", yoki "jismning tezlanishi" degan terminlar mazmunini yo'qotadi.

Takrorlash uchun savollar

1. Qattiq jismning qanday harakati ilgariylanma deyiladi?
2. Jismni ilgariylanma harakatida uning nuqtalari trayektoriyasi aylanadan iborat bo'lishi mumkinmi?
3. Qattiq jismning ilgariylanma harakati qanday xossalarga ega?

7– MA'RUZA.

QATTIQ JISMNING QO'ZG'ALMAS O'Q ATROFIDAGI AYLANMA HARAKATI. AYLANMA HARAKAT TENGLAMASI. JISMNING BURCHAK TEZLIGI VA BURCHAK TEZLANISHI. QO'ZG'ALMAS O'Q ATROFIDA AYLANUVCHI JISM NUQTASINING TEZLIK VA TEZLANISHI.

REJA:

1. Qattiq jismning qo'zg'almas o'q atrofidagi aylanma harakati. Burchak tezlik. Burchak tezlanish.
2. Aylanma harakat qilayotgan nuqtaning tezligi.
3. Aylanma harakat qilayotgan nuqtaning tezlanishi.
4. Aylanma harakat qilayotgan nuqtaning tezlik va tezlanish vektorlari


Adabiyotlar: 3, 4, 8, 9, 11, 12.

Tayanch iboralar: ilgariylanma harakat, absolyut qattiq jism, aylanma harakat, aylanish o'qi, aylanma harakat tenglamasi, burilish burchagi, burchak tezlik, burchak tezlanish, aylanma harakat qilayotgan nuqtaning tezligi, aylanma harakat qilayotgan nuqtaning tezlanishi, aylanma harakat qilayotgan nuqtaning tezlik va tezlanish vektorlari.

1. Qattiq jismning qo'zg'almas o'q atrofida aylanma harakati.

Qattiq jismning qandaydir ikkita nuqtasi uning harakati davomida qo'zg'almasdan qolsa, bunday harakatga qo'zg'almas o'q atrofidagi aylanma harakat deyiladi. Qo'zg'almas A va B nuqtalar orqali o'tuvchi AB to'g'ri chiziqqa aylanish o'qi deyiladi. Aylanma harakatda qattiq jismning o'q ustida yotgan barcha nuqtalari qo'zg'almas bo'ladi. Jismning qolgan barcha nuqtalari, aylanish o'qiga perpendikulyar tekislikda markazi aylanish o'qida yotgan aylanalar chizadi. Aylanma harakat qilayotgan jismning holatini aniqlash uchun aylanish o'qi orqali qo'zg'almas I tekislik, qattiq jismga biriktirilgan va u bilan birgalikda aylanuvchi II tekislikni o'tqazamiz (92-rasm). Qattiq jismni vaqtning istalgan paytdagi holati tekisliklar orasidagi burilish burchagi deb ataluvchi φ burchak orqali aniqlanadi. φ burchak musbat yoki manfiy ishorada bo'lishi mumkin. Az o'qning musbat uchidan qaraganimizda qattiq jism o'q atrofida soat mili aylanishiga teskari yo'nalishda aylansa, burilish burchagi musbat, aks holda manfiy ishorada olinadi.

Burilish burchagi φ -radianlarda o'lchanadi. Jismni vaqtning istalgan paytidagi holatini aniqlash uchun burilish burchagi φ ning t vaqtga bog'liqligini bilish zarur, ya'ni: $\varphi = f(t)$ (28) qattiq jismning qo'zg'almas o'q atrofidagi aylanma harakati tenglamasi.



92-rasm

Qattiq jism aylanma harakatining kinematik karakteristikalarini aniqlashga o'tamiz. Vaqtning t paytidagi burilish burchagi φ bo'lib, vaqtning $t_1 = t + \Delta t$ paytida burilish burchagi $\varphi_1 = \varphi + \Delta\varphi$ ga teng bo'lsin. Qattiq jism Δt vaqt oralig'ida $\Delta\varphi$ burchakka buriladi. Burilish burchagi $\Delta\varphi$ ning Δt ga nisbati o'rtacha burchak tezlik deyiladi.

$$\omega_{yp} = \frac{\Delta\varphi}{\Delta t}$$

Jismning qo'zg'almas o'q atrofidagi aylanma harakatining berilgan ondagi burchak tezligini topish uchun o'rtacha burchak tezligining Δt nolga intilgandagi limitini olamiz.

$$\omega = \lim_{\Delta t \rightarrow 0} \frac{\Delta\varphi}{\Delta t} = \frac{d\varphi}{dt} \quad (29)$$

Shunday qilib, jismning burchak tezligi burilish burchagidan vaqt bo'yicha olingan birinchi hosilasiga teng. Qattiq jism o'q atrofida soat mili aylanishiga teskari yo'nalishda aylanayotgan bo'lsa $\omega > 0$, soat mili aylanishi bo'yicha aylanayotgan bo'lsa $\omega < 0$ bo'ladi. burchak tezligining o'lchami $\frac{1}{T}$ yoki $\frac{1}{vaqt}$.

O'lchov birligi yoki $\frac{1}{s}(s^{-1})$ chunki radian o'lchamsiz kattalik.

Burchak tezlik vektor ko'rinishda ifodalanadi. Uning moduli $|\vec{\omega}|$ ga teng. Burchak tezlik vektori jismning aylanish o'qi bo'ylab yo'nalgan va uning musbat yo'nalishidan qaralganda aylanish soat mili aylanishiga teskari yo'nalgan bo'ladi (93 – rasm).

Burchak tezlanish burchak tezligini vaqtga bog'liq ravishda o'zgarishini xarakterlovchi kattalik.

Vaqtning t paytida jismning burchak tezligi ω vaqtning $\Delta t = t_1 + \Delta t$ paytida burchak tezligi ω_1 bo'lsin $\Delta t = t_1 - t$ vaqt oralig'ida jism burchak tezligi ortirmasa $\Delta\omega = \omega_1 - \omega$ ga teng bo'ladi. $\Delta\omega$ ning Δt ga nisbati jismning shu vaqttdagi o'rtacha burchak tezlanishi deyiladi.


$$\varepsilon_{yp} = \frac{\Delta\omega}{\Delta t}$$

O'rtacha burchak tezlanishining Δt nolga intilgandagi limiti jismning berilgan ondagi burchak tezlanishi deyiladi.

$$\varepsilon = \lim_{\Delta t \rightarrow 0} \frac{\Delta\omega}{\Delta t} = \frac{d\omega}{dt} \quad (29) \text{ nie'tiborgaolsak } \varepsilon = \frac{d\omega}{dt} = \frac{d^2\varphi}{dt^2} \quad (30) \text{ ko'rinishdayoziladi.}$$

Shundayqilibjismningberilganondagiburchaktezlanishiburchaktezligidanvaqtbo'yichaolin ganbirinchihosilasiga, burilishburchagidanvaqtbo'yichaolinganikkinchihosilasigateng. O'lchami

$$\frac{1}{T^2} \text{ yoki } \frac{1}{vakt^2}, \text{ o'lchovbirligi } \frac{[pa\partial]}{s^2} \text{ yoki } \frac{1}{s^2} \quad (s^{-2})$$



93-rasm

Agar vaqto'tish bilan burchak tezligining moduli ortib borsa, jismning aylanish tezlanuvchan aylanma harakat, kamayaborsa, sekinlanuvchan aylanma harakat bo'ladi. ω va ε bir hilishoradabo'lsa aylanma harakat tezlanuvchan, har hilishoradasekinlanuvchan bo'ladi.

Burchak tezlanishi ham vektorko'rinishda ifodalanadi. Bu holda u quyidagicha ifodalanadi.

$$\bar{\varepsilon} = \frac{d\bar{\omega}}{dt} \quad (31)$$



Agar jism tezlanuvchan aylanayotgan bo'lsa $\bar{\varepsilon}$ va $\bar{\omega}$ vektorlar bir tomonga yo'nalgan bo'ladi sekinlanuvchan aylanma harakatda esa $\bar{\varepsilon}$ va $\bar{\omega}$ vektorlari qarama – qarshi tomonga yo'nalgan bo'ladi (93-rasm, 6).

2. Aylanma harakat qilayotgan jism nuqtasining tezligi.

Qattiq jismning aylanish o'qidan h masofada joylashgan M nuqtasini ko'rib chiqamiz (94-rasm). Jism aylanma harakatlanayotganida, M nuqta aylanish o'qiga perpendikulyar tekislikda radiusi h ga teng bo'lgan markazi aylanish o'qida yotgan aylana chizadi. Jism dt vaqt oralig'ida $d\varphi$ burchakka burilsa, M nuqta aylana bo'ylab harakatlanib $ds = h d\varphi$ yoy koordinatasini o'tadi. U holda nuqtaning tezligi quyidagicha aniqlanadi.


$$g = \frac{ds}{dt} = h \frac{d\varphi}{dt} \quad \text{yoki} \quad g = h\omega \quad (37)$$

Ayrim hollarda $\bar{g}$ tezlikni chiziqli tezlik deb ham ataydilar. Shunday qilib, aylanma harakat qilayotgan qattiq jism nuqtasining tezligi miqdor jihatdan jism burchak tezligini aylanish o'qidan nuqtagacha bo'lgan masofaga bo'lgan ko'paytmaga teng. Nuqtaning chiziqli tezligi nuqta chizayotgan aylanaga harakat yo'nalishi bo'yicha o'tkazilgan urinma bo'ylab yo'naladi. Jism barcha nuqtalarining burchak tezliklari har onda o'zaro teng bo'ladi. Shu sababli qo'zg'almas




o'q atrofida aylanuvchi jism nuqtalarining chiziqli tezliklari mazkur nuqtalardan aylanish o'qiga bo'lgan masofalarga proporsional bo'ladi (94-rasm).

R12-7. The truck travels in a circular path having a radius of 50 m at a speed of $v = 4$ m/s. For a short distance from $s = 0$, its speed is increased by $\dot{v} = (0.05s)$ m/s², where s is in meters. Determine its speed and the magnitude of its acceleration when it has moved $s = 10$ m.



Prob. R12-7


R12-8. Car B turns such that its speed is increased by $(a_t)_B = (0.5e^t)$ m/s², where t is in seconds. If the car starts from rest when $\theta = 0^\circ$, determine the magnitudes of its velocity and acceleration when $t = 2$ s. Neglect the size of the car.



Prob. R12-8


R12-9. A particle is moving along a circular path of 2-m radius such that its position as a function of time is given by $\theta = (5t^2)$ rad, where t is in seconds. Determine the magnitude of the particle's acceleration when $\theta = 30^\circ$. The particle starts from rest when $\theta = 0^\circ$.

R12-10. Determine the time needed for the load at B to attain a speed of 8 m/s, starting from rest, if the cable is drawn into the motor with an acceleration of 0.2 m/s².



Prob. R12-10

R12-11. Two planes, A and B , are flying at the same altitude. If their velocities are $v_A = 600$ km/h and $v_B = 500$ km/h such that the angle between their straight-line courses is $\theta = 75^\circ$, determine the velocity of plane B with respect to plane A .



Prob. R12-11

3. Aylanma harakat qilayotgan jism nuqtasining tezlanishi.

M nuqtaning tezlanishini $a_t = \frac{d\mathcal{G}}{dt}$ va $a_n = \frac{\mathcal{G}^2}{\rho}$ formulalar yordamida aniqlaymiz. $\rho = h$ deb olib, $\mathcal{G}$ tezlikning (37) tenglikdagi qiymatini yuqoridagi tengliklarga qo'yib, quyidagilarni hosil qilamiz. $a_t = h \frac{d\omega}{dt}$, $a_n = \frac{h^2 \omega^2}{h}$ yoki $a_t = h\varepsilon$, $a_n = h\omega^2$ (38)

Urinma tezlanish $\bar{a}_t$ nuqtaning traektoriyasiga urinma bo'ylab yo'nalgan bo'ladi (tezlanuvchan aylanma harakatda nuqtaning harakat yo'nalishi bilan, sekinlanuvchan aylanma harakatda esa unga teskari yo'nalgan bo'ladi); normal tezlanish $\bar{a}_n$ doimo MC radius bo'ylab aylanish o'qi tomon yo'nalgan bo'ladi (95-rasm). M nuqtaning to'liq tezlanishi va yo'nalishi quyidagi ifodalar yordamida aniqlanadi.

$$a = \sqrt{a_t^2 + a_n^2} \quad \text{yoki} \quad a = h\sqrt{\varepsilon^2 + \omega^4} \quad (39)$$

$$\text{tg} \mu = \frac{a_t}{a_n} = \frac{\varepsilon}{\omega^2} \quad (40)$$

4. Aylanma harakat qilayotgan qattiq jism nuqtasining tezlik va tezlanish vektori.

M nuqtani AB aylanish o'qida yotgan O nuqta bilan tutashtirib $\vec{r}$ radius-vektorini o'tkazamiz 96- rasmdan quyidagini yozamiz.

$h = r \sin \alpha$ tenglikni (37) ga qo'yamiz.

$$|\vec{g}| = |\vec{\omega}|h = |\vec{\omega}|r \sin \alpha$$

Yoki $|\vec{g}| = |\vec{\omega} \times \vec{r}|$

$[\vec{\omega} \times \vec{r}]$ vektorning moduli M nuqtaning tezligi moduliga teng $[\vec{\omega} \times \vec{r}]$ vektor bilan $\vec{g}$ vektorning yo'nalishi ustma – ust tushadi, demak

$$\vec{g} = \vec{\omega} \times \vec{r} \quad (41)$$

Aylanma harakat qilayotgan jismning istalgan nuqtasining tezlik vektori jismning burchak tezligi bilan shu nuqta radius–vektorining vektorial ko'paytmasiga teng. (41) formulaga Eyler formulasi deyiladi. (41) tenglikning har ikkala tomonidan vaqt bo'yicha hosila olamiz.

$$\frac{d\vec{g}}{dt} = \left(\frac{d\vec{\omega}}{dt} \times \vec{r} \right) + \left(\vec{\omega} \times \frac{d\vec{r}}{dt} \right) \quad \text{yoki} \quad \vec{a} = (\vec{\varepsilon} \times \vec{r}) + (\vec{\omega} \times \vec{g}) \quad (42)$$

(42) tenglama aylanma harakat qilayotgan jism ixtiyoriy nuqtasining tezlanish vektorini aniqlash formulasi. (42) tenglikning o'ng tomonidagi birinchi qavs urinma tezlanish, ikkinchi qavs esa normal tezlanish ekanligini e'tiborga olsak quyidagini hosil qilamiz:

$$\vec{a}_\tau = \vec{\varepsilon} \times \vec{r} \quad \text{va} \quad \vec{a}_n = \vec{\omega} \times \vec{g}$$

22 – masala. Barabanga o'ralgan AB ipning uchiga osilgan A yuk tinch holatdan tekis tezlanuvchan harakatlanib pastga tushishi natijasida, baraban aylanma harakatga keladi. 3 s ichida baraban 9 marta aylanadi. Barabanning diametri $D=30$ sm bo'lsa 5 – s oxirida baraban chetidagi nuqtani va A yukning tezligi va tezlanishini aniqlang (97 – rasm). Yechish.

Masalani shartiga ko'ra $\varphi_0 = 0$: $\omega_0 = 0$ u holda tekis tezlanuvchan harakat tenglamasi quyidagi ko'rinishda bo'ladi


$$\varphi = \frac{\varepsilon t^2}{2}; \quad (1) \quad \omega = \varepsilon t \quad (2)$$

$t=3$ s ichida baraban $\varphi = 9$ marta aylanganligi uchun (1)


dan $\varepsilon = \frac{2\varphi}{t^2} = \frac{2 \cdot 9}{9} = 2 \frac{a\ddot{u}}{c^2} = 4\pi s^{-2}$ 5 s oxirida barabanning

burchak tezligi $\omega = 4\pi \cdot 5 = 20\pi s^{-1}$ Barabanning B nuqtasining tezligi yukning tezligiga teng bo'ladi.

$$g = R\omega = 0,15 \cdot 20\pi = 9,42 \frac{m}{s}$$



96- rasm



97- rasm

Yukning tezlanishi B nuqtaning urinma tezlanishiga teng. $a_z = R\varepsilon = 0,15 \cdot 4\pi = 1,88 \frac{m}{s^2}$

B nuqtaning normal tezlanishi $a_r = R\varpi^2 = 0,15 \cdot 400\pi^2 = 591,6 \frac{m}{s^2}$

B nuqtaning to'liq tezligi $a = \sqrt{a_r^2 + a_n^2} = \sqrt{1,88^2 + 591,6^2} \approx 591,6 \frac{m}{s^2}$

23 – masala. $n=90 \frac{ay}{min}$ burchak tezlik bilan aylanayotgan val dvigatel o'chirilgandan so'ng tekis sekinlanuvchan harakatlanib $t_1=40$ s dan so'ng to'xtaydi. Shu vaqt oralig'ida val necha marta aylangan.

Yechish. Val tekis sekinlanuvchan aylanaga harakat qilayotganligi sababli $\varphi_0 = 0$, u holda

$$\varphi = \omega_0 t + \frac{\varepsilon t^2}{2} : \quad \omega = \omega_0 + \varepsilon t \quad (1)$$

Valning dvigatel o'chirilishida qanday burchak tezlik bilan aylanayotgan bo'lsa, shu burchak tezlik uning boshlang'ich burchak tezligidan iborat bo'ladi, ya'ni:


$$\omega_0 = \frac{\pi n}{30}$$

Valning to'xtash $t=t_1$ paytdagi burchak tezligi $\omega = 0$ bo'ladi. U holda (1) ning ikkinchi tengligi quyidagi ko'rinishni oladi.

$$0 = \frac{\pi n}{30} + \varepsilon t, \quad \text{bundan} \quad \varepsilon = -\frac{\pi n}{30 \cdot t_1}$$

Dvigatel o'chirilgandan so'ng valning aylanishlar sonini N bilan belgilaymiz (n bilan N ni aralashtirib yubormaslik kerak. n– valning burchak tezligi), u holda valning shu paytdagi burilish burchagi $\varphi_1 = 2\pi N$. ε va φ_1 larning bu qiymatlarini (1) ning birinchi tengligiga

$$\text{qo'yamiz. } 2\pi N = \left(\frac{\pi n}{30} \right) t_1 - \left(\frac{\pi n}{60} \right) t_1 = \frac{\pi n}{60} t_1 \quad \text{bundan} \quad N = \frac{\pi t_1}{120} = 30 \text{ ayl}$$



The 60-kg skateboarder in Fig. 13–15a coasts down the circular track. If he starts from rest when $\theta = 0^\circ$, determine the magnitude of the normal reaction the track exerts on him when $\theta = 60^\circ$. Neglect his size for the calculation.

SOLUTION

Free-Body Diagram. The free-body diagram of the skateboarder when he is at an arbitrary position θ is shown in Fig. 13–15b. At $\theta = 60^\circ$ there are three unknowns, N_r , a_t , and a_n (or v).


Equations of Motion.

$$+\nearrow \Sigma F_n = ma_n; \quad N_r - [60(9.81)\text{N}] \sin \theta = (60 \text{ kg}) \left(\frac{v^2}{4 \text{ m}} \right) \quad (1)$$

$$+\searrow \Sigma F_t = ma_t; \quad [60(9.81)\text{N}] \cos \theta = (60 \text{ kg}) a_t$$

$$a_t = 9.81 \cos \theta$$

Kinematics. Since a_t is expressed in terms of θ , the equation $v dv = a_t ds$ must be used to determine the speed of the skateboarder when $\theta = 60^\circ$. Using the geometric relation $s = \theta r$, where $ds = r d\theta = (4 \text{ m}) d\theta$, Fig. 13–15c, and the initial condition $v = 0$ at $\theta = 0^\circ$, we have,



NAZORAT SAVOLLARI:

1. Qattiq jismning qanday harakatiga ilgariylanma harakat deyiladi va bu harakatning asosiy xususiyatlari?
2. Qattiq jismning qanday harakatiga qo'zg'almas o'q atrofidagi aylanma harakat deyiladi?
3. Aylanma harakat tenglamasi qanday ko'rinishda bo'ladi?
4. Aylanma harakat qilayotgan qattiq jismning burchak tezlik va burchak tezlanish modullari qanday formula bilan aniqlanadi?
5. Qo'zg'almas o'q atrofidagi aylanma harakat qilayotgan qattiq jism burchak tezlik va burchak tezlanish vektorlari qanday yo'nalgan bo'ladi?
6. Aylanma harakat qilayotgan nuqtaning chiziqli tezligi qanday formula orqali ifodalanadi?
7. Aylanma harakat qilayotgan nuqtaning chiziqli tezlanishi qanday formula orqali ifodalanadi?
8. Eyler formulasi qanday ko'rinishda bo'ladi?
9. Aylanma harakat qilayotgan nuqtaning tezlik vektori qanday ifodalanadi?
10. Aylanma harakat qilayotgan nuqtaning tezlanish vektori qanday ifodalanadi?

8 – MA'RUZA.

ONIY MARKAZ. TEKIS SHAKL NUQTASI TEZLIGI VA TEZLANISHINI ONIY MARKAZ YORDAMIDA ANIQLASH

REJA:

1. Tezliklar oniy markazi va uni aniqlash usullari.
2. Sentroida haqida tushuncha.
3. Tekis shakl nuqtasining tezlanishini qutb yordamida aniqlash.
4. Tezlanishlar oniy markazi.


Adabiyotlar: 3, 4, 5, 6, 8, 9, 10, 11, 12.

Tayanch iboralar: tezliklar oniy markazi, tezliklar oniy markazini aniqlash usullari, sentroida, qo'zg'almas sentroida, qo'zg'aluvchan sentroida, tekis shakl nuqtasining tezlanishi, tezlanishlar oniy markazi.

1. Tezliklar oniy markazi va uni aniqlash usullari.

Tekis parallel harakat qiladigan qattiq jism nuqtasining tezligini aniqlashning sodda usuli tezliklarning oniy markazi tushunchasiga asoslanadi. Berilgan onda tezligi nolga teng bo'lgan tekis shakl nuqtasiga tezliklarning oniy markazi deyiladi.

Agar tekis shakl (jism) ilgari noma'lum harakat qilayotgan bo'lsa, vaqtning istalgan paytida tezligi nolga teng bo'lgan nuqtasi mavjud bo'ladi. Vaqtning t paytida tekis shaklning A va B nuqtalari o'zaro parallel bo'lmagan $\vec{v}_A$ va $\vec{v}_B$ tezliklarga ega bo'lsin (1-rasm). $\vec{v}_A$ va $\vec{v}_B$ tezlik



1 -rasm

vektorlariga AA' va BB' perpendikulyarlar o'tkazamiz. Bu perpendikulyarlar qandaydir P nuqtada kesishadi. P nuqta tezliklarining oniy markazi bo'ladi ($v_P = 0$). Faraz qilaylik $v_P \neq 0$ bo'lsin. U holda tezliklarning proeksiyalari haqidagi teorema asosan $\vec{v}_P$ vektor bir vaqtning o'zida AP va BP larga perpendikulyar bo'lishi lozim, lekin bunday bo'lishi mumkin emas. Teoremadan shu narsa kelib chiqadiki, vaqtning shu paytida tekis shaklning tezligi nolga teng bo'lmagan boshqa bir nuqtasi mavjud bo'lmaydi.

Agar vaqtning shu paytida P nuqtani qutb deb olsak $\vec{v}_B = \vec{v}_A + \vec{v}_{BA}$ formulaga ko'ra A nuqtaning tezligi quyidagicha aniqlanadi.

$$\vec{v}_A = \vec{v}_P + \vec{v}_{PA}$$

Bizga ma'lumki $\vec{v}_P = 0$, u holda A nuqtaning tezligi

$$\vec{v}_A = \vec{v}_{PA} \quad \vec{v}_{BA} = \vec{\omega} \times \vec{BA} \quad (\vec{v}_{BA} \perp \vec{BA}) \quad \text{formulaga ko'ra}$$

$$v_A = \omega \cdot PA \quad (\vec{v}_A \perp \vec{PA}) \quad (1)$$

$$\text{Xuddi shuningdek B nuqtaning tezligi} \quad v_B = \omega \cdot PB \quad (\vec{v}_B \perp \vec{PB}) \quad (1')$$

(1) va (1') tengliklardan quyidagi nisbatni yozamiz

$$\frac{v_A}{PA} = \frac{v_B}{PB} \quad (2)$$

Tekis shakl nuqtalarining tezliklari shu nuqtalardan tezliklarining oniy markazigacha bo'lgan masofalarga to'g'ri proporsional. Olingan natijalardan quyidagi xulosalar kelib chiqadi.

1. Tekis shakl ikkita A va B nuqtalari tezliklarining yo'nalishlari ma'lum bo'lsin (1-rasm). A va B nuqtalardan $\vec{v}_A$ va $\vec{v}_B$ tezlik vektorlariga perpendikulyarlar o'tkazsak ularning kesishgan P nuqtasi tezliklar oniy markazi bo'lib hisoblanadi.

2. Tekis shakl istalgan nuqtasining tezligini aniqlash uchun, tekis shaklda biror A nuqtasining tezligini moduli va yo'nalishi boshqa bir B nuqtani tezligining yo'nalishini bilish kerak.

A va B nuqtalardan $\vec{v}_A$ va $\vec{v}_B$ tezlik vektorlariga perpendikulyarlar tushirib tezliklar oniy markazi P nuqtani va $\vec{v}_A$ tezlik vektorining yo'nalishiga qarab, tekis shaklning aylanish yo'nalishini aniqlaymiz. $\vec{v}_A$ ni bilgan holda (2) formuladan tekis shakl ixtiyoriy B nuqtasining tezligi aniqlanadi. $\vec{v}_B$ tezlik vektori PB ga perpendikulyar tekis shakl aylanish yo'nalishi tomonga yo'nalgan bo'ladi.

3. Tekis shaklning burchak tezligi vaqtning berilgan paytda qandaydir nuqtasi tezligining tezliklar oniy markazdan shu nuqtagacha bo'lgan masofaga bo'lgan nisbatga teng:

$$\omega = \frac{\mathcal{G}_B}{PB} \quad (3)$$

ω ning boshqacha ifodalanishini topamiz.

$$\overline{\mathcal{G}}_B = \overline{\mathcal{G}}_A + \overline{\mathcal{G}}_{BA} \text{ va}$$


$$\overline{\mathcal{G}}_{BA} = \overline{\omega} \times \overline{BA} \quad (\overline{\mathcal{G}}_{BA} \perp \overline{BA}) \text{ tengliklardan.}$$

$$\overline{\mathcal{G}}_{BA} = (\overline{\mathcal{G}}_B - \overline{\mathcal{G}}_A) \text{ va } \mathcal{G}_{BA} = \omega \cdot AB$$

$$\text{bulardan quyidagini hosil qilamiz. } \omega = \frac{\mathcal{G}_{BA}}{AB} = \frac{|\overline{\mathcal{G}}_B - \overline{\mathcal{G}}_A|}{AB} = \frac{|\overline{\mathcal{G}}_B + (\overline{\mathcal{G}}_A - \overline{\mathcal{G}}_A)|}{AB} \quad (4)$$



Tezliklar oniy markazini topishning xususiy hollari bilan tanishamiz.

a) Silindr shaklidagi jism qo'zg'almas sirt ustida sirpanmasdan dumalayotgan bo'lsa, dumalayotgan jismning qo'zg'almas sirtga tutinish P nuqtasi, sirpanish bo'lmaganda tezligi nolga ($\overline{\mathcal{G}}_P = 0$) teng bo'ladi. Demak P nuqta tezliklar oniy markazi bo'lib hisoblanadi. Bunga g'ildirakning rels ustida dumalashini misol qilib ko'rsatish mumkin (2-rasm)



2-rasm

6) Tekis shakl A va B nuqtalarning tezlik vektorlari o'zaro parallel, hamda AB chiziq $\overline{\mathcal{G}}_A$ ga perpendikulyar bo'lmasa (3-rasm, a) bunday holda tezliklar oniy markazi cheksizlikda yotadi. Tekis shakl barcha nuqtalarning tezliklari $\overline{\mathcal{G}}_A$ ga parallel bo'ladi. Tezliklarning proeksiyalari haqidagi teorema ko'ra $\mathcal{G}_A \cos \alpha = \mathcal{G}_B \cos \beta$ bundan $\mathcal{G}_A = \mathcal{G}_B$; Demak, vaqtning shu paytida jism barcha nuqtalari moduli va yo'nalishi bir hil bo'lgan tezlikka ega bo'lib jism ilgarilanma harakat qiladi. Shu paytda jismning ω burchak tezligi (4) formulaga ko'ra nolga teng.



3- rasm

b) Tekis shakl A va B nuqtalarning tezlik vektorlari o'zaro parallel hamda AB chiziq $\overline{\mathcal{G}}_A$ vektorga perpendikulyar bo'lsa, bunday holda tezliklar oniy markazi P (3-rasm,6) da ko'rsatilgandek topiladi. Bu holda oldingilarga qaraganda tezliklar oniy markazini topishda $\overline{\mathcal{G}}_A$ va $\overline{\mathcal{G}}_B$ tezliklarning yo'nalishidan tashqari ularning modullari ham ma'lum bo'lishi kerak.

r) Tekis shakl ixtiyoriy B nuqtasining $\overline{\mathcal{G}}_B$ tezlik vektori va burchak tezligi ω ma'lum bo'lsa $\overline{\mathcal{G}}_B$ tezlik vektori ustida yotuvchi tezliklar oniy markazi P (3-rasm,6) gacha bo'lgan masofa (3) formuladan topiladi. $BP = \frac{\mathcal{G}_B}{\omega}$

2. Sentroidalar haqida tushuncha.

Umumiy holda tezliklar oniy markazi vaqtning o'tishi bilan tekis shaklning harakat tekisligida o'z holatini o'zgartira boradi. Agar tezliklar oniy markazining har ondagi holatini tekis shaklda va harakat tekisligida belgilab borsak, ularning geometrik o'rni ikkita chiziqni ifodalaydi.

Tezliklar oniy markazining tekis shakl harakati tekisligidagi geometrik o'rni qo'zg'almas sentroida deyiladi.


Tezliklar oniy markazining tekis shaklga bog'langan tekislikdagi geometrik o'rni qo'zg'aluvchan sentroida deyiladi.

Masalan qo'zg'almas rels ustida sirpanmay dumalayotgan g'ildirak uchun qo'zg'almas sentroida to'g'ri chiziq, qo'zg'aluvchi sentroida g'ildirak gardishidagi aylanadan iborat (4-rasm).

Har onda qo'zg'almas va qo'zg'aluvchan sentroidalar tezliklar oniy markazi P nuqtada umumiy urinish nuqtasiga ega bo'ladi. Shu sababli qattiq jismning tekis parallel harakatini geometrik tarzda quyidagicha talqin qilish mumkin: tekis shaklning harakati qo'zg'aluvchan sentroidani qo'zg'almas sentroida ustida sirpanmasdan dumalashidir.



4-rasm



5-rasm

1-masala. AB sterjen tekis parallel harakat qiladi. A nuqtaning tezligi shu paytda 5 m/s bo'lib, sterjen bilan 30° burchak hosil qiladi. B nuqtaning tezligi shu paytda sterjenning davomi bilan 60° burchak hosil qiladi (5-rasm, a).

Agar $AB=2m$ bo'lsa, B nuqtaning tezligini, tezliklar oniy markazini, sterjenning burchak tezligini aniqlang. Shuningdek sterjenning o'rtasidagi D nuqtaning tezligini ham aniqlang.

Yechish. Graffo analitik usulda yechish. $\vec{g}_B = \vec{g}_A + \vec{g}_{BA}$ formulaga ko'ra B nuqtaning tezligi

$$\vec{g}_B = \vec{g}_A + \vec{g}_{BA} \quad (1)$$

(1) formulaga ko'ra tezliklar uchburchagini ko'ramiz. (5-rasm, b) bu uchburchakning bitta tomoni va barcha burchaklari ma'lum, shunga ko'ra:

$$g_{BA} = \frac{g_A}{\sin 30^\circ} = \frac{5}{0,5} = 10 \text{ m/s}; \quad g_B = g_A \tan 60^\circ = 5\sqrt{3} \approx 8,05 \frac{\text{m}}{\text{s}} \quad (2)$$

bu yerda $g_{BA} = \omega \cdot BA = \omega \cdot 2$ (3) (2) va (3) lardan ω ni aniqlaymiz.

$$\omega \cdot 2 = 10 \quad \omega = \frac{10}{2} = 5 \frac{\text{rad}}{\text{s}} \text{ Sterjen o'rtasidagi D nuqtaning tezligini aniqlaymiz.}$$

$\mathcal{G}_B = \mathcal{G}_A + \frac{1}{2} \mathcal{G}_{BA}$ Tezliklar uchburchagini quramiz (5-rasm,v) bu uchburchakning ikkita tomoni o'zaro teng, ya'ni: $\mathcal{G}_A = \frac{1}{2} \mathcal{G}_{BA} = 5 \text{ m/c}$ Bu ikkala tomon orasidagi burchak 60° . Demak bu uchburchak teng tomonli. Demak D nuqtaning tezligi ham $\mathcal{G}_D = 5 \text{ m/c}$



Endi bu masalani tezliklar oniy markazi yordamida yechamiz. Buning uchun A va B nuqtalar tezlik vektorlariga perpendikulyarlar tushiramiz. Bu perpendikulyarlar qandaydir P nuqtada kesishadi. P nuqta tezliklar oniy markazi bo'lib hisoblanadi. Uchburchak ABP ning bitta tomoni va barcha burchaklari ma'lum. Uchburchakning AP va BP tomonlarini aniqlaymiz (5 – rasm,g).

$$AP = AB \sin 30^\circ = 2 \cdot 0,5 = 1 \text{ m} \quad BP = AB \cos 30^\circ = 2 \frac{\sqrt{3}}{2} \approx 1,73 \text{ m}$$

AB sterjenning burchak tezligi $\omega = \frac{\mathcal{G}_A}{AP} = \frac{5}{1} = 5 \frac{\text{rad}}{\text{s}}$ B nuqtaning tezligi

$\mathcal{G}_B = \omega BP = 5 \cdot 1,73 = 8,65 \frac{\text{m}}{\text{s}}$ D nuqtaning tezligining aniqlash uchun D nuqtani P nuqta bilan tutashtiramiz. Hosil bo'lgan $\triangle ADP$ dan $AD = AP = 1 \text{ m}$. Demak uchburchak teng tomonli. Shunga ko'ra $DP = 1 \text{ m}$, u holda

$$\mathcal{G}_D = \omega DP = 5 \cdot 1 = 5 \text{ m/s}$$



6 - rasm

D nuqtaning tezligi DP ga perpendikulyar yo'nalgan.

2-masala. Krivoship mexanizmining OA krivoshipi O nuqta atrofida ω_{OA} burchak tezlik bilan aylanmoqda $OA=r$ va $AB=l$ deb olib, OA

krivoship porshenning yo'naltiruvchi o'qi bilan φ burchak hosil qilganda AB shatunning burchak tezligi va B porshenning tezligining aniqlang. (6-rasm, a).

Yechish. Krivoshipning burchak tezligi va uzunligini bilgan holda krivoship A nuqtasi (barmaq) ning tezligini aniqlaymiz:

$$\mathcal{G}_A = \omega_{OA} \cdot OA = r \cdot \omega_{OA}$$

Krivoship A nuqtasining tezligi OA ga perpendikulyar B porshenning tezligi esa OB bo'ylab yo'nalgan A va B nuqtalarning tezlik vektorlariga perpendikulyarlar o'tkazamiz, ular qandaydir nuqtada kesishadi. Bunuqtatezliklaroniymarkazibo'libhisoblanadi. Uni P_{AB} deb belgilaymiz. Anuqtadantezliklaroniymarkazigachabo'lganmasofanihisoblaymiz.

$$AP_{AB} = \frac{AL}{\cos \varphi} \text{ lekin } AL = KB = \sqrt{AB^2 - AK^2} = \sqrt{l^2 - r^2 \sin^2 \varphi}$$

ALningo'rnigaqiymatiniqo'yamiz.

$$AP_{AB} = \frac{\sqrt{l^2 - r^2 \sin^2 \varphi}}{\cos \varphi} \text{ AB shatunning burchak tezligi}$$

$$\omega_{AB} = \frac{\mathcal{G}_A}{AP_{AB}} = \frac{r \omega_{OA}}{\frac{\sqrt{l^2 - r^2 \sin^2 \varphi}}{\cos \varphi}} = \frac{r \omega_{OA} \cdot \cos \varphi}{\sqrt{l^2 - r^2 \sin^2 \varphi}}$$

B porshenning tezligini topish uchun BP_{AB} ni aniqlaymiz.

$$BP_{AB} = LP_{AB} + LB = AP_{AB} \sin \varphi + AK = \sqrt{l^2 - r^2 \sin^2 \varphi} \operatorname{tg} \varphi + r \sin \varphi$$

B porshenning tezligi

$$\mathcal{G}_B = BP_{AB} \omega_{AB} = \left(\sqrt{l^2 - r^2 \sin^2 \varphi} \operatorname{tg} \varphi + r \sin \varphi \right) \cdot \frac{r \omega_{OB} \cos \varphi}{\sqrt{l^2 - r^2 \sin^2 \varphi}} = \left(r^2 \sin \varphi + \frac{r^2 \sin \varphi \cos \varphi}{\sqrt{l^2 - r^2 \sin^2 \varphi}} \right) \omega_{OA}$$

$\varphi = 0$ bo'lganda, shatunning tezliklar oniy markazi B nuqta bilan ustma-ust tushadi. Natijada shatunning barcha nuqtalari B nuqta atrofida aylanalar chizadi (6-rasm,6).

Shatunning burchak tezligi

$$\omega_{AB} = \frac{\mathcal{G}_A}{PA} = \frac{r}{l} \omega_{OA}$$



B porshenning tezligi $\mathcal{G}_B = 0$, $\varphi = 90^\circ$ bo'lganda krivoshipning A nuqtasi va B porshenning tezliklari o'zaro parallel bo'ladi. Shunga ko'ra AB shatunning tezliklar oniy markazi cheksizlikda yotadi (6-rasm,B). Bu paytda AB shatunning barcha nuqtalari bir xil $\bar{\mathcal{G}}_A$ tezlikka ega bo'ladi. Chunki $\omega_{AB} = 0$

3. Tekis shakl nuqtasining tezlanishi.

Tekis shakl ixtiyoriy B nuqtasining tezlanishi tekis shaklning ilgarilanma va aylanma harakatlarida olgan tezlanishlarining geometrik yig'indisidan iborat ekanligini ko'rsatamiz. B nuqtaning Oxy koordinata sistemasiga nisbatan holati (rasmga qarang) quyidagicha aniqlangan edi.

$$\bar{r}_B = \bar{r}_A + \bar{r}^1, \text{ bu yerda } \bar{r}^1 = \overline{AB}$$

tenglikni har ikkala tomonidan vaqt bo'yicha ikkinchi tartibli hosila olamiz.



$$\bar{a}_B = \frac{d^2 \bar{r}_B}{dt^2} = \frac{d^2 \bar{r}_A}{dt^2} + \frac{d^2 \bar{r}^1}{dt^2}$$


Tenglikningo'ngtomonidagibirinchiqo'shiluvchihadAnuqtaning $\bar{a}_A$ tezlanishini, ikkinchiqo'shiluvchihadesatekisshaklningAqutbatrofidaaylanishidaolgan $\bar{a}_{BA}$ tezlanishiniberadi, uholda:

$$\bar{a}_B = \bar{a}_A + \bar{a}_{BA} \quad (5)$$

Tezlanish $\bar{a}_{BA}$ aylanma harakat qilayotgan nuqtaning tezlanishi kabi $a = \sqrt{a_\tau^2 + a_n^2}$ yoki $a = h\sqrt{\varepsilon^2 + \omega^4}$ va $\operatorname{tg} \mu = \frac{a_\tau}{a_n} = \frac{\varepsilon}{\omega^2}$ formulalar yordamida topiladi


$$\bar{a}_{BA} = BA\sqrt{\varepsilon^2 + \omega^4}, \quad \operatorname{tg} \mu = \frac{\varepsilon}{\omega^2} \quad (6)$$

bu yerda ω va ε - tekis shaklning burchak tezligi va burchak tezlanishi, $\mu - \bar{a}_{BA}$ tezlanish vektori bilan BA kesma orasidagi burchak (7 – rasm).



7 - rasm

Shunday qilib, tekis shakl ixtiyoriy B nuqtasining tezlanishi, qutb deb tanlangan nuqtaning tezlanishi va tekis shaklning qutb atrofida aylanishida B nuqtaning olgan tezlanishlarining geometrik yig'indisiga teng. $\bar{a}_B$ tezlanishning moduli va yo'nalishi parallelogramm qurish asosida topiladi (7– rasm) B nuqtaning $\bar{a}_B$ tezlanishini tasvirlangan parallelogramm yordamida hisoblash bir oz qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Avval μ ning qiymatini, keyin esa $\bar{a}_{BA}$ va $\bar{a}_A$ vektorlar orasidagi burchakni aniqlash lozim. Shunga ko'ra masalalarni yechishda $\bar{a}_{BA}$ tezlanish vektori $\bar{a}_{BA}^\tau$ urinma va $\bar{a}_{BA}^n$ normal tashkil etuvchilar bilan almashtiriladi, u holda (5) tenglama quyidagi ko'rinishni oladi.



8 - rasm

$$\bar{a}_B = \bar{a}_A + \bar{a}_{BA}^\tau + \bar{a}_{BA}^n \quad (7)$$

$\bar{a}_{BA}^\tau$ vektor AB kesmaga doimo perpendikulyar bo'lib, tezlanuvchan harakatda aylanish yo'nalishi bo'ylab (8 – rasm,a), sekinlanuvchan harakatda esa aylanish yo'nalishiga teskari

yo'nalgan bo'ladi (8-rasm,6). $\bar{a}_{BA}^n$ vektor doimo AB bo'ylab B nuqtadan A nuqtaga tomon yo'nalgan bo'ladi. Son jihatidan bu tezlanishlar quyidagiga teng.

$$a_{BA}^\tau = AB \cdot \varepsilon; \quad a_{BA}^n = AB \cdot \omega^2 \quad (8)$$

Agar qutb deb tanlangan A nuqta ilgarilanma harakat qilmasa, u holda uning tezlanishini ham $\bar{a}_A^\tau$ urinma va $\bar{a}_A^n$ normal tashkil etuvchilar yig'indisidan iborat deb qarash lozim, u holda (7) tenglik quyidagi ko'rinishni oladi.

$$\bar{a}_B = \bar{a}_A^\tau + \bar{a}_A^n + \bar{a}_{BA}^\tau + \bar{a}_{BA}^n \quad (9)$$

4. Tezlanishlar oniy markazi.

Agar tekis shakl ilgarilanma bo'lmagan harakat qilsa vaqtning istalgan paytida unda tezlanishi nolga teng bo'lgan nuqta mavjud bo'ladi. Tekis shaklni vaqtning istalgan paytida tezlanishi nolga teng bo'lgan nuqtasiga tezlanishlar oniy markazi deyiladi. Tezlanishlar oniy markazini aniqlaymiz. Aytaylik tekis shaklning qandaydir biror A nuqtasining tezlanishi a_A , tekis shaklning burchak tezligi ω berilgan bo'lsin.

1). Burchak μ ni aniqlaymiz:

$$tg\mu = \frac{\varepsilon}{\omega^2}$$

2) A nuqtadan $\bar{a}_A$ vektor bilan μ burchak tashkil etuvchi AE to'g'ri chiziqni o'tkazamiz (9-rasm). Bunda AE to'g'ri chiziq aylanish tezlanuvchan bo'lsa $\bar{a}_A$ vektordan aylanish yo'nalishi tomon, agar aylanish sekinlanuvchan bo'lsa, aylanishga qarama-qarshi tomonga og'gan bo'lishi kerak, aniqrog'i, ε burchak tezlanishi yo'nalgan tomonga og'gan bo'ladi

$$AQ = \frac{a_A}{\sqrt{\varepsilon^2 + \omega^2}} \quad (10)$$

ga teng kesmani AE to'g'ri chiziq ustiga qo'yib Q nuqtani aniqlaymiz. Q nuqta tezlanishlar oniy markazi bo'lib hisoblanadi. Haqiqatdan ham A nuqtani qutb deb olib, Q nuqtaning tezlanishini (5) va (6) formulalar yordamida hisoblaymiz:

$$\bar{a}_Q = \bar{a}_A + a_{QA} \quad \text{bunda} \quad \bar{a}_{QA} = AQ\sqrt{\varepsilon^2 + \omega^4}$$

AQ ning bu qiymatini (5) formulaga qo'ysak

$$a_{QA} = a_A \text{ kelib chiqadi.}$$

$\bar{a}_{QA}$ vektor AQ bilan μ burchak tashkil etadi. Demak, $\bar{a}_{QA}$ vektor $\bar{a}_A$ vektorga parallel lekin qarama – qarshi tomonga yo'nalgan. Shunga ko'ra

$$\bar{a}_{QA} = -\bar{a} \quad \text{va} \quad \bar{a}_Q = 0$$

Agar Q nuqtani qutb deb tanlasak, u holda $\bar{a}_Q = 0$ bo'ladi. Tekis shakl ixtiyoriy B nuqtasining tezlanishi (5) formulaga ko'ra.

$$\bar{a}_{QA} = \bar{a}_Q + \bar{a}_{BQ} = \bar{a}_{BQ} \quad (11)$$

(6) formulaga ko'ra B nuqtaning tezlanishi son jihatdan quyidagiga teng.


$$a_B = BQ\sqrt{\varepsilon^2 + \omega^4} \quad (12)$$

(5) va (12) formulalardan


$$\frac{a_B}{BQ} = \frac{a_A}{AQ} = \dots = \sqrt{\varepsilon^2 + \omega^4} \quad (13)$$

munosabatga ega bo'lamiz.

Demak, tekis shakl nuqtalarining tezlanishlari, shu



9-rasm



10-rasm


nuqtalardan tezlanishlar oniy markazigacha bo'lgan masofalarga to'g'ri proporsional bo'ladi.

Tezlanishlarning taqsimlanishi 10-rasmda tasvirlangan. Tezliklar oniy markazi P bilan tezlanishlar oniy markazi Q vaqtning bu paytida ustma-ust tushmaydi. Masalan, to'g'ri chiziqli rels bo'ylab markazi C o'zgarmas tezlik ($\mathcal{G}_C = \text{const}$) harakatlanayotgan g'ildirakning tezliklar oniy markazi g'ildirak bilan rels tutinib turgan P nuqtasi hisoblanadi ($\mathcal{G}_P = 0$) lekin, P nuqta tezlanishlar oniy markazi bo'la olmaydi chunki $a_P \neq 0$. Bu holda tezlanishlar oniy markazi to'g'ri chiziqli tekis harakatlanayotgan g'ildirakning C markazi bo'ladi, bu nuqtaning tezlanishi $\bar{a}_C = 0$. Qo'zg'almas o'q atrofida aylanayotgan jismda tezliklar oniy markazi bilan tezlanishlar oniy markazi ustma-ust tushadi.

3- masala. Markaziy bo'lmagan krivoship shatun mexanizmnining OA krivoshipi bilan AB shatuni o'zaro perpendikulyar va gorizontal o'q bilan $\varphi = 45^\circ$ burchak hosil qilgan paytda AB shatunning burchak tezligi, burchak tezlanishi hamda B porshenning tezlanishini aniqlang. Krivoshipning uzunligi $OA = 20\text{sm}$, shatunning uzunligi $AB = 100\text{sm}$. Krivoship $\omega_{OA} = 10 \frac{\text{rad}}{\text{s}}$ burchak tezlik bilan tekis aylanma harakat qiladi.

Yechish. AB shatun tekis parallel harakat qiladi. A nuqtaning tezligini aniqlaymiz. (6) formulaga ko'ra $\mathcal{G}_A = \omega_{OA} \cdot OA = 10 \cdot 20 = 200 \frac{\text{sm}}{\text{s}}$ $\mathcal{G}_A$ tezlik vektori OA ga perpendikulyar va ω_{OA} yo'nalgan tomonga qarab yo'nalgan bo'ladi. Tezliklar oniy markazi P nuqtani aniqlaymiz.

Buning uchun $\bar{g}_A$ tezlik va B porshen tezligi



11-rasm

yo'nalishiga perpendikulyarlar o'tkazamiz. Ular qandaydir nuqtada kesishadi. Bu nuqta tezliklar oniy markazi P nuqtadir.

Mexanizmlar shunday holatda bo'lganda (11-rasm,a) $AP = AB = 100\text{sm}$

AB shatunning burchak tezligi

$$\mathcal{G}_A = \omega_{AB} \cdot AP \quad \text{yoki} \quad \omega_{AB} = \frac{\mathcal{G}_A}{AP} = \frac{200}{100} = 2 \frac{\text{rad}}{\text{s}}$$

B porshenning tezlanishini aniqlaymiz. A nuqtani qutb deb olib (7) formulaga ko'ra yozamiz:

$$a_B = a_A^\tau + a_A^n + a_{BA}^\tau + a_{BA}^n$$

OA krivoshiptekis aylanma harakat qilayotgani uchun,

Anuqtaning a_A^τ urinma tezlanishi

$a_A^\tau = \varepsilon_{OA} \cdot OA = 0$ gateng Normal a_A^n tezlanishini aniqlaymiz:

$$a_A^n = a_A^n = \omega_{OA}^2 \cdot OA = 10^2 \cdot 20 = 2000 \frac{\text{sm}}{\text{s}^2}$$

a_A^n normal tezlanish OA bo'ylab, A nuqtadan O nuqtaga qarab yo'nalgan bo'ladi.

$$\text{Tezlanish} \quad \bar{a}_{BA}^n = \omega_{AB}^2 \cdot AB = 2^2 \cdot 100 = 400 \frac{\text{sm}}{\text{s}^2}$$

a_{BA}^n tezlanish AB bo'ylab B dan A ga qarab yo'nalgan bo'ladi. Urinma a_{BA}^τ tezlanish AB (a_{BA}^n) ga perpendikulyar shatunning aylanish yo'nalishi bo'ylab yo'nalgan bo'ladi. Lekin, a_{BA}^τ tezlanish moduli ham, yo'nalishi ham bizga hozircha noma'lum.

$\bar{a}_B = \bar{a}_A + \bar{a}_{BA}^\tau + \bar{a}_{BA}^n$ formuladan noma'lumlar $\bar{a}_B$ va $\bar{a}_{BA}^\tau$ bo'lib hisoblanadi. Ular ko'pburchak qurish yordamida aniqlanadi. Ihtiyoriy O1 nuqta tanlab, $\bar{a}_A$ vektorini o'zining masshtabida o'z-o'ziga parallel qilib O1 nuqtaga keltiramiz. Uning uchiga a_{BA}^τ tezlanish vektorini ko'chiramiz. Bu vektorning uchiga esa $\bar{a}_{BA}^n$ vektorini keltirib qo'yamiz. Endi O1 nuqta

bilan $\vec{a}_{BA}^{\tau}$ tezlanishi vektorining uchini tutashtiramiz. Ko'pburchakni yopuvchi tomoni B porshenning $\vec{a}_B$ tezlanish vektori bo'lib hisoblanadi (11-rasm,6). O₁ nuqta orqali x,y o'qlarini o'tkazamiz. Tezlanishlarni x hamda y o'qlariga proyeksiyalaymiz:

$$\sum a_{KX} = 0; \quad a_B \cos 45^\circ = a_{BA}^{\tau} - a_A \quad (1)$$

$$\sum a_{KY} = 0 \quad a_B \sin 45^\circ = -a_{BA}^n \quad (2)$$

$$(2)\text{-dan } a_{BA}^n = -a_B \sin 45^\circ \quad a_B = -\frac{a_{BA}^n}{\sin 45^\circ} = -\frac{400}{0,707} = -566 \frac{sm}{s^2}$$

$$(1)\text{-dan } a_{BA}^{\tau} = a_A + a_B \cos 45^\circ = 2000 - 400 = 1600 \frac{sm}{s^2}$$

AB shatunning burchak tezlanishini aniqlaymiz.

$$a_{BA}^{\tau} = \varepsilon_{AB} \cdot AB \quad \varepsilon_{AB} = \frac{a_{BA}^{\tau}}{AB} = \frac{1600}{100} = 16 \frac{rad}{s^2}$$

28-masala. Krivoship-shatun mexanizmining OA krivoshipi o'zgarmas $\omega_{OA} = 10 s^{-1}$ burchak tezlik bilan aylanadi. OA krivoship B porshenning harakat yo'nalishiga perpendikulyar bo'lgan paytda krivoship A barmog'ining, B porshen, shatunning o'rtasidagi C nuqtalarning tezlanishlarini va AB shatunning burchak tezlanishini aniqlang.

OA = 25 sm, OD = 5 sm, AB = 50 sm (12-rasm, a).

12-rasm

Yechish. Krivoship A barmog'ining tezligini aniqlaymiz $\mathcal{G}_A = \omega_{OA} \cdot OA = 25 \cdot 10 = 250 \frac{sm}{s}$

Shunday holatda A₁ B va C nuqtalarning tezliklari o'zaro teng: $\mathcal{G}_A = \mathcal{G}_B = \mathcal{G}_C$

Demak, tezliklar oniy markazi. Cheksizlikda yotadi (12-rasm,6).

AB shatunning burchak tezligi $\omega_{AB} = 0$ A nuqta O nuqta atrofida aylanma harakatda bo'lgani uchun, uning tezlanish moduli

$$a_A = \omega_{OA}^2 \cdot OA = 25 \cdot 10^2 = 2500 \frac{sm}{s^2}$$

Mexanizmning shu holatida AB shatunning tezliklar oniy markazi. Cheksizlikda yotganligi uchun AB shatunning barcha nuqtalari bir xil tezlikka ega bo'ladi. (116-rasm,6), demak

$\vec{\mathcal{G}}_A = \vec{\mathcal{G}}_B = \vec{\mathcal{G}}_C$ AB shatunning burchak tezligi $\omega_{AB} = 0$ B va C nuqtalarning tezlanishlarini tezlanishlar oniy markazi yordamida aniqlaymiz. Tezlanishlar oniy markazi holatini aniqlash uchun μ burchakni topamiz. $tg \mu = \frac{\varepsilon_{AB}}{\omega_{AB}^2} = \infty$ demak $\alpha = 90^\circ$ ekan

B porshen to'g'ri chiziq bo'ylab harakatlangani uchun uning tezlanishi shu to'g'ri chiziq bo'ylab yo'nalgan bo'ladi. Krivoship A nuqtasining tezlanishi AO bo'ylab A dan O nuqta tomon yo'nalgan bo'ladi (12-rasm, b).

A va B nuqtalar tezlanishlariga tushirilgan perpendikulyarlar kesishgan nuqta tezlanishlar oniy markazi Q_{AB} bo'ladi.

B va C nuqtalar tezlanishlar modullarini (60) formula, yordamida aniqlaymiz.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Tekis shaklning qanday nuqtasiga tezliklar oniy markazi deyiladi?
2. Tezliklar oniy markazini aniqlashning qanday usullari mavjud?
3. Sentroida nima?
4. Qo'zg'aluvchan sentroida deb nimaga aytiladi?
5. Qo'zg'almas sentroida deb nimaga aytiladi?
6. Qutb yordamida tekis shakl ixtiyoriy nuqtasining tezlanishini aniqlash formulasini keltirib chiqaring?
7. Tekis shakl ixtiyoriy nuqtasining tezlanishini geometrik usulda qanday topiladi?
8. Tekis shaklning qanday nuqtasiga tezlanishlar oniy markazi deyiladi?
9. Tezliklar oniy markazi bilan tezlanishlar oniy markazi ustma-ust tushadimi?

9- MA'RUZA

DINAMIKA.DINAMIKANING ASOSIY TUSHUNCHA VA QOIDALARI.. DINAMIKAGA KIRISH. ASOSIY TUSHUNCHALAR. DINAMIKA QONUNLARI.DINAMIKA MASALALARI. MODDIY NUQTA HARAKATINING DIFFERENSIAL TENGLAMALARI VA ULARNI INTEGRALLASH . INERTSIYA KUCHI

Reja:

1. Asosiy tushunchalar va ifodalar.
2. Dinamika qonunlari. Moddiy nuqta dinamikasining asosiy masalalari.
3. Moddiy nuqta harakatining differentsial tenglamalari.

Muammo:Qadim zamonlardan beri harakat qilayotgan moddiy nuqta yoki jism o'z harakatini qanday sabablarga ko'ra o'zgartira olishi va uning matematik ifodasi bormi yoki yo'qmi degan savol ustida necha-necha olimlar bosh qotirganlar. Lekin bu savolga Italiya olimi G. Galiley (1564-1642) va Ingliz olimi I.Nyuton(1642-1727)largacha hech kim **aniq javob** bera olmaganlar.Xaqiqatan ham, birorta jismni yuqoriga uloqtirib yuborsangiz, ma'lum traektoriya orqali harakatlanib, yana yerga qaytib tushadi. Sababi nimada? Nima uchun osmonga qarab cheksiz ko'tarilib keta olmaydi?Quyida shu haqdagi fikrlarning yechimi, ilmiy tilda aytganimizda **dinamikaning** asosiy qonunlari keltiriladi.

Tayanch iboralar: *Dinamika, moddiy nuqta, moddiy nuqtalar sistemasi, absolyut qattiq jism, mexanik tahsir, kuch, qzgarmas va qzgaruvchi kuchlar, massa, inertsion massa, inertsiya qonuni, dinamikaning asosiy qonuni, tahsir va aks tahsir qonuni, kuchlar ta'sirining mustaqillik qonuni*

1 Asosiy tushunchalar va ifodalar.

Kuchlar ta'sirida bo'lgan jismlarning harakatini o'rganuvchi qism **dinamikadeb** ataladi.

Kinematika qismida jismlarning harakatlariga faqat geometrik nuqtai nazardangina qaralgan edi. Dinamika qismining kinematikadan farqi shundaki, jismlarning harakatlarini o'rganishda, ularga ta'sir etayotgan kuchlar sistemasidan tashqari jismlarning inertligi, ya'ni ularning massalari va shu massalarning joylashish tartiblari (*geometrik shakli*) ham e'tiborga olinadi. «Nazariy mexanika» fanini o'rganishning maqsadi, mexanika qonunlarini yod olish emas, balki ushbu qonuniyatlar orqali har qanday murakkab mashina va jihozlarning ishlash sirlarini anglab yetishga qaratilgan.

Kuch va ularning moddiy jismlarga ko'rsatadigan mexanik ta'sirlarining o'lchovi ekanligi haqidagi tushunchalar statika qismida ko'rib o'tilgan edi. Lekin, statika qismida jismlarga ta'sir etuvchi kuchlarning vaqt mobaynidagi o'zgarishlarini hisobga olmagan edik va statika masalalarini yechganimizda barcha kuchlarni o'zgarmas deb qaragan edik. Amalda esa harakatlanuvchi jismga o'zgarmas kuchlardan tashqari, moduli va yo'nalishi bo'yicha o'zgaruvchan bo'lgan kuchlar ham ta'sir etadi. Shu qatorda berilgan (aktiv) kuchlar ham va bog'lanish rektsiyalari ham o'zgaruvchan bo'lishlari mumkin.

Tajribalar orqali aniqlandiki, jismga ta'sir etayotgan kuchlar vaqtga, jismning holatiga (koordinatasiga) va uning tezligiga bog'liq ravishda o'zgaruvchan bo'lar ekan. Masalan, reostatni yoqish va o'chirish hisobiga elektrovozning tortish kuchi yoki elektromotorning yaxshi markazlashtirilmagan valining aylanishidan hosil bo'ladigan tebranishlar ta'siridagi kuchlar vaqtga bog'liq ravishda o'zgaruvchi kuchlarga misol bo'lishi mumkin; butun olam tortilish qonuni yoki prujinaning elastiklik kuchi esa jismlarning holatiga (ya'ni koordinatalardagi o'rniga) bog'liq ravishda o'zgaruvchi kuchlarga misol bo'la olishi mumkin; muhit qarshiligi kuchi tezlikka bog'liq ravishda o'zgaradi.

Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, statika qismidagi kuchlar haqidagi tushunchalar va qoidalar to'laligicha **dinamika** qismida ham o'rinli hisoblanadi, chunki statika qismidagi qoidalar faqat o'zgarmas kuchlar uchungina o'rinli deyilgan emas.

Inertlik tushunchasi shundan iboratki, agar jismga biror tezlik berilsa jism shu tezlikni saqlab qoladi, agar unga kuch ta'sir etilsa, jismning tezligi birdaniga emas balki ma'lum vaqt mobaynida o'zgaradi, va bu o'zgarish davri jismning inertligiga to'g'ri proporsional ravishda bo'ladi. **Moddiy jismlarning inertlik xossasining miqdori fizik qiymat bo'lib, uni jismning massasi deb ataladi.** Klassik mexanikada massa skalyar, faqat musbat ishorali va har-bir jism uchun o'zgarmas qiymat hisoblanadi.

Jismning harakati uning umumiy massasigagina bog'liq bo'lib qolmasdan, shu massaning qanday joylashganligiga ham, ya'ni jismning geometrik shakliga ham uzviy bog'liq bo'ladi.

Dinamika qismi ancha murakkab bo'lganligini hisobga olib, uni o'rganish nuqta **dinamikasidan** boshlanadi. Bunda, ma'lum massaga ega bo'lgan *moddiy nuqta* degan abstrakt tushuncha kiritiladi, ya'ni har qanday jismni uning geometrik shakliga (massalarning tarqalishiga) e'tibor bermasdan o'rganiladi (e'tibor bergan bo'lsangiz, kinematika qismida «**moddiy nuqta**» so'zi aslo ishlatilmagan edi).

Kinematika qismida ko'rib o'tganimizdek, har qanday harakat asosan ilgarilanma va aylanma harakatlarning yig'indisidan iborat bo'ladi. Agar masalalarning shartlariga ko'ra aylanma harakatlarni e'tiborga olinmasa bunday jismlarning harakatini o'rganishda ularni moddiy nuqta deb qabul qilinadi, chunki natijaviy yechimda hech qanday xatolik bo'lmaydi. Masalan, planetalarning Quyosh atrofidagi harakatlarini, artileriya snaryadining qanday masofaga borib tushishini aniqlashda va shunga o'xshash qator masalalarni yechishda, ularni moddiy nuqta deb qaraladi.

Ilgarilanma harakatdagi barcha masalalarni yechishda massasi jismning umumiy massasiga teng bo'lgan moddiy nuqta deb hisoblanadi. Mexanik sistema yoki qattiq jismlarning **dinamikasiga** oid harakatlarni o'rganishdan oldin, bitta moddiy nuqtaning **dinamikasiga** oid masalalarni ko'rib o'tish lozim bo'ladi. Shu sababli **dinamika** qismini moddiy nuqta **dinamikasidan** boshlab o'rganamiz.

2 Dinamika qonunlari. Moddiy nuqta dinamikasining masalalari.

Muammo: Mexanik harakatlarning qonunlari nechta. Ular qaysi tenglamalar orqali ifodalanadilar. Dinamika qonunlari kim tomonidan va qachon kashf etilgan.

Dinamikaning asosida jismlarning harakatlarini o'rganishga bag'ishlangan va jamiyatning ijtimoiy-mehnat faoliyatida sinovdan o'tgan qator tajriba va kuzatishlar natijasida aniqlangan qonuniyatlar yotadi. **Dinamikaning** qonunlarini birinchi bo'lib I. Nyuton o'zining 1687 yilda nashr etgan, «Tabiiy falsafaning matematik asoslari» nomli kitobida klassik ko'rinishda sistemalashtirilgan holda bayon qilgan.

Ushbu qonunlarni qo'yidagicha ifodalash mumkin:

1.Inersiya qonuni.Tashqi muhitdan ajratilgan moddiy nuqta tashqaridan kuch ta'sir etmaguncha o'zining tinch holatini yoki to'g'ri chiziqli va teng o'lchovli harakatini saqlashga intiladi.

Shuni ta'kidlab o'tish kerakki,bitta kuch ta'sirida bo'lgan moddiy nuqta (jism) bir xil vaqt orasida turli masofaga siljiydi va tezligi har xil bo'ladi.Demak,moddiy nuqtalar bitta kuch ta'sirida o'zlarining tezligini tez yoki sekin o'zgartiradi.Bu xususiyat moddiy nuqtaning inertligi deyiladi. Moddiy nuqtaning inertlik o'lchovi fizik miqdor bo'lib,u (m) massa deb ataladi.

To'g'ri chiziqli va teng o'lchovli harakat moddiy nuqtaning inersiyasi bo'yicha harakatidan iborat.Bu hodisani ta'riflovchi qonun dinamikaning birinchi qonuni deb yuritiladi.

Dinamikaning birinchi qonunini qanoatlantiradigan sanoq sistemasi inersial sistema deyiladi.Inersiya qonuni bajarilmaydigan sanoq sistema inersial bo'lmagan sistema deb ataladi.

Markazi Quyosh bilan ustma-ust tushuvchi,o'qlari esa mos ravishda tanlab olingan yulduzlarga tomon yo'nalgan sanoq sistemaning inersial ekanligi tajribada aniqlangan.Ko'pincha,texnik masalalarni yechishda,Yer bilan mahkam bog'langan sistema inersial sanoq sistemasi deb qaraladi. Bu holda Yerning o'z o'qi atrofidagi aylanma harakati hamda Quyosh va yulduzlarga nisbatan harakati hisobga olinmaydi.



2. Dinamikaning asosiy qonuni. Moddiy nuqtaning harakatlantiruvchi kuch ta'siridan olgan tezlanishi shu kuch yo'nalishida bo'lib, miqdori mazkur kuch miqdoriga proporsionaldir (1-rasm). Bu qonunning matematik ifodasi quyidagicha yoziladi:

$$\text{1-rasm} \quad \vec{F} = m\vec{a} \quad (1)$$

bu yerda $\vec{F}$ - harakatlantiruvchi kuch, m - nuqtaning massasi, $\vec{a}$ - nuqta tezlanishi.

(1) vektor tenglama moddiy nuqta dinamikasining asosiy tenglamasi deyiladi. (6.1) dan ko'ramizki, muayyan kuch ta'sirida moddiy nuqtaning oladigan tezlanishi faqat kuch kattaligigagina bog'liq bo'lmay, balki nuqta massasiga ham bog'liq.

Agar moddiy nuqta faqat o'zining G og'irlik kuchi ta'sirida Yerga erkin tushsa, $F=G$, $a=g$ bo'lib, (1) ifoda

$$G=mg \quad (2)$$

ko'rinishni oladi. Demak, moddiy nuqtaning og'irlik kuchi bilan massasi o'zaro (2) tenglik bilan bog'langan ekan.

Agar moddiy nuqtaning og'irlik kuchi aniq bo'lsa, uning massasini (2) ga ko'ra


$$m = \frac{G}{g} \quad (3) \text{ formuladan topish mumkin.}$$

Xalqaro birliklar sistemasi (SI) da massa birligi uchun kg , vaqt birligi qilib sekund ($1s$), uzunlik uchun metr ($1m$) qabul qilingan. Binobarin, kuch birligi quyidagicha bo'ladi:


$$[F] = [m][a] = kg \cdot \frac{m}{s^2} = N \text{ (Nyuton)}$$

Demak, massasi $1kg$ bo'lgan moddiy nuqtaga $1m/s^2$ tezlanish bera oladigan kuch Nyuton deb ataladi.

3. Ta'sir va aks ta'sir qonuni. Har bir ta'sir o'ziga teng va qarama-qarshi yo'nalishdagi aks ta'sirni vujudga keltiradi. Boshqacha aytganda, ikkita jismning bir-biriga ta'sirlari o'zaro teng va qarama-qarshi yo'nalgan (2-rasm). A jismning B



2-rasm



3-rasm

jismga ko'rsatgan ta'siri $\vec{F}_1$ bo'lsa, uchinchi qonunga ko'ra, B ning A ga ko'rsatgan ta'siri $\vec{F}_2 = -\vec{F}_1$ bo'ladi. Bu qonundan jismlar muvozanatda degan xulosa kelib chiqmaydi, chunki kuchlar har xil jismlarga qoyilgan. Mazkur qonun ikkita jismning o'zaro ta'sirini xarakterlaydi.

4. Kuchlarning erkinlik qonuni. Moddiy nuqtaning bir qancha kuch teng ta'sir etuvchisi tufayli olgan tezlanishi har qaysi kuchning alohida ta'siridan hosil bo'lgan tezlanishlarining geometrik yig'indisiga teng, (3-rasm) ya'ni:

$$\vec{a} = \sum_1^n \vec{a}_v \quad (4) \quad (4) \text{ tenglikni ikki tomonini } m \text{ ga ko'paytiramiz:}$$

$$m\vec{a} = \sum_1^n m\vec{a}_v \quad \text{Demak,} \quad m\vec{a} = \sum_1^n \vec{F} \quad (5)$$

(5) ifoda bir qancha kuch ta'siridagi moddiy nuqta uchun dinamikaning asosiy tenglamasidir. (5) ifodani (1) bilan taqqoslashdan ko'ramizki, moddiy nuqtaga bir necha kuch qo'yilgan bo'lsa, (1) dagi $\vec{F}$ ni shu kuchlarning teng ta'sir etuvchisi deb qarash kerak.

Erkin va erksiz moddiy nuqta dinamikasining ikki asosiy masalasi

Dinamika masalalarini ikkita asosiy turga ajratish mumkin. Bu masalalar erkin moddiy nuqta uchun quyidagicha:

Dinamikaning birinchi asosiy masalasida moddiy nuqta massasi va uning harakat qonuni berilgan bo'lib, harakatlantiruvchi kuchni topish so'raladi.

Dinamikaning ikkinchi asosiy masalasi esa moddiy nuqta massasi va unga ta'sir etuvchi kuch ma'lum bo'lganda, shu kuch ta'siridan hosil bo'ladigan kinematik elementlarni topishdan iborat.

Texnikada erksiz (bog'lanishdagi) moddiy nuqta harakatini tekshirishga doir ko'plab masalalarni yechishga to'g'ri keladi. Bunday hollarda nuqtaga qo'yilgan bog'lanish uni qo'zg'almas sirt yoki chiziqli ustida harakat qilishga majbur etadi.

Erksiz moddiy nuqta harakatiga doir masalalarni yechishda mazkur nuqta bog'lanishdan qutqarilib, qo'yilgan bog'lanish reaksiya kuchi bilan almashtiriladi.

Natijada moddiy nuqta dinamikasining asosiy tenglamasi quyidagicha yoziladi:


$$m\vec{a} = \vec{F} + \vec{N} \quad (6)$$

bunda $\vec{N}$ - bog'lanish reaksiya kuchi.

Demak, erksiz moddiy nuqta dinamikasining birinchi asosiy masalasida moddiy nuqta massasi va uning harakat qonuni hamda mazkur nuqtaga ta'sir qiluvchi kuch ma'lum bo'lganda reaksiya kuchi aniqlanadi; ikkinchi masalada esa moddiy nuqta massasi va unga ta'sir etuvchi kuch ma'lum bo'lganda moddiy nuqtaning harakat qonuni bilan reaksiya kuchini aniqlash kerak.

Erkin va erksiz moddiy nuqta harakatining differensial tenglamalari

Erkin moddiy nuqta $\vec{F}$ kuch ta'sirida harakatlanayotgan bo'lsin (6.4-rasm). Bu holda dinamikaning asosiy tenglamasi (1) ko'rinishda yozilar edi. (1) tenglamadagi $\vec{a}$ tezlanish vektorini $\vec{r}$ radius-vektori orqali ifodalaymiz:



$$\vec{a} = \frac{d^2 \vec{r}}{dt^2} \quad (6)$$

$$(6) \text{ ni } (1) \text{ ga qo'ysa } \vec{F} = m \frac{d^2 \vec{r}}{dt^2} \quad (7)$$

4-rasm.

kelib chiqadi.

(7) tenglama erkin moddiy nuqta harakati differensial tenglamasining vektor ifodasidir.

(7) ning Dekart koordinata o'qlaridagi proyeksiyalari quyidagicha bo'ladi:

$$F_x = \frac{d^2 x}{dt^2}; \quad F_y = \frac{d^2 y}{dt^2}; \quad F_z = \frac{d^2 z}{dt^2}. \quad (8)$$

bu ifodalarda F_x, F_y, F_z bilan $\vec{F}$ kuchning koordinata o'qlaridagi proyeksiyalari belgilangan; x, y, z esa $\vec{r}$ radius-vektorning proyeksiyalari, ya'ni M nuqtaning koordinatalaridir.

(8) tenglamalar egri chiziqli harakatdagi moddiy nuqta harakati differensial tenglamalarining koordinata usulidagi ko'rinishi deyiladi.

Agar moddiy nuqtaning harakat yo'nalishi bilan kuch yo'nalishi bir to'g'ri chiziq bo'yicha bo'lsa, nuqta harakati to'g'ri chiziqli bo'ladi. Bu holda nuqtaning harakat yo'nalishi uchun Ox o'qni olsak, uning differensial tenglamasi quyidagicha yoziladi:

$$F_x = \frac{d^2 x}{dt^2} \quad (9)$$


Agar moddiy nuqta harakati tekislikda bo'lsa, (8) tenglamalarning ikkitasi yoziladi. (1) ning tabiiy koordinata o'qlaridagi proyeksiyalari quyidagicha bo'ladi (5-rasm):

$$F_\tau = ma_\tau, \quad F_n = ma_n, \quad F_b = ma_b \quad (10).$$


Kinematikadan ma'lumki:

$$a_\tau = \frac{dv}{dt}, \quad a_n = \frac{v^2}{\rho}, \quad a_b = 0 \quad (11) \quad (6.11) \text{ ni } (6.10) \text{ ga qo'ysak,}$$

$$F_\tau = m \frac{dv}{dt}, \quad F_n = m \frac{v^2}{\rho}, \quad F_b = 0 \quad (12) \text{ kelib chiqadi.}$$



5-rasm.



6-rasm

(7) tenglamalar moddiy nuqta harakati differensial tenglamalarining tabiiy usulda ifodalanishidir. Aytaylik, moddiy nuqta qo'zg'almas silliq chiziq ustida harakatlanayotgan bo'lsin (6-rasm).

Sanoq sistemasi boshini O, M nuqtaning egri chiziqli koordinatasini $\vec{OM} = s$ deb qabul qilamiz. Qo'zg'almas silliq chiziqning nuqtaga ta'siri $\vec{N}$ reaksiya kuchi bilan almashtirilib, nuqtani bog'lanishdan qutqaramiz. Natijada erksiz moddiy nuqta dinamikasining asosiy tenglamasi quyidagicha yoziladi:

$$\vec{F} + \vec{N} = m\vec{a} \text{ yoki } \vec{F} + \vec{N} = m \frac{d^2 \vec{r}}{dt^2} \quad (13)$$

Bu tenglamani Dekart koordinata o'qlariga proyeksiyalasak, erksiz moddiy nuqta harakati differensial tenglamalarining koordinata usuldagi ifodasi kelib chiqadi:

$$\vec{F}_x + \vec{N}_x = m \frac{d^2 x}{dt^2}; \quad \vec{F}_y + \vec{N}_y = m \frac{d^2 y}{dt^2}; \quad \vec{F}_z + \vec{N}_z = m \frac{d^2 z}{dt^2} \quad (14)$$

(13) ni tabiiy koordinata o'qlariga proyeksiyalaymiz:

$$\vec{F}_\tau + \vec{N}_\tau = m \frac{d^2 v}{dt^2}, \quad \vec{F}_n + \vec{N}_n = m \frac{v^2}{dt^2}, \quad \vec{F}_b + \vec{N}_b = 0$$

Qo'zg'almas chiziq silliq bo'lganligi uchun $\vec{N}$ ning urinmadagi proyeksiyasi nolga teng:

$$N_\tau = 0. \text{ Demak, } \vec{F}_\tau + m \frac{d^2 v}{dt^2}, \quad \vec{F}_n + \vec{N}_n = m \frac{v^2}{dt^2}, \quad \vec{F}_b + \vec{N}_b = 0 \quad (15)$$

(15) moddiy nuqtaning qo'zg'almas silliq chiziq ustidagi harakati differensial tenglamasini tabiiy usulda ifodalashdan iborat. Xususiyl holda $\vec{F}$ kuch urinma tekislikda yotsa, $F_b = 0$ bo'lib, normal reaksiya trayektoriyaning bosh normali bilan bir yo'nalishda bo'ladi.

Takrorlash uchun savollar:

1. Dinamika qismi nimani o'rganadi?
2. Dinamikaning birinchi qonuni nimadan iborat?
3. Xavosiz bo'shliqda jism harakatlana olishi mumkinmi?
4. Dinamikaning asosiy qonunini taoriflab bering?
5. Dinamikaning uchinchi qonunini taoriflab bering?
6. Inertial hisob sistemasi nimadan iborat?
7. SI halqaro o'lchov sistemasi nima?
8. MKGSS o'lchov sistemasi nima?
9. Kuchlarning asosiy ko'rinishlari qaysilardan iborat?
9. Xarakatning differentsal tenglamasini Dekart o'qlardagi ko'rinishini yozib bering?
11. Xarakatning differentsal tenglamasini tabiiy uch yoqli o'qlardagi ko'rinishini yozib bering?
12. Dinamikaning birinchi asosiy masalasini nimadan iborat?

10 MA'RUZA

MODDIY NUQTANING TEBRANMA HARAKATI. MODDIY NUQTANING ERKIN TEBRANMA HARAKATI. MODDIY NUQTANING SO'NUVCHI TEBRANMA HARAKATI. MODDIY NUQTANING MAJBURIY TEBRANMA HARAKATI. REZONANS.

Reja:


1. Erkin tebranishlar. Qarshilik kuchi bo'lmagandagi erkin tebranishlar.
2. Qarshilik kuchi mavjud bo'lgandagi erkin tebranishlar. So'nuvchi tebranishlar.
3. Majburiy tebranishlar. Qarshilik kuchi bo'lmagandagi majburiy tebranishlar.
4. Qarshilik kuchi mavjud bo'lgandagi majburiy tebranishlar.
5. Rezonans hodisasi.

Tayanch iboralar: Tebranish davri, tebranish chastotasi, tebranish amplitudasi, muhitning qarshilik kuchlari, Siklik chastota, tebranish dekrementi.

Qarshilik kuchi bo'lmagandagi erkin tebranishlar.

Tebranma harakat yoki qisqacha qilib aytganda tebranishlar turli sohalarda uchraydi. Masalan, mexanik tebranishlar, akustik tebranishlar, yorug'lik tebranishlar, elektromagnit tebranishlar va boshqalar. Bu tebranishlar fizik xususiyati bilan farq qilsada, ular barchasi ma'lum bir qonuniyatga bo'yn so'nadi.

Tebranishlar nazariy mexanikaning asosiy bo'limlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Hozirgi zamon texnikasi taraqqiyotida uning roli kundan-kunga o'sib bormoqda. Dvigatellar, mashina va mexanizmlar, ko'priklar va boshqa xil inshootlarni loyihalashda ularning tebranishlari albatta hisobga olinadi.



1-rasm

Shunga ko'ra mexanik tebranishlarni o'rganish muhim ahamiyatga ega, chunki bu tebranishlar texnikada ko'plab yuz beradi. Mexanik tebranishlarni o'rganishda olingan natijalar, boshqa sohalarida sodir bo'ladigan tebranishlarni o'rganishda foydalanish mumkin.

Qarshilik kuchi bo'lmaganda erkin tebranishlarni ko'rib chiqamiz. Massasi m bo'lgan M moddiy nuqta muvozanat vaziyati tomon qaytaruvchi $\vec{F}$ kuch ta'sirida to'g'ri chiziqli bo'ylab harakatlanayotgan bo'lsin (1-rasm). $\vec{F}$ kuch M nuqtani doimo muvozanat vaziyati O nuqta tomon harakatlantirishga intiladi.

Shunga ko'ra $\vec{F}$ kuch muvozanat vaziyati tomon qaytaruvchi kuch deb ataladi. Bunday kuchga misol qilib elastiklik kuchni ko'rsatish mumkin. $\vec{F}$ kuchning moduli M nuqtadan muvozanat vaziyati O nuqtasigacha bo'lgan masofaga proporsional, ya'ni

$$F = c \cdot OM$$

Bu erda c – proporsionallik koeffitsienti. M nuqtaning harakat qonunini aniqlaymiz.

M nuqtaning harakat yo'nalishi bo'ylab x o'qini o'tkazamiz. Koordinata boshi qilib O nuqtani olamiz. $\vec{F}$ kuchning x o'qdagi proyeksiyasi F_x desak, u holda quyidagini yozamiz.

$$F_x = -cx \quad (1)$$

u holda M nuqta harakatining differensial tenglamasi quyidagi ko'rinishda bo'ladi.

$$m \frac{d^2 x}{dt^2} = -cx$$

$$\frac{1}{2} F \cdot \Delta_{FF} = \sum_{li} \int \frac{M_{xF}^2 \cdot dz}{2EJ_x} \quad (2)$$

Barcha tashqi kuchlarning bajargan ishi quyidagigateng:

$$W = W_T + W_F + W_{TF} = \frac{1}{2} T \cdot \Delta_{kT} + \frac{1}{2} F \cdot \Delta_{FF} + T \cdot \Delta_{kF}$$

(3)

To'liq deformatsiya energiyasi esa quyidagigateng bo'ladi:



EXAMPLE 9.02

The simply supported prismatic beam AB carries a uniformly distributed load w per unit length (Fig. 9.12). Determine the equation of the elastic curve and the maximum deflection of the beam.




Fig. 9.12




Fig. 9.13

Drawing the free-body diagram of the portion AD of the beam (Fig. 9.13) and taking moments about D , we find that

$$M = \frac{1}{2}wLx - \frac{1}{2}wx^2 \quad (9.12)$$

Substituting for M into Eq. (9.4) and multiplying both members of this equation by the constant EI , we write

$$EI \frac{d^2y}{dx^2} = -\frac{1}{2}wx^2 + \frac{1}{2}wLx \quad (9.13)$$

Integrating twice in x , we have

$$EI \frac{dy}{dx} = -\frac{1}{6}wx^3 + \frac{1}{4}wLx^2 + C_1 \quad (9.14)$$

$$EI y = -\frac{1}{24}wx^4 + \frac{1}{12}wLx^3 + C_1x + C_2 \quad (9.15)$$

Observing that $y = 0$ at both ends of the beam (Fig. 9.14), we first let $x = 0$ and $y = 0$ in Eq. (9.15) and obtain $C_2 = 0$. We then make $x = L$ and $y = 0$ in the same equation and write

$$0 = -\frac{1}{24}wL^4 + \frac{1}{12}wL^4 + C_1L$$

$$C_1 = -\frac{1}{24}wL^3$$

Carrying the values of C_1 and C_2 back into Eq. (9.15), we obtain the equation of the elastic curve:

$$EI y = -\frac{1}{24}wx^4 + \frac{1}{12}wLx^3 - \frac{1}{24}wL^3x$$

or

$$y = \frac{w}{24EI}(-x^4 + 2Lx^3 - L^3x) \quad (9.16)$$

Substituting into Eq. (9.14) the value obtained for C_1 , we check that the slope of the beam is zero for $x = L/2$ and that the elastic curve has a minimum at the midpoint C of the beam (Fig. 9.15). Letting $x = L/2$ in Eq. (9.16), we have

$$y_C = \frac{w}{24EI} \left(-\frac{L^4}{16} + 2L \frac{L^3}{8} - L^3 \frac{L}{2} \right) = -\frac{5wL^4}{384EI}$$

The maximum deflection or, more precisely, the maximum absolute value of the deflection, is thus

$$|y|_{\max} = \frac{5wL^4}{384EI}$$




Fig. 9.14




Fig. 9.15

$$(M_x = M_{xT} + M_{xF}); V = \sum \int_{li} \frac{(M_{xT} + M_{xF})^2}{2EJ_x} dz;$$

yoki:

$$V = \sum \int_{li} \frac{M_{xT}^2 \cdot dz}{2EJ_x} + \sum \int_{li} \frac{M_{xT} \cdot M_{xF} \cdot dz}{EJ_x} + \sum \int_{li} \frac{M_{xF}^2 \cdot dz}{2EJ_x} \quad (4);$$

W=V bo'lgani uchun (3) va (4) larning o'ng tomonlarini tenglaymiz:

$$\frac{1}{2}T \cdot \Delta_{kT} + \frac{1}{2}F \cdot \Delta_{FF} + T \cdot \Delta_{kF} = \sum_{li} \int \frac{M_{xF}^2 \cdot dz}{2EJ_X} + \sum_{LI} \int \frac{M_{xF}^2 \cdot dz}{2EJ_X} + \sum_{LI} \int \frac{M_{xT} \cdot M_{xF} \cdot dz}{EJ_X} \quad (5)$$

(5) – munosabatga e'tibor berilsa o'ng va chap tomonlarining birinchi va ikkinchi tashkil etuvchilari bir-biriga teng, u holda uchinchi tashkil etuvchilari ham bir-biriga teng bo'ladi:

$$T \cdot \Delta_{kF} = \sum_{li} \int \frac{M_{xT} \cdot M_{xF} \cdot dz}{EJ_X} \quad (6)$$

Δ_{kF} ni topish uchun (6) ning ikkala tomonini T ga bo'lamiz, u holda:

$$\Delta_{kF} = \sum_{li} \int \frac{\left(\frac{M_{xT}}{T}\right) \cdot M_{xF} \cdot dz}{EJ_X};$$

$\frac{M_{xT}}{T}$ nisbat birligi uzunlik birligidagi; balkaning ixtiyoriy kesimida birlik

kuchdan hosil bo'ladigan eguvchi momentdir. Bu birlik kuch ko'chishi aniqlanishi kerak bo'lgan nuqtaga qo'yilgan. Bu nisbatni M_1 bilan belgilab birlik moment deb ataymiz.

Oxirgi ko'rinishda kochishni aniqlash uchun, Mor integrali deb ataladigan quyidagi integralni hosil qilamiz:

$$\Delta_{KF} = \sum_{li} \int \frac{M_{xF} \cdot M_1 \cdot dz}{EJ_X}$$

Agar ko'ndalang kuchlar ham e'tiborga olinsa Mor integrali quyidagi ko'rinishni oladi:

$$\Delta_{KF} = \sum_{li} \int \frac{M_{xF} \cdot M_1 \cdot dz}{EJ_X} + \sum_{li} \int \frac{K \cdot Q_y \cdot Q_1 \cdot dz}{GA};$$

Agar balka kesimi o'zgarmas bo'lsa va ko'ndalang kuchlarni e'tiborga olmasak, Mor integralini quyidagicha yozish mumkin:

$$\Delta_{KF} = \sum \frac{1}{EJ_x} \int_{li} M_{xF} M_1 \cdot dz$$

17.MAVZU

SIQILINGAN STERJENLARNI USTIVORLIKKA HISOBLASH. EYLER FORMULASI

Reja:

1. Muvozanat turlari. Siqilingan sterjenning ustivor muvozanati.
2. Kritik kuch va kritik kuchlanishni hisoblash. Eyler formulasi.
3. Sterjenni ustivorlikka hisoblash.

Adabiyotlar: 4, 5, 6, 8, **1, 13, 14**.

Tayanch iboralar: muvozanat, ustivor muvozanat, kritik kuch, kritik kuchlanish, mustahkamlik sharti, ustivorlik sharti.

Ma'lumki, uch xil muvozanat mavjud: ustivor, befarq va ustivormas muvozanatlar. Quyida bo'ylama kuch ta'sirida siqilingan sterjenning muvozanatini ko'rib chiqamiz.

Aytaylik, ikki sharnirli sterjen biror R kuch ta'sirida siqilayapti (5.1- shakl). Agar R kuchning qiymati uncha katta bo'lmasa sterjen $\sigma = \frac{P}{A}$ kuchlanish bilan tekis

siqiladi. Bunda sterjen o'zining ustivor muvozanatini saqlaydi. Lekin R ning qiymati oshirilsa, malum bir R_{kr} qiymatga yetganda sterjen egila boshlaydi va uning muvozanati befarq muvozanatga aylanadi R ning qiymati yana oshirilsa noustivor muvozanat vujudga keladi. Kuchning bunday qiymatlarida sterjen o'zining avvalgi holatiga qayta olmaydi.

5.1- shakl.

Befarq muvozanat vujudga keltiruvchi R_{kr} kuch kritik kuch deb ataladi. Aytaylik R_{kr} kuch ta'sirida sterjen malum bir egilgan holatda o'z muvozanatini saqlab turibdi. U holda eguvchi momentni quyidagicha topishimiz mumkin

$$M_x = -P_{kp} \cdot Y$$

Egilgan o'q differentsial

tenglamasini yozamiz:
$$\frac{d^2 Y}{dz^2} = -\frac{P_{kr} \cdot Y}{EJ_x}$$

$$k^2 = \frac{P_{kr}}{EJ_x} - \text{belgilash kiritib quyidagini hosil qilamiz. } \frac{d^2 Y}{dz^2} + k^2 Y = 0;$$

Bu tenglamaning yechimi quyidagicha izlanadi:

$$Y = C_1 \sin kz + C_2 \cdot \cos kz;$$

Integrallash doimiylari S_1 va S_2 chegara shartlaridan aniqlanadi:

$$z = 0; Y = 0; \rightarrow C_2 = 0 \quad z = l; Y = 0; \rightarrow C_1 \sin kl = 0 \quad (1)$$

(1) munosabatda $S_1=0$ bo'lishi mumkin emas, chunki bunda sterjen to'g'ri chiziqli holatni egallaydi va bu masala shartiga ziddir. Demak: $\sin kl=0$;

Bu shart faqatgina $kl=0$ bo'lganda bajariladi. Bu tenglama cheksiz ko'p echimga ega $(0, \pi, 2\pi, \dots, n\pi) \cdot k$ ning qiymatini o'rniga qo'yib quyidagini yozishimiz mumkin:


$$l \sqrt{\frac{P_{kr}}{EJ_x}} = 0;$$

Bu tenglama ildizlaridan R_{kr} eng kichik bo'ladigan qiymatini olishimiz kerak. Eng kichik ildiz 0 ni qabul qilish mumkin emas, chunki unda masala yana o'z mohiyatini yo'qotadi. Demak π ni qabul qilamiz:

$$l \sqrt{\frac{P_{kr}}{EJ_x}} = \pi \quad \text{Bu munosabatdan kritik kuch } R_{kr} \text{ ni topamiz: } P_{kr} = \frac{\pi^2 EJ_x}{l^2};$$

Bu formula Eyler formulasi deb ataladi. Kritik normal kuchlanishni topamiz:

$$\sigma_{kp} = \frac{P_{kr}}{A} = \frac{\pi^2 EJ_x}{l^2 \cdot A};$$




STERJENNI USTIVORLIKKA HISOBLASH

Sterjenni maxkamlash turi o'zgarsa kritik kuchning qiymati ham o'zgaradi. Bir uchi qistirib maxkamlangan sterjenni ko'rib chiqaylik (5.2 -shakl).

Bu sterjenni qistirib maxkamlangan tomonini hayolan davom ettirib quyidagini yozamiz:

$$P_{kr} = \frac{\pi^2 EJ_x}{(2l)^2} = \frac{\pi^2 \cdot EJ_x}{4l^2};$$

Ko'rinib turibdiki, maxkamlash turi o'zgarsa Euler formulasidagi l ning qiymati o'zgarar ekan. Sterjen siqilinganda ustivorligini bikrligining eng kichik joyidan yo'qotishini e'tiborga olib Euler formulasini quyidagi ko'rinishda yozamiz:



$$P_{kr} = \frac{\pi^2 EJ_{\min}}{(\vartheta l)^2}$$

5.2-shakl.

Bu yerda $J_{\min}$ -minimal inertsia momenti (sterjenning bikrligi eng katta kesimidagi inertsia momenti). ϑ –sterjenni maxkamlash turiga bog'liq koeffitsient. Ikki sharnirli sterjen uchun ($\vartheta=1$, bir tomoni qistirib maxkamlangan sterjen uchun $\vartheta=2$, ikkala uchi ham maxkamlangan sterjen uchun $\vartheta=0,5$, bir uchi qistirib maxkamlangan va bir uchi sharnirli sterjen uchun $\vartheta=0,7$).

Kritik kuchlanish quyidagi munosabatdan topiladi:

$$\sigma_{kp} = \frac{P_{kp}}{A} = \frac{\pi^2 EJ_{\min}}{(\vartheta l)^2 \cdot A} = \frac{\pi^2 r_{\min}^2}{(\vartheta l)^2}$$

Bu yyerda $r_{\min} = \sqrt{\frac{r_{\min}}{A}}$ -minimal inertsia radiusi.

Sterjenni ustivorlikka quyidagi ikkita shartdan tekshiriladi:

1. Mustahkamlik sharti: $\frac{P}{A} \leq [\sigma]$
2. Ustivorlik sharti: $\frac{P}{A} \leq [\sigma_y]$

MASHINA VA MEXANIZMLAR NAZARIYASI

19.MAVZU

MEXANIZM VA MASHINALARNING TUZILISHI VA TURLARI.

Reja:

- 1.Mexanizm va mashinalarning tuzilishi va turlari.
- 2.Kinematik zanjirlar va ularning turlari.
- 3.Mexanizmlarning tuzilish taxlili.

Adabiyotlar: 15,16,17,18.

Tayanch iboralar: mexanika, mashinasozlik, mashina, mexanizm, zveno, kinematik juft, oliy va qo'yi kinematik juft, kinematik zanjir, erkinlik darajasi, Assur guruhlar, harakatchanlik darajasi.

Kundalik turmushimizni mashinalarsiz tasavvur qilish qiyin. Xo'sh, mashina o'zi nima? Mashinaga umumiy holda quyidagicha ta'rif berish mumkin: **mashina** – energiya va harakatni o'zgartiruvchi, axborot to'plovchi va qayta ishlovchi, ishlab chiqarish samaradorligini oshiruvchi, aqliy va jismoniy mehnatni yengillashtiruvchi Qyrima. Mashinalarni asosiy uch turga bo'lish mumkin:

- 1.Energetik mashinalar – bir turdagi energiyani boshqa bir turga aylantiradi (generatorlar, dvigatellar, bug' turbinasi va x.k.).
- 2.Texnologik mashinalar – shakl va holat o'zgartiradi (dastgohlar, burg'ulash qyrimasi, transporterlar va x.k.).
- 3.Axborot mashinalari – axborot to'playdi, qayta ishlaydi, hisoblaydi va boshqaradi (hisoblash va boshqarish mashinalari).

Barcha mashinalar mexanizmlardan iborat bo'ladi. **Mexanizm** – mashinaning ma'lum bir harakatni amalga oshiruvchi yoki bir turdagi harakatni boshqa bir turdagi harakatga aylantiruvchi qismidir Mashina va mexanizmlarga quyidagicha asosiy talablar qo'yiladi:

- 1.Ishga yaroqlilik – berilgan funksiyani tegishli me'yorlarga muvofiq bajara olish qobiliyati;
- 2.Ishonchlilik – o'z vazifasini ko'rsatilgan muddat davomida barcha ko'rsatkichlarini me'yorda saqlagan holda bajara olishi;
- 3.Tejamlilik – sarflanadigan harajatlarning iloji boricha kam bo'lishligi;
- 4.Texnologik talablar – ishlab chiqarish, ishlatish va ta'mirlashning oson bo'lishi;
- 5.Ergonomik talablar – tashqi ko'rinishning chiroyli bo'lishi.

Mexanizmlarning tuzilishi. Mexanizmlarni qo'yidagi asosiy turlarga bo'lish mumkin:


- 1.Dastakli mexanizmlar;
- 2.Mushtchali mexanizmlar;
- 3.Tishli g'ildirakli mexanizmlar;
- 4.Vintli va ponali mexanizmlar;
- 5.Friksion mexanizmlar;
- 6.Egiluvchan zvenoli mexanizmlar;
- 7.Gidravlik va pnevmatik mexanizmlar;
- 8.Elektrik mexanizmlar.

Mexanizm – bir – biri bilan bog'langan jismlar tizimidan iboratdir. Ana shu jismlar zvenolar deb ataladi. Zveno – bir yoki bir necha detallarning mahkam birikmasi bo'lib, oddiy zveno bitta detaldan, murakkab zveno esa bir necha detallarni mahkam birlashtirilishidan hosil (masalan payvandlash, bolt bilan qotirish va x.k.) bo'ladi.

Zvenolarni quyidagi asosiy turlarga bo'lish mumkin:


- 1.Krivoship – aylanma harakat qiluvchi zveno;
- 2.Polzun – ilgarilanma - qaytma harakat qiluvchi zveno;

3. Shatun – tekis parallel harakat qiluvchi zveno;
4. Koromislo – tebranma harakat qiluvchi zveno;
5. Kulisa – ilgari lanma – qaytma harakatga yo`naltiruvchi zveno;
6. Kulisa toshi – murakkab harakat qiluvchi zveno;
7. Tayanch – qo`zg`almas zveno.




6.1.–shaklda ba'zi bir mexanizmlarning sxematik tasvirlari va zvenolarining nomlari keltirilgan. Krivoship-polzunli mexanizm.

- 1 – krivoship;
- 2 – shatun;
- 3 – polzun;
- 4 – tayanch.



- 1 – krivoship;
- 2 – shatun;
- 3 – koromislo;
- 4 – tayanch.



4-sharnirli mexanizm.

Kulisali mexanizm.

- 1 – krivoship;
- 2 – kulisa;
- 3 – tosh;
- 4 – tayanch.

6.1. – shakl.

Mexanizm tarkibidagi zvenolar bir – biri bilan harakatchan birikib kinematik juft hosil qiladi. Demak, kinematik juft – ikki zvenoning harakatchan birikishidir. Birikish turiga qarab kinematik juftlar ikki xil bo'ladi:

1. Quyi kinematik juft – ikki zveno bir-biri bilan yuza orqali birikkan hol;
2. Oliy kinematik juft – ikki zveno bir-biri bilan nuqta yoki chiziqli orqali birikkan hol.

Stol ustidagi shar yoki stol ustidagi silindr oliy kinematik juftga, krivoship va tayanch yoki polzun va shatun birikishini quyi kinematik juftga misol qilib ko'rsatish mumkin.

Erkin zvenolar birikkanda bir – birlarining qandaydir harakatlarini cheklaydi. Mana shu cheklanishlar **bog'lanish shartlari** deb ataladi. Bog'lanish shartlari sonini S

bilan belgilasak va erkin zvenoning fazoda oltita harakati borligini e'tiborga olsak, kinematik juftning erkinlik darajasi quyidagicha topilishi mumkin:

$H = 6 - S$ Bog'lanish shartlari 1 dan 5 gacha bo'lishi mumkin. Agar $S = 6$ bo'lsa, $N = 0$ bo'ladi va kinematik juft bitta zvenoga aylanadi.

Bog'lanish shartlari soniga qarab kinematik juftlar 5 sinfga bo'linadi. Kinematik juftning sinfi bog'lanish shartlari soniga teng va I, II, III, IV, V deb belgilanadi. 6.2 – shaklda ba'zi kinematik juftlarning sxematik tasviri va sinfi keltirilgan.

KINEMATIK ZANJIRLAR

Kinematik zanjir – kinematik juftlar hosil qilib birikkan zvenolar tizimidir. Kinematik zanjirlar tarkibiga kirgan zvenolarga qarab oddiy yoki murakkab, zvenolarning birikish tizimiga qarab ochiq yoki yopiq bo'lishi mumkin.

Kinematik zanjirning erkinlik darajasini topishni ko'rib chiqaylik. Kinematik zanjir tarkibiga kirishi lozim bo'lgan zvenolar sonini K deb belgilaylik. Erkin zveno fazoda 6 ta harakatga ega bo'lishini e'tiborga olsak, K ta zvenoning kinematik juftga kirmasligidan oldingi umumiy erkinlik darajasi $6(K)$ bo'ladi. Agar K ta zvenodan tuzilgan kinematik zanjir tarkibida yuqorida aytilgan I, II, III, IV, V sinf kinematik juftlar bor deb faraz qilsak va ularning sonini mos ravishda R_1, R_2, R_3, R_4, R_5 harflari bilan belgilasak, u holda kinematik zanjirning umumiy erkinlik darajasini quyidagicha topish mumkin bo'ladi: $N = 6K - 5R_5 - 4R_4 - 3R_3 - 2R_2 - R_1$

bu yerda: N – kinematik zanjirning erkinlik darajasi;

K – kinematik zanjir tarkibiga kiruvchi zvenolar soni;

R_1, R_2, R_3, R_4, R_5 mos ravishda I, II, III, IV, V sinf kinematik juftlar soni.

Shar – tekislik, I – sinf;

Shar – silindr, II – sinf;

Sferik sharnir, III – sinf;

Tekislik – tekislik, III – sinf;

Silindr – silindr, IV – sinf;


Ilgarilanma, V – sinf;

Aylanma,

V – sinf;

Vintli, V – sinf.

6.2 – shakl.



Agar kinematik zanjir tekislikda bo'lsa, u holda zanjirning erkinlik darajasi quyidagicha topiladi:

$$N = 3K - 2R_5 - R_4$$

Odatda texnikada uchraydigan kinematik zanjirlar tarkibiga kiruvchi zvenolarning bittasi qo'zg'almas bo'ladi va bu zveno fazoda oltita harakatini yo'qotsa, tekislikda 3 ta harakatini yo'qotadi. SHu sababdan bitta zvenosi qo'zg'almas kinematik zanjirning qo'zg'aluvchanlik darajasi quyidagicha topiladi:

$$W = 6(K - 1) - 5R_5 - 4R_4 - 3R_3 - 2R_2 - R_1$$

$K - 1 = p$ deb olsak, yuqoridagi fomula quyidagi ko'rinishga keladi:

$$W = 6n - 5R_5 - 4R_4 - 3R_3 - 2R_2 - R_1$$

bu yerda: W – bir zvenosi qo'zg'almas bo'lgan kinematik zanjirning qo'zg'aluvchanlik darajasi; p – kinematik zanjirdagi qo'zg'aluvchan zvenolar soni.

Bu formula Somov – Malshev formulasi deb ataladi.

Tekislikdagi kinematik zanjirlar uchun qo'zg'aluvchanlik darajasini topish formulasi P.L.Chebishev tomonidan taklif etilgan bo'lib, bu formula quyidagi ko'rinishga ega:

$$W = 3n - 2R_5 - R_4$$

MEXANIZMLARNING TUZILISH TAHLILI

Mexanizmlarni tuzilish jihatidan tahlil qilishda ilgarigi mavzuda ko'rib o'tilgan Somov – Malshev va Chebishev formulalaridan foydalanib mexanizmning qo'zg'aluvchanlik darajasi topiladi. Mexanizmning qo'zg'aluvchanlik darajasi nechaga teng chiqsa, mexanizmning shuncha zvenosiga oldindan ma'lum bir qonun asosida harakat berilish zarur bo'ladi. Shundagina mexanizmning qolgan zvenolari muayyan qonun asosida davriy harakatda bo'ladi. Yuqoridagi mavzuda yuritilgan mulohazalardan mexanizmga quyidagicha boshqacha ta'rif berish mumkin:

Kinematik zanjir tarkibiga kiruvchi qo'zg'almas biror zvenoga nisbatan bir yoki bir necha zveno muayyan tartibda harakatlanganda zanjirning qolgan zvenolari ham ma'lum tartibda harakat qilsa, bunday kinematik zanjir mexanizm deb ataladi.


Mexanizmni tuzilish jihatidan tahlil qilishda faqatgina uning qo'zg'aluvchanlik darajasini topish aniq maqsadga olib kelmaydi, binobarin bunda mexanizmni kinematik va kinetostatik tahlil qilish usullarini tanlash mavxum bo'lib qoladi. Shuning uchun mexanizmni tuzilish tahlilida uning qo'zg'aluvchanlik darajasini topishdan tashqari sinfi va tartibi ham aniqlanishi zarur. Bu borada ko'pgina olimlar ish olib borishgan va turlicha mulohazalar bildirishgan. L. V. Assur tomonidan mexanizmni tuzilish jihatidan tahlil qilishda uni statik aniq guruhlariga bo'laklash taklif etilgan. Uning taklifiga ko'ra mexanizm boshlang'ich zvenolarga qo'zg'aluvchanlik darajasi 0 ga teng bo'lgan statik aniq guruhlarini qo'shishdan hosil qilinadi. Bu guruhlar Assur guruhlari deb ataladi. Assur guruhlaridagi zvenolar soni quyidagi shartdan topiladi:

$$W = 3n - 2R = 0$$

bu yerda n – guruhdagi zvenolar soni; R – guruhdagi kinematik juftlar soni.

Yuqoridagi formuladan quyidagini topamiz: $R = 3/2n$

Demak Assur guruhidagi zvenolar soni doimo juft bo'lishi kerak, chunki kinematik juftlar soni faqat butun son bo'ladi. 6.3 – shaklda Assur guruhlarining ba'zi bir turlari keltirilgan.



Shartli I – sinf

II – sinf, II – tartibli,

II – sinf, II – tartibli,


mexanizm;

I – tur;


II – tur;

II – sinf,

III – sinf,



II – tartibli,




III – tartibli,

III – tur .

6.3 – shakl.

Endi quyidagi krivoship – polzunli mexanizm misolida mexanizmni tuzilish tahlilini ko'rib chiqaylik. Bunda mexanizmning o'lchamlari va holati ahamiyat kasb etmaganligi sababli ularni ixtiyoriy olamiz. 6.4 – shaklda mexanizmning sxematik tasviri keltirilgan.



6.4- shakl.

Mexanizm tekislikda harakatlanadigan mexanizm bo'lgani uchun (tekis mexanizm) Chebishev formulasidan foydalanib qo'zg'aluvchanlik darajasini topamiz.

$$W = 3n - 2R_5 - R_4$$

Umumiy zvenolar soni 4 ta bo'lib ulardan bittasi qo'zg'almas – tayanch, demak:

$$p = 3$$


V – sinf kinematik juftlar soni 4 ta:

O nuqtada 1 va 4 zvenolar, A nuqtada 1 va 2 zvenolar, B nuqtada 2 va 3 zvenolar aylanma kinematik juftlar hosil qiladi, yana shu B nuqtada 3 va 4 – zvenolar ilgarilanma – qaytma kinematik juft hosil qiladi. IV – sinf kinematik juftlar yo`q, u holda yuqoridagi formuladan quyidagini topamiz:

$$W = 3 \times 3 - 2 \times 4 = 1$$

Demak berilgan mexanizmning qo`zg`aluvchanlik darajasi birga teng bo`lib, uning bitta zvenosiga aytaylik, krivoshipga aylanma harakat berilsa, shatun davriy tekis parallel harakatda polzun esa davriy ilgarilanma – qaytma harakatda bo`ladi.

Endi mexanizmni Assur guruhlariga bo`laklab uning sinfi va tartibini aniqlaymiz (6.5 – shakl):



II – sinf, II – tartibli; Shartli 1 – sinf mexanizmi.

6.5 – shakl.

Mexanizmning sinfi va tartibi uning tarkibiga kirgan Assur guruhlarining eng yuqori sinfi bilan belgilanadi. Demak, berilgan mexanizm II – sinf, II – tartibli mexanizm ekan.

20.MAVZU

MEXANIZMLARNI KINEMATIK TAHLIL QILISH.

REJA:

- 1.Mexanizmlarni kinematik tahlil qilish turlari, kinematik tahlilning maqsadi.
- 2.Mexanizmning tezliklar planini ko`rish.
- 3.Mexanizmning tezlanishlar planini ko`rish.

Adabiyotlar: 15,16,17,18.

Tayanch iboralar: kinematika, analitika, grafik kinematika, grafoanalitik, kinematika, tezliklar plani, qytb, tezlik masshtabi, tezlanish masshtabi, normal tezlanish, urinma tezlanish.

Mexanizmlarni kinematik tahlil qilishda masala shartiga qarab uning ma`lum bir holati yoki bir necha holati uchun kinematik tavsiflari noma`lum bo`lgan nuqta va zvenolarning kinematik tavsiflari – tezlik va tezlanishlari, burchak tezlik va burchak tezlanishlari topiladi.


Mexanizmlar asosan 4 usulda kinematik tahlil qilinadi:

1. Analitik usul – bunda mexanizm analitik formulalar yordamida kinematik tahlil qilinadi;
2. Grafik usul – bu usulda mexanizmni kinematik tahlil qilishda kinematik diagrammalardan foydalaniladi;
3. Grafoanalitik usul – bunda mexanizm tezlik va tezlanish planlari qu`rish, hamda analitik formulalardan foydalanib tahlil qilinadi;
4. Eksperimental, ya`ni tajriba usuli – bu usulda tayyor mexanizmlarning kinematik tavsifi asboblari yordamida yozib olish yo`li bilan tahlil qilinadi.


Yuqoridagi usullardan keng ishlatiladigan grafoanalitik usul bilan tanishib chiqaylik. Bu usul o`zining soddaligi bilan ajralib tursada, katta bir kamchilikka ega. Tezliklar va tezlanishlar planlarini qu`rishda chizma tekisligi yetarlicha katta bo`lishi va planlarni chizish, shuningdek, o`lchash ishlari katta aniqlik bilan bajarilishi talab etiladi. Chizma tekisligi qancha kichik bo`lsa, yo`l qo`yilishi mumkin bo`lgan xatolik shuncha katta bo`ladi.

MEXANIZMNING TEZLIKLAR PLANINI QURISH

Quyida 4 zvenoli mexanizm misolida grafoanalitik usulda kinematik tahlil qilishni ko`rib chiqamiz. 7.1 – shaklda mexanizmning sxemasi va o`lchamlari keltirilgan.



7.1 – shakl.



7.2 – shakl.

Krivoshipning vertikal tik turgan holati uchun mexanizmni kinematik tahlil qilish talab etilgan bo'lsin.

Mexanizmning kinematik sxemasini chizamiz, buning uchun uzunlik masshtabi tanlaymiz:

$$\mu_l = \frac{l_{OA}}{O_1A} \quad \left[\frac{M}{MM} \right]$$

bu yerda: $\overline{O_1A} - l_{OA}$ ning chizmadagi kattaligi bo'lib chizma tekisligi o'lchamlariga qarab ixtiyoriy tanlab olinadi.

Endi qolgan o'lchamlarning masshtab kattaligini aniqlaymiz:

$$\overline{AB} = \frac{l_{AB}}{\mu_l}, \quad MM; \quad \overline{O_2B} = \frac{l_{O_2B}}{\mu_l}, \quad MM; \quad \overline{O_1O_2} = \frac{l_{O_1O_2}}{\mu_l}, \quad MM;$$

Mexanizmning kinematik sxemasini qurish uchun dastavval gorizontaal chiziq o'tkazib unda O_1O_2 masofani belgilaymiz va O_1 nuqtadan vertikal chiziq o'tkazib unga krivoshipning uzunligi O_1A ni qo'yamiz. So'ngra sirkul yordamida A nuqtadan AB kattalikda, O_2 nuqtadan O_2B kattalikda yo'ylar chizamiz va bu yo'ylar kesishgan nuqtada B nuqtani topamiz (7.2 – shakl).

Endi tezliklar planiniqurish yordamida tezligi va burchak tezligi noma'lum bo'lgan nuqta va zvenolarning tezligi va burchak tezliklarini topishga kirishamiz. Dastavval masala shartida berilganlardan foydalanib A nuqtaning tezligini topamiz:

$$g_A = \omega_1 \cdot l_{O_1A}, \quad \left[\frac{M}{S} \right] \text{ Tezlik masshtabini tanlaymiz: } \mu_g = \frac{g_A}{Pa}, \quad \left[\frac{M/S}{MM} \right]$$

bu yyerda: $\overline{Pa} - g_A$ ning chizmadagi uzunlik birligidagi kattaligi bo'lib chizma tekisligiga qarab ixtiyoriy tanlab olinadi.

Chizma tekisligida ixtiyoriy nuqta olib $\overline{g_A}$ ning yo'nalishi bo'yicha, ya'ni O_1A ga perpendikulyar qilib ω_1 tomonga $\overline{Pa}$ ni yo'naltiramiz. V nuqta tezligi uchun quyidagi tenglamalar sistemasini yozamiz:

$$\begin{cases} \overrightarrow{g_B} = \overrightarrow{g_A} + \overrightarrow{g_{BA}} \\ \overrightarrow{g_B} = \overrightarrow{g_{O_2}} + \overrightarrow{g_{BO_2}} \end{cases}$$

Ushbu tenglamalar sistemasini grafik usulda echib tezliklar planida v nuqtani hosil qilamiz. Buning uchun $\overline{g_A}$ vektorning oxiridan (chizmada $\overline{Pa}$ vektorning oxiridan)

$\overrightarrow{g_{BA}}$ vektor yo'nalishini (bu vektor AB ga perpendikulyar yo'naladi) o'tkazamiz, lekin bu vektorning qaysi tomonga yo'nalishi va qanchaligi xozircha noma'lum qoladi. Endi

sistemaning ikkinchi tenglamasini grafik usulda echishga o'tamiz. $\vec{g}_{O_2}$ vektorning oxiridan (bu vektor 0 ga teng, chunki O_2 nuqta qo'zg'almas) $\vec{g}_{BO_2}$ vektorni yo'naltirishimiz kerak. Tezliklar planida R nuqta tezliklar Qutb deb ataladi va shu nuqtada tezlik 0 ga teng bo'ladi. Shuning uchun $\vec{g}_{BO_2}$ vektorning yo'nalishini R nuqtadan o'tkazamiz, uning yo'nalishi O_2V ga perpendikulyar bo'ladi. $\vec{g}_{BA}$ va $\vec{g}_{BO_2}$ vektorlarning yo'nalishlari kesishgan nuqtada v nuqta yotadi (2.2 – shakl).

Agar masala shartida 2 va 3 – zvenolarning og'irlik markazlari S_2 va S_3 nuqtalarning holatlari ham berilgan bo'lsa, ularning tezliklar planidagi o'rni nisbatdan foydalanib topiladi. Masalan, S_2 nuqta AB ning o'rtasida yotgan bo'lsa tezliklar planida ham av ning o'rtasida yotadi. Aytaylik S_3 nuqta O_2B ning B nuqta tomonidan $1/3$ nisbatdagi qismida yotgan bo'lsa, tezliklar planida S_3 nuqta Pb ning b nuqta tomonidan shunday qismida yotadi (7.2 –shakl). Tezliklar planidan quyidagi noma'lumlarni topamiz:

$$\begin{aligned} g_B &= \overline{Pb} \cdot \mu_g, \quad \text{m/s}; & g_{S_2} &= \overline{PS_2} \cdot \mu_g, \quad \text{m/s}; & g_{S_3} &= \overline{PS_3} \cdot \mu_g, \quad \text{m/s} \\ g_{BA} &= \overline{ab} \cdot \mu_g, \quad \text{m/s}; & g_{BO_2} &= g_B, \quad \text{m/s}; & \omega_2 &= \frac{g_{BA}}{l_{AB}}, \quad \frac{1}{s}; & \omega_3 &= \frac{g_{BO_2}}{l_{BO_2}}, \quad \frac{1}{s}; \end{aligned}$$

Ikkinchi va uchinchi zvenolarning burchak tezliklari ω_2 va ω_3 bilan belgilangan, Pb, ab, PS_2 lar bevosita chizmadan o'lchab olinadi. ω_2 va ω_3 larning yo'nalishlari S_2 va S_3 nuqtalar atrofiga qo'yiladi. ω_2 ning yo'nalishini topish uchun $\vec{g}_{BA}$ vektorni, ω_3 ning yo'nalishini topish uchun esa $\vec{g}_{BO_2}$ vektorni xayolan B nuqtaga qo'yiladi. Bu vektorlarning yo'nalishiga mos ravishda ω_2 va ω_3 ning yo'nalishlari qo'yiladi.

MEXANIZMNING TEZLANISHLAR PLANINI QURISH

Endi tezlanishlar planini qurishga o'tamiz. Dastavval A nuqtaning tezlanishini

$\vec{a}_A = \vec{a}_A + \vec{a}_A$; $\omega_1 = \text{const}$; $\varepsilon_1 = 0$;

$$a_A^r = \varepsilon_1 \cdot l_{OA} = 0; \quad a_A^n = \omega_1^2 \cdot l_{OA}; \quad \text{m/s}^2$$

Demak A nuqtaning tezlanishi faqat normal tashkil etuvchidan iborat bo'lib, uning yo'nalishi O_1A ga parallel va markazga, ya'ni A nuqtadan O_1 nuqta tomonga yo'naladi. Tezlanishlar masshtabini tanlaymiz:

$$\mu_a = \frac{a_A}{\pi a} \left[\frac{\text{m/s}^2}{\text{mm}} \right]$$

Bu yerda: πa ning chizmadagi kattaligi bo'lib, chizma tekisligiga qarab ixtiyoriy tanlab olinadi. Endi chizma tekisligida ixtiyoriy π nuqta tanlab olamiz va πa vektorni yo'naltiramiz. Bu vektor O_1A ga parallel A nuqtadan O_1 nuqtaga qarab yo'naladi. π nuqta tezlanishlar Qytbi deb ataladi va shu nuqtada tezlanish O ga teng bo'ladi (7.2 shakl) V nuqta uchun quyidagi tenglamalar sistemasini tuzamiz.

$$\begin{cases} \vec{a}_B = \vec{a}_A + \vec{a}_{BA} + \vec{a}_{BA} \\ \vec{a}_B = \vec{a}_{O_2} + \vec{a}_{BO_2} + \vec{a}_{BO_2} \end{cases}$$

Birinchi tenglamadagi a_{BA}^n vektorning va ikkinchi tenglamadagi $a_{BO_2}^n$ vektorning modulini quyidagicha topamiz.

$$a_{BA}^n = \frac{v_{BA}^2}{l_{AB}}; m/s^2 \quad a_{BO_2}^n = \frac{g_{BO_2}^2}{l_{O_2B}} m/s^2$$

Bu vektorlarning masshtab kattaliklarini topamiz

$$n_{\theta a} = \frac{a_{BA}^n}{\mu_a} MM; n_{BO_2} = \frac{a_{BO_2}^n}{\mu_a} MM.$$

Endi sistemani echishni grafik usulda davom ettiramiz. Birinchi tenglamaga binoan a_B vektorni topish uchun πa vektor oxiridan a_{ba}^n vektorni, ya'ni uning masshtab kattaligi n_{ba} ni qo'yamiz. Uning yo'nalishi AV ga parallel va V nuqtadan A nuqta tomonga yo'naladi. Bu vektorning oxiridan a_{ba}^{τ} vektorning yo'nalishi chizig'ini o'tkazamiz, uning yo'nalishi AB ga yoki n_{ba} ga perpendikulyar bo'ladi. Ikkinchi tenglamaga binoan a_{O_2} ning oxiridan $a_{bo_2}^n$ vektorning yo'nalishini va kattaligini, ya'ni n_{vo_2} ni qo'yamiz, uning oxiridan esa $a_{BO_2}^{\tau}$ vektorning yo'nalish chizig'ini o'tkazamiz. Bu vektorlarni yo'nalishi birinchi tenglamadagi mulohazalardan foydalanib o'tkaziladi. a_{BA}^{τ} va $a_{BO_2}^{\tau}$ vektorlarning yo'nalish chiziqlari kesishgan nuqtada biz izlagan b nuqta yotadi. S_2 va S_3 nuqtalarning tezlanishlar planidagi holati tezliklar plani qurishda yuritilgan mulohazalardan foydalanib topiladi.

Tezlanishlar planidan quyidagi noma'lumlarni aniqlaymiz:

$$a_B = \pi b \cdot \mu_a m/s^2; \quad a_{BO_2} = a_B; \quad \varepsilon_3 = \frac{a_{BO_2}^{\tau}}{l_{BO_2}} \frac{1}{s^2}.$$

$$a_{BA}^{\tau} = \tau_{\theta a} \cdot \mu_a m/s^2; \quad a_{S_2} = \pi_{S_2} \cdot \mu_a m/c^2;$$

$$a_{BA} = a_{\theta} \cdot \mu_a m/c^2; \quad a_{S_3} = \pi_{S_3} \cdot \mu_a m/c^2;$$

$$a_{BO_2}^{\tau} = \tau_{BO_2} \cdot \mu_a m/sc^2; \quad \varepsilon_2 = \frac{a_{BA}^{\tau}}{l_{AB}} \frac{1}{s^2};$$

$\pi b, \tau_{\theta a}, a_{\theta}, \tau_{\theta O_2}, \pi_{S_2}, \pi_{S_3}$ lar bevosita chizmadan o'lchab olinadi. ε_2 va ε_3 lar ikkinchi va uchinchi zvenolarning burchak tezlanishlari bo'lib, ularning yo'nalishi $\tau_{\theta a}$ va $\tau_{\theta O_2}$ vektorlarni xayolan B nuqtaga qo'yish orqali aniqlanadi. Bu urinma tezlanish vektorlari qaysi tomonga yo'nalsa burchak tezlanishlari ham usha tomonga yo'naladi.

16.5 Relative-Motion Analysis: Velocity




Fig. 16-11



The general plane motion of a rigid body can be described as a combination of translation and rotation. To view these "component" motions *separately* we will use a *relative-motion analysis* involving two sets of coordinate axes. The x, y coordinate system is fixed and measures the *absolute* position of two points A and B on the body, here represented as a bar, Fig. 16-11a. The origin of the x', y' coordinate system will be attached to the selected "base point" A , which generally has a *known* motion. The axes of this coordinate system *translate* with respect to the fixed frame but do not rotate with the bar.


Position. The position vector $\mathbf{r}_A$ in Fig. 16-11a specifies the location of the “base point” A , and the relative-position vector $\mathbf{r}_{B/A}$ locates point B with respect to point A . By vector addition, the *position* of B is then

$$\mathbf{r}_B = \mathbf{r}_A + \mathbf{r}_{B/A}$$

Displacement. During an instant of time dt , points A and B undergo displacements $d\mathbf{r}_A$ and $d\mathbf{r}_B$ as shown in Fig. 16-11b. If we consider the general plane motion by its component parts then the *entire bar first translates* by an amount $d\mathbf{r}_A$ so that A , the base point, moves to its *final position* and point B moves to B' , Fig. 16-11c. The bar is then *rotated* about A by an amount $d\theta$ so that B' undergoes a *relative displacement* $d\mathbf{r}_{B/A}$ and thus moves to its final position B . Due to the rotation about A , $d\mathbf{r}_{B/A} = r_{B/A} d\theta$, and the displacement of B is

$$\begin{array}{lcl} d\mathbf{r}_B = & d\mathbf{r}_A + & d\mathbf{r}_{B/A} \\ | & | & | \\ & \text{due to translation of } A & \text{due to rotation about } A \\ \text{due to translation and rotation} & & \end{array}$$





The crankshaft AB turns with a clockwise angular acceleration of 20 rad/s^2 , Fig. 16-31a. Determine the acceleration of the piston at the instant AB is in the position shown. At this instant $\omega_{AB} = 10 \text{ rad/s}$ and $\omega_{BC} = 2.43 \text{ rad/s}$. (See Example 16.12.)

SOLUTION (VECTOR ANALYSIS)

Kinematic Diagram. The kinematic diagrams for both AB and BC are shown in Fig. 16-31b. Here $\mathbf{a}_C$ is vertical since C moves along a straight-line path.

Acceleration Equation. Expressing each of the position vectors in Cartesian vector form

$$\mathbf{r}_B = \{-0.25 \sin 45^\circ \mathbf{i} + 0.25 \cos 45^\circ \mathbf{j}\} \text{ ft} = \{-0.177 \mathbf{i} + 0.177 \mathbf{j}\} \text{ ft}$$

$$\mathbf{r}_{C/B} = \{0.75 \sin 13.6^\circ \mathbf{i} + 0.75 \cos 13.6^\circ \mathbf{j}\} \text{ ft} = \{0.177 \mathbf{i} + 0.729 \mathbf{j}\} \text{ ft}$$

Crankshaft AB (rotation about a fixed axis):

$$\begin{aligned} \mathbf{a}_B &= \boldsymbol{\alpha}_{AB} \times \mathbf{r}_B - \omega_{AB}^2 \mathbf{r}_B \\ &= (-20 \mathbf{k}) \times (-0.177 \mathbf{i} + 0.177 \mathbf{j}) - (10)^2(-0.177 \mathbf{i} + 0.177 \mathbf{j}) \\ &= \{21.21 \mathbf{i} - 14.14 \mathbf{j}\} \text{ ft/s}^2 \end{aligned}$$

Connecting Rod BC (general plane motion): Using the result for $\mathbf{a}_B$ and noting that $\mathbf{a}_C$ is in the vertical direction, we have

$$\begin{aligned} \mathbf{a}_C &= \mathbf{a}_B + \boldsymbol{\alpha}_{BC} \times \mathbf{r}_{C/B} - \omega_{BC}^2 \mathbf{r}_{C/B} \\ a_C \mathbf{j} &= 21.21 \mathbf{i} - 14.14 \mathbf{j} + (\alpha_{BC} \mathbf{k}) \times (0.177 \mathbf{i} + 0.729 \mathbf{j}) - (2.43)^2(0.177 \mathbf{i} + 0.729 \mathbf{j}) \\ a_C \mathbf{j} &= 21.21 \mathbf{i} - 14.14 \mathbf{j} + 0.177 \alpha_{BC} \mathbf{j} - 0.729 \alpha_{BC} \mathbf{i} - 1.04 \mathbf{i} - 4.30 \mathbf{j} \\ 0 &= 20.17 - 0.729 \alpha_{BC} \\ a_C &= 0.177 \alpha_{BC} - 18.45 \end{aligned}$$

Solving yields

$$\alpha_{BC} = 27.7 \text{ rad/s}^2 \curvearrowright$$

$$a_C = -13.5 \text{ ft/s}^2$$

Ans.




Fig. 16-31

NOTE: Since the piston is moving upward, the negative sign for a_C indicates that the piston is decelerating, i.e., $\mathbf{a}_C = \{-13.5 \mathbf{j}\} \text{ ft/s}^2$. This causes the speed of the piston to decrease until AB becomes vertical, at which time the piston is momentarily at rest.

21.MAVZU

MEXANIZMLAR DINAMIKASI. KINETOSTATIKA.

Reja:

- 1..Mexanizmlarga ta'sir qiluvchi kuchlar.
- 2.Mashina agregatining harakat tenglamasi.
- 3.Mexanizmlarni kinetostatik tahlil qilish.
- 4.Muvozanatlovchi kuchni N. E. Jukovskiy usuli bilan topish.

Adabiyotlar: 15,16,17,18.

Tayanch iboralar: harakatlantiruvchi kuchlar, foydali qarshilik kuchlari, zararli qarshilik kuchlari, inersiya kuchlari, og'irlik kuchlari, harakat davrlari, yurgizib yuborish davri, barqaror ishlash davri, to'xtatish davri, kinetostatika, kuch masshtabi, kuch ko'pburchagi, muvozanatlovchi kuch, N.E.Jukovskiy usuli.

Mashina va mexanizmlarning chidamliligini oshirish, sarflanadigan xom ashyo va harakatga keltirish uchun zarur bo'lgan energiyani tejash, eng muhim mashinalarning ish unumini oshirishda ularning dinamikasini o'rganish muhim o'rin tutadi.

Mashinaga ta'sir qiluvchi kuchlar asosan quyidagi turlarga bo'linadi:

1. *Harakatlantiruvchi kuchlar* – bu kuchlarning yo'nalishi tezlik yo'nalishida bo'lib ularning bajargan ishi doimo musbat bo'ladi. Masalan ichki yonuv dvigatelida silindr ichidagi gazning porshenga bosim kuchini xarakterlanuvchi kuch ekanini ko'rsatish mumkin:

2. *Foydali qarshilik kuchlari* – mashina texnologik jarayonni amalga oshirishida paydo bo'ladigan kuchlar. Masalan metal yoki yog'ochni qirqichda paydo bo'ladigan kuchlarni foydali qarshilik kuchlari deyish mumkin;

3. *Zararli qarshilik kuchlari* - bu kuchlar mashinaning harakati davomida kinematik juftlar orasidagi ishqalanish kuchlari yoki tashqi muxit ta'sir kuchlaridir (masalan havo, suv va x. k);

4. *Og'irlik kuchlari* - mashina qismlarining, zvenolarining og'irligidan paydo bo'ladi;

5. *Inertsia kuchlari* – tezlikning o'zgarishida zvenolarda paydo bo'ladigan kuchlar;

6. *Elastiklik kuchlari* – bu kuchlar zvenolarning deformatsiyalanishi natijasida vujudga keladi.

Yuqoridagi kuchlardan foydali qarshilik kuchlari, zararli qarshilik kuchlari va inertsia kuchlarining bajargan ishlari doimo manfiy bo'ladi. Og'irlik va elastiklik kuchlari davriy harakatda ham musbat, ham manfiy bo'lishi mumkin. Shu sababdan davriy harakatdagi ba'zi mashinalarni hisoblashda ular e'tiborga olinmaydi.

MASHINA AGREGATINING HARAKAT TENGLAMASI. HARAKAT DAVRLARI

Mashinaning harakat tenglamasini jonli kuchlar, yani kinetik energiya orqali ifodalash mumkin. Kinetik energiyaning o'zgarishi barcha kuchlarning bajargan ishlarining yig'indisiga teng bo'ladi. Moddiy nuqta uchun:

$$\frac{m_i v_i^2}{2} - \frac{m_i v_0^2}{2} = W_i$$

Sistema uchun quyidagini yozish mumkin:

$$\sum_{i=1}^n \frac{m_i V_i^2}{2} - \sum_{i=1}^n \frac{m_i V_0^2}{2} = \sum_{i=1}^n \int p \cdot ds \cos(p \wedge ds);$$

yoki

$$\sum_{i=1}^n \frac{m_i V_i^2}{2} - \sum_{i=1}^n \frac{m_i V_0^2}{2} = W_h - W_{fq} - W_{zq} - W_i \pm W_G \pm W_e$$

Bu yerda:

W_h - harakatlantiruvchi kuchlarning bajargan ishi;

W_{fq} - foydali qarshilik kuchlarining bajargan ishi;

$W_{z,q}$ - zararli qarshilik kuchlarning bajargan ishi;

W_G - og'irlik kuchlarning bajargan ishi;

W_u - inertsia kuchlarining bajargan ishi;

W_e - elastiklik kuchlarining bajargan ishi.

Agar mashinani davriy harakatda deb qarab, og'irlik va elastiklik kuchlarini bajargan umumiy ishini 0 ga teng deb olsak va inertsia kuchlarini zararli qarshilik kuchlari bilan birga hisoblasak yuqoridagi tenglama quyidagi ko'rinishga keladi:

$$\sum_{i=1}^n \frac{m_i V_i^2}{2} - \sum_{i=1}^n \frac{m_i V_0^2}{2} = W_h - W_{fq} - W_{zq}$$


Bu tenglama mashinaagregatining asosiy tenglamasidir. Bu tenglama mashinaagregatining harakat davrlariga qarab quyidagi ko'rinishlarni olishi mumkin.

Mashinaagregatining harakatini uchta asosiy davrga bo'lish mumkin:

1. Mashinani yurgizib yuborish davri t_1 (0-a) (8.1 – shakl);
2. Mashinaning barqaror ishlash davri t_2 (a-b);
3. Mashinaning to'xtatish davri t_3 (b-s).

Mashinani yurgizib yuborish davrida boshlang'ich tezlik 0 ga teng bo'ladi, yani $V_0 = 0$ u holda quyidagini yozaolamiz:

$$\sum_{i=1}^n \frac{m_i V_0^2}{2} = 0$$



8.1- shakl.

Mashina agregatining harakat tenglamasi quyidagi ko'rinishga keladi:

$$\sum_{i=1}^n \frac{m_i V_i^2}{2} = W_h - W_{fq} = W_{zq} \text{ yoki } W_h = W_{fq} + W_{zq} + \sum_{i=1}^n \frac{m_i V_i^2}{2}$$

Demak, mashinani yurgizib yuborish davrida harakatlantiruvchi kuchlar bajargan ish zararli va foydali qarshilik kuchlari bajargan ishdan katta bo'lishi zarur, chunki harakatlantiruvchi kuchlar bajargan ishning bir qismi mashina harakatlanuvchi qismlarini normal tezlikka erishuvini ta'minlashga sarflanishi kerak bo'ladi.

Mashinaning barqaror ishlash davrida tezlik o'zgarmas bo'ladi, yani: $V_0 = V_i = V$ bundan kinetik energiyaning orttirmasi 0 ga tengligi kelib chiqadi:

$$\sum_{i=1}^n \frac{m_i V_i^2}{2} - \sum_{i=1}^n \frac{m_i V_0^2}{2} = 0$$

U holda mashina agregatining harakat tenglamasi quyidagi ko'rinishni oladi:

$$W_x - W_{fq} - W_{z,q} = 0 \quad \text{yoki} \quad W_h = W_{f,q} + W_{z,q}$$

Demak, mashinaning barqaror ishlash davrida harakatlantiruvchi kuchlar bajargan ish zararli va foydali qarshilik kuchlari bajargan ishga teng bo'lar ekan.

Mashina agregatining to'xtash davrida oxirgi tezlik 0 ga teng bo'ladi, yani $V_i = 0$ bu holda quyidagini yozish mumkin:

$$\sum_{i=1}^n \frac{m_i V_i^2}{2} = 0 \quad \text{yoki} \quad W_x - W_{f,q} - W_{z,q} = - \sum_{i=1}^n \frac{m_i V_0^2}{2}$$

Bundan $W_x > W_{f,k} + W_{z,k}$ ekanligini, yani harakatlantiruvchi kuchlar bajargan ishi foydali va zararli qarshilik kuchlari bajargan ishdan katta ekanligi kelib chiqadi, lekin

to'xtash davrida $W_h=0$; $W_{fq}=0$ bo'lishi kerak. U holda mashina agregatining to'xtash davridagi harakat tenglamasi quyidagi ko'rinishga keladi:

$$W_{z,q} = \sum_{i=1}^n \frac{m_i V_0^2}{2}$$

Demak, to'xtash davrida harakat vaqtida to'plangan kinetik energiya zararli qarshilik kuchlari bajargan ishni engishga sarflanar ekan. Bundan, zararli qarshilik kuchlarini oshirib mashinani tezrok to'xtatish mumkin degan xulosa kelib chiqadi (masalan tormozlash yo'li bilan). 8.1 – shaklda suniy tormozlash yo'li bilan t_3 vaqtini t_3^1 gacha qisqartirish mumkinligi ko'rsatilgan (b-s' chiziq).

MEXANIZMLARNI KINETOSTATIK TAHLIL QILISH

Mashina dinamikasini o'rganishda kinetostatika keng qo'llanadi. Bu usul Dalamber prinsipiga asoslangan bo'lib, muvozanatdagi dinamika deb qarash mumkin, yani sistemaga ta'sir qiluvchi barcha kuchlarga inertsia kuchlari qo'shilsa shu onda sistemani muvozanatda deb qarash mumkin.

Quyida mexanizmni kinetostatik tahlil qilishni kirivoship shatunli mexanizm misolida ko'rib chiqamiz. Buning uchun avvalo mexanizmni kinematik sxemasi va shu holatga mos kelgan tezlanishlar planini quramiz. Agar berilgan mexanizm avval kinematik tahlil qilingan bo'lsa, shu tahlildan mexanizmning kinematik sxemasi va tezlanish plani ko'chirib chiziladi. 8.2 – shaklda krivoship – shatunli mexanizmning kinematik sxemasi va tezlanishlar plani keltirilgan. (8.2 – shakl a,b).

Kinetostatik tahlil qilish – mexanizm zvenolarining inertsia kuchlarini ham hisobga olgan holda, kinematik juftlardagi tayanch reaksiya kuchlarini aniqlash demakdir. Krivoship – shatunli mexanizmning sxemasidagi mos nuqtalarga mos tashqi va inertsia kuchlarini qo'yamiz. Buning uchun avval aniqlanishi mumkin bo'lgan kuchlarning kattaliklarini aniqlab olamiz.

Zvenolarning inertsia kuchlari va momentlarini aniqlaymiz:

$$P_{u2} = -m_2 \cdot a_{s2}, N$$

$$P_{u3} = -m_3 \cdot a_{s3} = -m_3 \cdot a_B, N;$$

$$M_{u2} = -J_{s2} \cdot E_2, N \cdot M$$

Inertsia kuchlarini aniqlashda manfiy ishora inertsia kuchlarining tezlanishga teskari yo'nalganligini bildiradi. Krivoshipning inertsia kuchi va momenti 0 ga teng, chunki uning og'irlik markazi 0 nuqtada yotadi (binobarin $a_0=0$), burchak tezligi esa o'zgarmas, chunki masala shartida asosan $\omega_i = const$ deb beriladi. Shuning uchun $\varepsilon_i = 0$; $M_{u1}=0$ bo'ladi.

Zvenolarning og'irlik kuchlarini aniqlaymiz:

$$G_1 = m_1 \cdot g, N$$

$$G_3 = m_3 \cdot g, N$$

$$G_2 = m_2 \cdot g, N$$

G_1 ni 0 nuqtaga, G_2 ni S_2 nuqtaga va G_3 ni B nuqtaga shuningdek P_{u2} ni a_{s2} ga parallel qilib faqat unga qarama qarshi tomonga qaratib S_2 nuqtaga va P_{u3} ni a_B ga parallel unga teskari tomonga qaratib B nuqtaga qo'yamiz. M_{u2} ni S_2 nuqtaatrofiga E_2 ga teskari tomonga yo'naltiramiz. Mexanizmda 2 – 3 Assur guruhini ajratib olamiz (8.2 – shakl b). Mos nuqtalarga mos og'irlik va inertsia kuchlarini qo'yamiz. Bnuqtada 3 – zvenoni tayanchdan, yani 4 – zvenodan ajratib oldik, shuning uchun bu nuqtaga 4 – zvenoning 3 – zvenoga ta'sirini tayanch reaksiya kuchi bilan almashtirishimiz kerak. Bu tayanch reaksiya kuchi Y o'qiga perpendikulyar yo'nalgan bo'ladi, lekin qaysi tomonga yo'naladi va moduli qancha ekanligi nomalum, binobarin bu kuch topilishi kerak. Xozircha ixtiyoriy tomonga, aytaylik o'ng tomonga yo'naltiramiz.

A nuqtada 2 – zveno 1 – zvenodan ajratib olindi, bu nuqtadagi tayanch turi silindrik sharnir bo'lganligi uchun uni ikkita tashkil etuvchiga ajratib olamiz $\begin{pmatrix} \bar{R}_{12}^n & \bar{R}_{12}^r \end{pmatrix}$

masalani yechimini osonlashtirish uchun $\bar{R}_{12}^n$ kuchni shatun o`qi bo`ylab yo`naltiramiz. V nuqtaga nisbatan barcha kuchlarni momentlarini yig`indisini 0 ga tenglaymiz.

$$\sum M_B(F_i) = R_{12}^\tau \cdot AB - P_{u2} \cdot h_{pu2} + G_2 \cdot h_{c2} - M_{u2} = 0$$

$$R_{12}^\tau = \frac{P_{u2} \cdot h_{pu2} - G_2 \cdot h_{c2} + M_{u2}}{AB}, N$$

bunda h_{pi2}, h_{G2} va AB lar bevosita chizmadan o`lchab olinadi va metrga aylantirib qo`yiladi, chunki M_{i2} ning birligi $N \times M$. Qolgan R_{12}^p va R_{43} tayanch kuchlarini topish uchun kuchlar ko`pburchagidan foydalanamiz. 2 – 3 guruhining muvozanat sharti quyidagicha (barcha kuchlarning geometrik yig`indisi 0 ga teng bo`lishi kerak):

$$\vec{R}_{43} + \vec{G}_2 + \vec{G}_3 + \vec{P}_{u2} + \vec{P}_{u3} + \vec{R}_{12}^\tau + \vec{R}_{12}^n = 0$$

Ushbu formulaga e`tibor berilsa, u noma`lum R_{43} kuchdan boshlanib, noma`lum  $R_{12}^n$  kuch bilan tugayapti. Shunday qilinsagina kuch ko`pburchagini grafik usulda echish mumkin bo`ladi.


Kuch masshtabi tanlaymiz:

$$\mu_p = \frac{P_{u2}}{\bar{P}_{u2}} \left[\frac{N}{MM} \right]$$

Bu yerda $\bar{P}_{u2} - P_{u2}$ ning chizmadagi ifodasi bo`lib, kattaligi chizma tekisligi o`lchamlariga qarab ixtiyoriy tanlab olinadi. Masshtab tanlashda faqat R_{12} emas ixtiyoriy ma`lum kuch olinishi mumkin.

Qolgan malum kuchlarning chizmadagi ifodalarini aniqlaymiz:

$$\bar{G}_2 = \frac{G_2}{\mu_p}, MM; \quad \bar{P}_{u3} = \frac{P_{u3}}{\mu_p}, MM; \quad \bar{G}_3 = \frac{G_3}{\mu_p}, MM; \quad \bar{R}_{12}^\tau = \frac{R_{12}^\tau}{\mu_p}, MM.$$



8.2-shakl

Endiyuqoridagimuvozanatshartidagikuchlarketma-ketliginisqaqlaganholda kuchko'pburchaginichizamiz. Dastavval R_{43} ning yo'nalish chizigini o'tkazamiz. Bu chiziqda ixtiyoriy nuqta tanlab $\bar{G}_2, \bar{G}_3, \bar{P}_{u2}, \bar{P}_{u3}$ va R_{12}^r larning chizmadagi kattaliklarini yo'nalishlarini saqlagan holda qo'yib chiqamiz (8.2 – shakl r). Agar yuqoridagi hisoblashlarda R_{12}^r ning ishorasi manfiy chiqsa, uni teskari tomonga yo'naltirish zarur bo'ladi. R_{12}^r tugagan nuqtadan R_{12}^n ni qo'yishimiz kerak, bu kuchning faqat yo'nalish chizig'i ma'lum (AB ga parallel). Demak AB ga parallel chiziq o'tkazamiz, bu chiziq, R_{43} kuchning yo'nalish chizigi bilan kesishgan nuqtada kuch ko'pburchagi yopiladi. Muvozanat sharti ham shunday, kuchlarning teng ta'sir etuvchisi 0 ga teng bo'lishi uchun shu kuchdan tuzilgan kuch ko'pburchagi yopiq

bo'lishi kerak. Vektorlar ketma-ketligidan foydalanib R_{12}^n va R_{43} larning yo'nalishini belgilaymiz (bir nuqtada ikki vektorning oxiri yoki boshi tutashmasligi kerak). R_{12}^n ning boshi bilan R_{12}^p ning oxirini tutashtirsak umumiy R_{12} kuchni hosil qilamiz. Chizilgan kuch ko'pburchagidan noma'lum kuchlarning kattaliklarini topamiz:

$$R_{43} = \bar{R}_{43} \cdot \mu_p, N \quad R_{12}^n = \bar{R}_{12}^n \cdot \mu_p, N; \quad R_{12} = \bar{R}_{12} \cdot \mu_p, N.$$

Endi yetaklovchi zveno va tayanchni, ya'ni 1 – 4 guruhni ajratib olamiz.

A nuqtaga 2 – zvenoning 1 – zvenoga ta'sirini qo'yishimiz kerak. Bu kuch R_{21} deb belgilanadi va u quyidagi munosabatdan topiladi:

$$R_{21} = -R_{12}; \quad |R_{21}| = |R_{12}|$$

Ya'ni 2- zvenoning 1- zvenoga ta'siri modul jihatidan, 1- zvenoning 2- zvenoga ta'sir kuchiga teng, faqat qarama-qarshi yo'nalgan bo'ladi. 1-4 guruhning muvozanat shartini yozamiz:

$$\vec{R}_{21} + \vec{G}_1 + \vec{R}_{41} = 0$$

Bu munosabatdan R_{41} tayanch reaksiya kuchini aniqlashimiz kerak. Buning uchun kuch ko'pburchagini quramiz. Kuch masshtabi tanlaymiz:

$$\mu_p = \frac{R_{21}}{\bar{R}_{21}} \left[\frac{N}{MM} \right];$$

G_1 - kuchning chizmadagi ifodasini topamiz:

$$\bar{G}_1 = \frac{G_1}{\mu_p}, MM$$

$\bar{R}_{21}$ va $\bar{G}_1$ kuchlarni chizmadagi ifodalarini yo'nalishlarini saqlagan holda qo'yamiz (3.2 –shakl d). Oxirgi $\bar{R}_{41}$ kuch bu ko'pburchakning yopuvchisi bo'lishi kerak, shuning uchun $\bar{G}_1$ ning oxirini $\bar{R}_{21}$ ning boshi bilan tutashtiramiz va $\bar{R}_{41}$ ni chizmadagi kattaligini hosil qilamiz. Uninghaqiqiykattaligini quyidagicha topamiz:



$$R_{41} = \bar{R}_{41} \cdot \mu_p, N$$

MUVOZANATLOVCHI KUCHNI ANIQLASH

Mexanizmda yuzaga kelayotgan inertsia kuchlari natijasida tayanch reaksiya kuchlari xaddan ziyod oshib ketsa mexanizm ishdan chiqishi mumkin. Shuning uchun barcha tez harakatlanuvchi krivoship – shatunli mexanizmlarda krivoshipning A nuqtasiga muvozanatlovchi kuch P_{my8} qo'yiladi. Uning kattaligini topish uchun barcha kuchlarning 0 nuqtaga nisbatan momentlarining yig'indisi 0 ga tenglanadi. P_{my8} A nuqtaga OA ga perpendikulyar qilib qo'yiladi.

$$M_0(F_i) = P_{my8} \cdot OA - R_{21} \cdot h_{R21} = 0 \quad P_{my8} = \frac{R_{21} \cdot h_{R21}}{OA}, N$$

h_{R21} va OA lar bevosita chizmadan o'lchab olinadi.



Muvozanatlovchi kuchni mexanizmni kinetostatik tahlil qilmasdan ham aniqlash mumkin, ya'ni mexanizmin kinematik juftlaridagi tayanchreaksiya kuchlarini aniqlamasdan ham muvozanatlovchi kuchni topish mumkin. Buni birinchi marta rus professori N. E. Jukovskiy tomonidan taklif qilingan bo'lib, "**Jukovskiy usuli**" deb ataladi. Bu usulda muvozanatlovchi kuchni topish uchun 90° ga burilgan tezlik plani quriladi, mos nuqtalarga mos tashqi va inertsia kuchlari qo'yiladi. Zvenoning inertsia momenti ikkita kuchga ya'ni juftga ajratiladi va zvenoning tezliklar planidagi ikkita nuqtasiga qo'yiladi (8.3 shakl). A nuqtasiga R_a ga perpendikulyar qilib

P_{myg}^1 muvozanatlovchi kuch qo'yiladi va barcha kuchlarning Qytb R nuqtaga nisbatan momentlarining yig'indisi 0 ga tenglanadi:

$$P_{u2} \cdot h_{pu2} + P_{u3} \cdot h_{pu3} - P_{myg}^1 \cdot Pa - P_2 \cdot h_{p2} - P_2^1 \cdot h_{p2} - G_2 \cdot h_{G2} - G_3 \cdot P_6 = 0$$

Bu munosabatdan R_{myg}^1 hisoblab topiladi:

$$P_{myg}^1 = \frac{P_{u2} \cdot h_{pu2} + P_{u3} \cdot P_6 - P_2 \cdot h_{p2} - P_2^1 \cdot h_{p2} - G_2 \cdot R_{G2} - G_3 \cdot P_6}{Pa}, N$$

Barcha kuchlarning yelkalari bevosita chizmadan o'lchab olinadi.

Muvozanatlovchi kuchning qanchalik aniq topilganligini bilish maqsadida ikki usulda aniqlangan muvozanatlovchi kuchlar bir-biriga solishtiriladi. Xatolik 5% dan oshmasligi kerak:

$$\Delta = \frac{P_{myg} - P_{myg}'}{P_{myg}} \cdot 100\%$$

23 MAVZU

MEXANIZMLARNI LOYIHALASH ASOSLARI. MUSHTCHALI MEXANIZMLARNI TAHLIL QILISH VA LOYIHALASH

Reja:

1. Mexanizmlarni loyihalash asoslari.
2. Mushtchali mexanizmlarning turlari.
3. Mushtchali mexanizmlarni tahlil qilish va loyihalash.

Adabiyotlar: 15,16,17,18.

Tayanch iboralar: Mushtchali mexanizmlar, tahlil qilish va loyihalash, aksial va dezaksial, o'tkir uchli, rolikli, tarelkasimon to'rtkichlar, mushtchani sirti profili, diagrammalar, differensiallash va integrallash.

MEXANIZMLARNI LOYIHALASH ASOSLARI

Biz yuqorida mexanizmlarni tahlil qilishni ko'rib chiqdik, ya'ni mexanizmning tuzilishi va yetaklovchi zvenoning harakat qonuni berilgan holda qolgan zvenolarning harakat qonunlarini aniqlash, shuningdek mexanizm zvenolariga ta'sir qiluvchi tashqi

kuchlar, inertsia kuchlari va kinematik juftlarga ta'sir qiladigan tayanch reaksiya kuchlarining o'zgarishini ko'rib chiqdik. Demak **tahlil** – tayyor mexanizمنى qonuniyatlarini tekshirishdir.

Mexanizm va mashinalarni o'rganishda ularni loyihalash masalasi ham asosiy masalalardan hisoblanadi. **Loyihalash**-talab etilgan qonuniyatni bajara oladigan mexanizm yoki mashina yaratish demakdir. Loyihalash mexanizm va mashinalar nazariyasida sintez deb yuritiladi. Ushbu mulohazalardan ko'rinib turibdiki tahlil qilish va loyihalash bir-biriga teskari masalalardir. Tahlil qilishga qaraganda loyihalash ancha murakkab bo'lib bir necha bosqichlarni o'z ichiga oladi.

